

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JO‘RAYEV SHUKRULLO ALISHBOYEVICH

ERKIN VOHIDOV BADIY PUBLITSISTIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

Qosimov Usmon

filologiya fanlari doktori, professor

Jizzax-2025

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB. ERKIN VOHIDOVNING SERQIRRA IJODI VA BADIY PUBLITSISTIKASI.....	
1.1-§.Erkin Vohidov iste'dodi va ijodiy faoliyati serqirraligi.....	12
1.2-§.Shoir badiiy publitsistikasi: an'anaviylik va o'ziga xoslik.....	33
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	49
II BOB. ERKIN VOHIDOV PUBLITSISTIKASIDA DAVR RUHI	
2.1-§. Ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy muammolar talqini.....	51
2.2-§. Publitsistikada badiiy ijod va ijodkor shaxs muammolari.....	71
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	89
III BOB. SHOIR SHE'RIYATI VA PUBLITSISTIKASI YAXLITLIGI	
3.1-§. She'riyat va publitsistika: tarixiylik va mushtaraklik.....	91
3.2-§.Erkin Vohidov so'z olami: ijod saboqlari.....	124
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	149
XULOSA.....	151
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	153

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy publitsistika, uning taraqqiyot bosqichlari, publitsistika haqidagi qarashlar hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Publitsistika, xususan, badiiy publitsistika bo'yicha xalqaro doiralarda diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, jahon adabiyotshunosligida publitsistikaning bir yo'nalishi hisoblanmish badiiy publitsistikaning g'oyaviy-badiiy, mavzu hamda kompozitsion xususiyatlarini talqin etish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo adabiyoti hamda tanqid-adabiyotshunosligida e'tirof etilganidek, publitsistika-maqolanavislik adabiyot, ya'ni badiiy ijod va jurnalistikaning yetakchi bir janri, tezkor shakli sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Bu jihatdan Lev Tolstoy, Maksim Gorkiy, Andre Morua, Mixail Sholoxov, Leonid Leonov, Borxes, Yulius Fuchik, Konstantin Paustovskiy, Chingiz Aytmatov va Valentin Rasputinlarning publitsistik asarlari mashhurdir. Badiiy publitsistikaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, shu asosda janrning fenomenal jihatlarini umumlashtirish, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, ilmiy jihatdan yoritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida badiiy publitsistikani o'rganishga alohida e'tibor berilayotganligi ilmiy izlanishlar qamrovining yanada kengayishiga, tahlil obyektlarining yangilanishiga sabab bo'lmoqda. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish muhim ahamiyatga ega"¹. Shu ma'noda badiiy publitsistikaning adabiy-nazariy tasnif va tavsifini aniqlash maqsadida mazkur sohada samarali ijod qilgan O'zbekiston Qahramoni

¹Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 7 августдаги "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференциядаги маърузаси.
<https://www.president.uz>

Erkin Vohidovning badiiy publitsistik maqolalari, lirikasini tadqiq etish adabiyotshunoslikning zaruriy masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2016-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ-2829-son “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, 2024-yil 23-maydagi Erkin Vohidov ijodiga bag‘ishlangan adabiy festival qatnashchilariga yo‘llagan tabrigi hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosining amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligi va adabiy-estetik tafakkur tarixida yozuvchining adabiy-estetik qarashlari bilan badiiy ijod o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik muammosi ilmiy-nazariy jihatdan ancha keng o‘rganilgan². Jumladan, rus adabiyotshunosligida E.V.Jurbina, M.S.Cherepaxov,

² Афлотун. Давлат. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2015. – 464 б.; Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.; Георг Вильгельм Фридрих Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан Маҳмуд Абдуллаев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2011. – 360 б.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – 504 с.; Кант, Иммануил. Критика способности суждения. – М.: Искусство, 1994 –365.; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛОЛГУ, 1960; Выготский Л.С. Психология искусства. – М.: Просвещение, 1986; Понамарев Я.А. Психология творчества. – М.: Наука, 1976; Лук А.Н. Психология творчества. – Л.: Наука, 1978; Психология

V.V.Uchenova, E.Proxorov, P.S.Karasayev, M.I.Styuflyayeva, V.Zdorovego, L.G.Kayda kabi adabiyotshunoslarning publitsistika nazariyasi, janrlar tipologiyasi, gnoseologiyasi muammolari, publitsistik tafakkur genezisi xususida jiddiy tadqiqotlari mavjud³.

O‘zbek adabiyotshunosligida ayni mavzuda “Adabiy-estetik tafakkur tarixi” nomli monografiya, dissertatsiyalar, risola hamda maqolalar yozilgan⁴.

“Erkin Vohidov hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha tanqid va adabiyotshunosligimizda salmoqli ishlar amalga oshirilgan”⁵. Erkin Vohidov

процессов художественного творчества. – Л.: Наука, 1980; Мейлах Б.С. Психология художественного творчества: предмет и пути исследования. – Л.: Наука, 1980; Асмаилов А.Г. Психология личности. – М.: МГУ, 1990; Тамарченко Н.Д. Теоретическая поэтика: понятия и определения – М.: МГУ, 1999; Томашевский Б.В. Теория литературы поэтика. – М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 1999; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта-Наука, 2000; Теория литературы а двух томах. (под редакцией Н.Д.Тамарченко). Том 1. Н.Д.Тамарченко., В.И.Тюпа., С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса теоритическая поэтика. – М.: АCADEMIYA, 2004; Теория литературы а двух томах. (под редакцией Н.Д.Тамарченко). Том 2. С.Н.Бройтман. Историческая поэтика. – М.: АCADEMIYA, 2004; Теория литературных жанров. (под редакцией Н.Д.Тамарченко). – М.: АCADEMIYA, 2011.

³ Журбина Е.В. Теория и практика художественно-публицистических жанров. – М.: Ммсль, 1969. – 399 с.; Черепанов М.С. Проблемм теории публицистики. – М.: Ммсль, 1973. – 270 с.; Черепанов М.С. Таинство мастерство публициста. – М.: Ммсль, 1984. – 150 с.; Ученова В.В. Гнесеологические проблемм публицистики. – М.: Издательство МГУ, 1971. – 148 с.; Ученова В.В. У истоков публицистики. – М.: Изд-во МГУ, 1989. – 214 с.; Карасаев П.С. Проблемм теории публицистики. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та., 1973. – 40 с.; Здорова В.И. Публицистика, её природа, общественная роль, гнесеологические и психологические основм. – М.: Ммсль, 1989. – 160 с.; Прохоров Е. Искусство публицистики. – М.: Советский писатель, 1984. – 360 с.; Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975. – 153 с.; Стюфляева М.И. Образне ресурсм публицистики. – М.: Ммсль, 1982. – 176 с.; Кайда Л.Г. Композиционная поэтика публицистики. – М.: Наука, 2006. – 144 с.

⁴ Тогаев О. Ўзбек бадий публицистикаси (назария ва махорат масалалари). – Тошкент: Фан, 1973. – 207 б; Худойкулов М. Ўзбек бадий публицистикасининг шаклланиш тамойиллари (XIX аср охири XX аср ўрталари ўзбек матбуоти материаллари асосида): Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент., 2001. – 293 б; Шу муаллиф. Бадий публицистика жанрлари. (ўқув қўлланма) – Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети босмахонаси, 2004. – 54 б; Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 64 б; Шу муаллиф. Истиклол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012; Шу муаллиф. Қодирийшунослик қирралари. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 204 б; Болтабоев Ҳ., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – 400 б; Досмухамедов Х.Н. Журналистнинг касб-одоби муаммолари: назарий ва методологик таҳлил (Мустакиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент., 1995. – 29 б; Абдумуратов А. Публицистика Т.Каипберганаева: специфика, тематика, жанрово-стилистические особенности: автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Тошкент., 1997. – 21 с; Саидов Ҳ. Махмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 1998. – 137 б; Йўлдошбекова С.С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2002. – 30 б; Тошмухаммедова Л. Абдулла Қодирийнинг адабий-эстетик қарашлари: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2005. – 26 б; Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва адабий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди): Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2019. – 70 б; Қўчқорова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2004. – 134 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси ва унинг ривожланиш тамойиллари: Филол.фан. номз...дисс. – Бухоро, 2004. – 155 б; Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент.: Муҳаррир, 2012. – 128 б; Гаипова Ҳ.Қ. Матназар Абдулҳакимнинг бадий ва публицистик маҳорати: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2019. – 54 б; Бурхоннова Ф.А. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Н.Эшонкул ва У.Ҳамдам ижоди мисолида): Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент., 2019. – 52 б.

⁵ Sh.Xo‘jamberdiyeva Ta’lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi va hayotini o‘rgatish usullari. Ped. fan. (PhD) diss. avtoreferati. – Namangan, 2019, –B. 54; Tohir Qahhor “Erkin Vohidov”, Turkiyadan tashqaridagi turkiy adabiyot antologiyasi, O‘zbek adabiyoti III. Madaniyat vazirligi nashriyoti. – Anqara, 2000, –B.107-109.; Erkin Vohidov

talanti va ijodi favqulodda nodir fenomen – sirli tilsim va she’riyati adabiyotimizda ulkan hodisa ekanligini Abdulla Qahhor, Ch.Aytmatov hamda A.Oripov kabi ulug’ allomalar, O‘zbekiston Qahramonlari O.Sharafiddinov, I.G‘afurovlar, L.Qayumov, N.Shukurov, R.Inog‘omov va Shukur Qurbon kabi ustozlar, O.Abdullayev, Ya.Qosimov, Q.Yo‘ldoshev, U.Qosimov, D.Azimova, M.Jo‘rayev singari munaqqid-adabiyotshunoslar, qolaversa, Veli Savash kabi xorijiy olimlar ham yakdillik bilan e’tirof etganlari ham shoir she’riyati va yuksak poetik mahoratini anglash hamda qadrlashimizda ishonchli asos va manba bo‘ladi⁶.

Bulardan tashqari, XX asr o‘zbek poeziyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tanqidchi-adabiyotshunoslar ham u yoki bu darajada Erkin Vohidov asarlariga murojaat qilganlar va ular haqida muayyan fikr va qarashlarini bayon etganlar⁷. Bu mavzuda so‘nggi yillarda yaratilgan asarlar ichida taniqli shoir Shukur Qurbonning “Erkin Vohidov saboqlari”⁸ (2016) kitobi hamda 2018-yili nashr etilgan “To quyosh sochgayki nur”⁹ nomli salmoqli to‘plam qamrov doirasi kengligi bilan ajralib turadi. To‘plamda Erkin Vohidov ijodining yorqin qirrasi bo‘lgan badiiy publitsistikasiga deyarli e’tibor qaratilmagan. Bu holatlar professorlar N.Rahimjonov va M.Qo‘chqorovanning publitsistika va badiiy janrlar bo‘yicha ilmiy izlanishlarida ham to‘g‘ri qayd etilgan.

Taniqli adabiyotshunos Ibrohim G‘afurovning yaqinda e’lon qilingan “Biz Erkin Vohidov ijodini nega sevamiz!” nomli maqolasini alohida ta’kidlab o‘tish

ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni. – Toshkent: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2022, B. – 372.

⁶ Норматов У. Адабиётимизнинг ярим асри. – Тошкент: Ёш гвардия, 1967, –В.160-244; Норматов У. Талант тарбияси. –Тошкент: Ёш гвардия, 1980-йил; Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989-йил; Гафуров И. Фасоҳат. Заковат – Мангу латофат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.; Курбон Шукур (тўловчи, тузувчи). Эркин Воҳидов сабоқлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016.; То quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018, – B. 507.; Вали Саваш. Эркин Воҳидов шеърляти тили ва услуби. Филол.фан. номз....дисс. – Тошкент: 2018.

⁷ Yormatov I. Hozirgi o‘zbek lirikasidagi sintezlashgan folklorizmlar xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985., №2. – B. 35-39; Amilova M. O‘zbek sovet adabiyotida folklor an‘analari. – Тошкент: Fan, 1990, – B.124; G‘.Mo‘minov. Hozirgi o‘zbek adabiyotida folklorizm. Fil. fan. dok. diss. avtoref. – Тошкент: 1994, – B. 54; Xudoyberganov N. So‘z kurashga chorlaydi. – Тошкент: Adabiyot va san‘at, 1984-yil; Abdullaev O. She’riyatning tiniq osmoni. – Тошкент: Yosh gvardiya, 1983-yil; Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Тошкент: Fan, 2010-yil; Karimov B. O‘zbek she’riyati antologiyasi. – Тошкент: Yangi asr avloidi, 2009-yil.

⁸ Qurbon Shukur (to‘plovchi, tuzuvchi) Erkin Vohidov saboqlari. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016, – B. 164.

⁹ To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018, – B. 507.

lozim. Biroq shu maqolada ham shoirning biron publitsistik asari haqida fikr bildirilmagan. Erkin Vohidov ijodi misolida publitsistikaning ijtimoiy va ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini yoritish, adibning badiiy ijod, soʻz olami va til mahorati borasidagi asarlari bilan she'riyatining gʻoyaviy-badiiy mushtarakligi muammolari yaxlit tarzda oʻrganilishi oʻz yechimini kutib turgan muammolardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalar hamda oʻzbek adabiyotini zamonaviy usullarda oʻqitish muammolari” mavzusidagi ilmiy yoʻnalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Erkin Vohidov publitsistikasining adabiy-estetik, ilmiy-falsafiy, janriy-uslubiy jihatlarini poetik ijodi bilan yaxlitlikda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Erkin Vohidovning serqirra ijodi, iste'dodi va badiiy publitsistikasi: an'anaviylik va oʻziga xoslik xususiyatlari, publitsistik asarlariga xos janriy-uslubiy jihatlarini ochib berish;

Erkin Vohidov publitsistikasida davr ruhining aks etishi, ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy muammolar talqini, publitsistikada badiiy ijod va ijodkor shaxs muammolarini aniqlash;

Erkin Vohidovning badiiy publitsistik asarlarini adabiy jarayon kontekstida qiyosiy-tipologik tadqiq etish;

shoir she'riyati va publitsistikasi yaxlitligi, she'riyat va publitsistikada tarixiylik va mushtaraklik masalasi, publitsistik mahoratini, soʻz olami va ijod saboqlari tahlili yoritilgan.

Tadqiqotning obyekti sifatida Erkin Vohidovning “Shoir-u she'r-u shuur”, “Iztirob”, “Soʻz latofati” toʻplamlari hamda saylanmalaridagi badiiy publitsistik mavzulardagi asarlari, nutq va suhbatlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Erkin Vohidovning publitsistik mahorati, badiiy ijod hamda soʻz olami haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlari estetik kategoriya

sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni bevosita davr bilan vobasta va adabiy jarayon kontekstida o'rganilishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, biografik, komparativistik, tekstologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Erkin Vohidovning badiiy ijod, ijodkor shaxs, poetik mahorat, til va uslub, so'z san'ati haqidagi publisistik asarlari adibga zamondosh shoirlar G'afur G'ulom, Shayxzoda, Mirtemir kabi shoirlarni ustoz o'rnida bilib "Shoir" va "Shoir qalbi" she'rlarini bitganligi, Said Ahmad, Abdulla Oripov kabi adiblar qatori ijodiy tazyiqqa uchraganligi aniqlangan;

Erkin Vohidovning "Iztirob", "Shoir-u she'r-u shuur", "So'z latofati" kabi badiiy publisistik asarlarining adabiy-estetik tafakkur rivojida muhim o'ringa ega, "Iztirob" to'plamida "Shoirlar armoni", "Ota yurtning omon bo'lsa" kabi maqolalarida ijtimoiy-axloqiy, "So'z latofati" asaridan "Barkamol soddalik", "Shoir qalbining fig'oni" maqolalarida ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati davr muammolari bilan bog'liq tarzda ochib berilgan;

Erkin Vohidov badiiy publitsistikasida etakchi o'rin egallagan esse, adabiy o'ylar, adabiy suhbat kabi janrlarning asosiy mazmuni shoir she'rlari bilan g'oyaviy-badiiy jihatdan mushtarak tarzda ochib berilgan;

shoirning "Iztirob" to'plamidagi "O'zbekchilik", "Bizning odatlar" maqolalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, "So'z latofati" kitobidagi "So'z – zabarjad, so'z – gavhar, oltin", "Uch daruodan suv ichgan dengiz", "Ko'mirga aylangan umr" kabi maqolalarida serqirra o'zbek tili haqidagi qarashlari aks etganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Erkin Vohidovning ijod jarayoni, til mahorati, so'zning badiiy ijoddagi sehrli qudrati haqidagi publitsistik asarlari davr ziddiyatlari va murakkab adabiy muhit bilan bog'liq tarzda o'rganilib, tanqid va adabiyotshunoslik uchun zarur xulosa va umumlashmalar chiqarilgan;

o'tgan asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi adabiy jarayon hamda badiiy-estetik tafakkur rivojida Erkin Vohidov publitsistik asarlaridan "XX asr o'zbek adabiyoti", "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti" fanlaridan o'quv majmualar tuzishda ijodkor asarlari bilan bir qatorda badiiy publitsistikasining ilmiy-ijodiy va amaliy ahamiyatini chuqurroq o'rgatish tavsiya qilingan;

Erkin Vohidov publitsistikasidagi yetakchi tamoyillar, ijod jarayonida so'zning o'rni, til mahorati, individual uslub, badiiy obraz va obrazlilik, muallif iste'dodining o'ziga xosligi sara publitsistik asarlari va ularga hamohang she'rlari tahlil orqali ochib berilgan;

Erkin Vohidov publitsistikasida an'ana va novatorlik yozuvchining "Iztirob" to'plamidagi "O'zbekcha salomga o'zbekcha alik bo'lsin", "Shoir-u she'r-u shuur" kitobida "Adolat tuyg'usi" maqolalarida, aruz va g'azalnavislik masalalari shu to'plamdagi "Aruz haqida", "She'r qadri" maqolasida hamda tarjimonlik mahorati "Gyote yurgan yo'llardan" maqolasidagi fikrlar hamda "Faust" asari tarjimasi orqali yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, ilmiy-nazariy fikrlarning qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy tahlil usullari orqali asoslangani, internet ma'lumotlaridan ham foydalanilgani, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi va mazkur janrning tadrijiy rivoji masalasini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, nazariy qarashlar tanqid adabiyotshunosligi uchun yangi ma'lumot va xulosalar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida o'zbek filologiyasi fakultetlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy tanqid tarixi va hozirgi adabiy jarayon" fanlaridan darslik, qo'llanmalar yaratish, shuningdek, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar mazmunini

boyitishda, publitsistik janrlarga oid lugʻatlar tuzish va ixtisoslik fanlarini tizimli oʻqitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Erkin Vohidovning badiiy ijod, ijodkor shaxs, poetik mahorat, til va uslub, soʻz sanʼati haqidagi publisistik asarlari adibga zamondosh shoirlar Gʻafur Gʻulom, Shayxzoda, Mirtemir kabi shoirlarni ustoz oʻrnida bilib “Shoir” va “Shoir qalbi” sheʼrlarini bitganligi, Said Ahmad, Abdulla Oripov kabi adiblar qatori ijodiy tazyiqqa uchraganligi toʻgʻrisidagi xulosalaridan F3-2016-09081165532-raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialining 2024-yil 02-apreldagi 150/1-son maʼlumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasidagi maqolalar, monografiyalar hamda adabiyotshunoslik tadqiqi yuzasidan tadqiqotlar ilmiy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

Erkin Vohidovning “Iztirob”, “Shoir-u sheʼr-u shuur”, “Soʻz latofati” kabi badiiy publisistik asarlarining adabiy-estetik tafakkur rivojida muhim oʻringa ega, “Iztirob” toʻplamida “Shoirlar armoni”, “Ota yurtning omon boʻlsa” kabi maqolalarida ijtimoiy-axloqiy, “Soʻz latofati” asaridan “Barkamol soddalik”, “Shoir qalbining figʻoni” maqolalarida maʼnaviy-tarbiyaviy ahamiyati davr muammolari bilan bogʻliq tarzdagi xulosalaridan A1-XT-0-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2024-yil 2-apreldagi 150/1-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha yangi nazariy manbalar, maʼlumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

Erkin Vohidov badiiy publitsistikasida yetakchi oʻrin egallagan esse, adabiy oʻylar, adabiy suhbat kabi janrlarning asosiy mazmuni shoir sheʼrlari bilan

g‘oyaviy-badiiy jihatdan mushtarakligi to‘g‘risidagi xulosalardan “Ma’rifat targ‘ibotchilari” jamiyati tomonidan tashkil etilgan targ‘ibot tadbirlarida hamda adib ijodini yoshlarga targ‘ib qilish maqsadida o‘tkazilgan uchrashuvlarda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Jizzax viloyat bo‘limining 2024-yil 22-apreldagi 01/52-son ma’lumotnomasi). Natijada targ‘ibot tadbirlari hamda adib ijodini yoshlarga targ‘ib qilish maqsadida o‘tkazilgan uchrashuvlarning saviyasi, mazmun-mohiyati oshishi ta’minlangan;

shoirning “Iztirob” to‘plamidagi “O‘zbekchilik”, “Bizning odatlar” maqolalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, “So‘z latofati” kitobidagi “So‘z – zabarjad, so‘z – gavhar, oltin”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Ko‘mirga aylangan umr” kabi maqolalarida serqirra o‘zbek tili haqidagi qarashlari aks etganligi aniqlangan o‘rinlardan Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi faoliyatida foydalanilgan (Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 24-maydagi 2-13-21-2441-son ma’lumotnomasi). Natijada Erkin Vohidov publitsistikasidagi ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolar talqini hamda yosh avlod tarbiyasi uchun ibratli jihatlari haqidagi ilmiy xulosalar Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlarida asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 ta maqola respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

I BOB. ERKIN VOHIDOVNING SERQIRRA IJODI VA BADIY PUBLITSISTIKASI

1.1.§. Erkin Vohidov iste'dodi va ijodiy faoliyati serqirraligi

Qadimiy o'zbek xalqining shonli o'tmishi kabi uning tili va adabiyoti ham boy va yuksakligi bilan dunyo tamaddunida alohida ajralib turadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faxr bilan ta'kidlaganidek, bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor.¹⁰ Ana shunday bebaho milliy qadriyatlarimiz, adabiyot va san'atimizni chuqur o'rganish va ulardagi ibratli jihatlarni yoshlarimizni tarbiyalashga yo'naltirish muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib sanaladi. Bugungi mafkura, g'oyalar, fikrlar xilma-xilligi zamonida odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish hayotiy ehtiyoj va zaruratga aylandi. Xususan, ulug' shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodi biz uchun ko'p jihatdan o'rnak va ular bunyodkor yoshlarimizni vatanparvarlik, millatparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda juda katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Asrlar davomida o'z erki – mustaqilligi uchun kurashib kelgan matonatli xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in'ikosi bo'lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida alohida o'ringa ega. Bu tarixiy silsilada XX asr o'zbek adabiyoti ham ko'plab yorqin iste'dodlari bilan alohida ajralib turadi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Davlat mukofotlari laureati Erkin Vohidov ana shunday noyob talant sohiblaridan biridir.

XX asr va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti rivojining ijtimoiy-siyosiy, adabiy va psixologik omillari va ildiz-manbalarini tarixiy hamda ilmiy jihatdan tadqiq etish ehtiyoji bevosita badiiy asar yaratish jarayoni va ijodkor shaxsini yaxlit ma'naviy-estetik va ruhiy bir olam sifatida tadqiq etishni dolzarb muammo qilib qo'yadi. "Jonajon Vatanimizning shonli tarixi va mustaqilligi biz uchun kuch-

¹⁰ Sh.M.Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi. "Jahon adabiyoti". №8. 2017. – B. 4.

qudrat va ilhom manbayi ekan”¹¹, bu haqiqatni aks ettiruvchi adabiyotimiz tarixini chuqur o‘rganish ham muhim hayotiy zaruratdir.

Erkin Vohidov ustoz shoir Mirtemir va safdoshlariga bag‘ishlagan “Shoir” va “Shoir qalbi” she’rlarida shoir shaxsi va zahmati haqida mushohada yuritib, o‘zining ham ularga qismatdoshligini yoritadi:

Shoirlarga hayron bo‘lmang,
Shoir xalqi turfaroq.
Gohi mag‘rur, gohi diltang,
Goh hazin, goh tumtaroq.
Oqil odam g‘am, azobdan
Yonib fig‘on bo‘ladi.
Shoir esa iztirobdan
Zavq qiladi, kuladi.
Shoir dardi yuragining
Tublariga cho‘kadi.
Orom bilmas shoir qalbi,
Bir oz go‘dak,
bir oz... shoir
Bir ozgina devona.
Shoir qalbi go‘yo anor,
She’ri uning sharbati.
Bo‘lmas ekan she’r ahlining
O‘z qalbiga shafqati.
Tinmay ezar, ezar uni,
Ammo shoir biladi
Piyolasi to‘lgan kuni
Paymonasi to‘ladi¹².

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Mustaqillikining 30 yilligiga bag‘ishlangan anjumandagi nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2021.09.01

¹² Erkin Vohidov. O‘zbekim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 186.

Bu she'rlar nazdimizda shoirning mashaqqatli ijod yo'lidan bashorat edi. Erkin Vohidovning yarim asrdan ortiq davr (1952-2016 yy) davomida ijod etgan asarlari bir nechta salmoqli to'plamga jamlanib, e'lon qilinishi adabiyotimiz rivojiga beqiyos hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan, 1986-yili ikki jildidan iborat "Muhabbatnoma" va "Sadoqatnoma" to'plamlari e'lon qilinishi adabiyotimiz olamidagi ulkan voqea deyish mumkin. 2000-2001 yillar nashr etilgan "Ishq savdosi", "She'r dunyosi", "Umr daryosi" va "Ko'ngil nidosi" nomli to'rt jildlik saylanmasi millionlab o'quvchilarga beqiyos tuhfa bo'ldi. Ushbu saylanmaning birinchi jildining ilk sahifasida shunday jonbaxshida satrlar bitilgan:

Bag'ring tole nuriga to'lsin,
Ona-yurtim-munis makonim.
To tirikman, seniki bo'lsin
She'rim, umrim, yuragim, jonim.

Bu muxtasar she'r ona-vatanga bo'lgan cheksiz sadoqat va fidoyilikning Erkin Vohidovga xos teran va hikmatomuz bir ifodasi bo'la oladi. Bu asarlar faqat shoir qalb kechinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham ko'zgusidir. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara hamda ohanglari, sadolari shoir she'riyatida to'la mujassam edi deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu fikrni shoirning millat dardu tashvishlari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan publitsistik asarlariga nisbatan ham aytish ayni haqiqat bo'ladi. Shoirning butun ijodida hayotga, go'zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka esa nafrat yaqqol sezilib turadi.

Betakror she'r, g'azallari, yetuk komediya va dostonlari, beqiyos hajviyoti va tarjimalari hamda teran nutq maqolalari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan ijodkorning durdona asarlari kirib bormagan shahar yo qishloq yo'q. Bu haqiqatni atoqli adabiyotshunosimiz, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov havas bilan e'tirof etadi: "Kamil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov hozirgi

o‘zbek she‘riyatining ko‘rki va faxri. Bu fikrda zarracha mubolag‘a yo‘q”¹³. Bunday yuksak e‘tiroflarni ko‘plab keltirish mumkin. Erkin Vohidov ijodining xalqimizga bu qadar manzur bo‘lishi hamda yuksak hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lishining asosiy sabablari va omillari nimada? Iste’dodlarga boy bo‘lgan adabiyot olamida bunday sharaflari rutbalarga erishishning asos-manbalari-chi? Bu savollarga javob topish orqali Erkin Vohidov fenomenining o‘ziga xos jihatlari va shoir ijodining muhim qirralarini yoritishga erishish mumkin deb o‘ylaymiz. Binobarin, yozuvchi ijodida jamiyat hayotining ko‘plab muhim muammolari qanchalik chuqur, real va san‘atkorona ifodalanishini tadqiq etish, shubhasiz, tanqid-adabiyotshunosligimiz va ma‘naviyatimiz uchun ham dolzarb vazifalardan bo‘lib sanaladi. Bu jihatdan Erkin Vohidovning quyidagi so‘zlari yosh ijodkor va ziyolilarga ham muhim bir hayotiy dastur bo‘lishi mumkin: “Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo‘shib olib borishdek sharaflari vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she‘ring emas, o‘zing kerakligingni sezish – bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o‘zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o‘rganganman”¹⁴. Shoirning mana shunday qaynoq hayot ichida, el-yurtning orzu-umidlari va g‘am-tashvishlari bilan birga hamnafas bo‘lib yashashi unga muhim, dolzarb mavzu-g‘oyalar berishi bilan birga uni ijodkor sifatida shakllantiradi va jamiyatning muammolariga faol munosabatini va ularga daxldorlik tuyg‘usini ham kuchaytiradi. Shunday ekan, u yoki bu adib yoki biror san‘atkor ijodiga baho berilganda va uning ijodkor sifatidagi faoliyati va shaxsini o‘rganganda, o‘sha san‘atkorning butun ijodi va adabiy-estetik, ijtimoiy-publitsistik asarlariga ham yaxlit bir olam sifatida yondashilsa, o‘shanda ijodkor siymosi, uning xalq va adabiyot oldidagi xizmatlarini to‘liqroq tasavvur qilish imkoni tug‘iladi.

Bular xususida fikr yuritishdan oldin Erkin Vohidov avlodi adabiyot maydoniga kirib kelgan og‘ir yillarni, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy

¹³ Qosimov U, Sinodrov L, Nizomova M. Adabiyotimiz sahifalari. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2017. – B. 113.

¹⁴ Вохидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 68.

hayotni ko‘z oldimizga keltiraylik. Erkin Vohidovlar avlodi ijod olamiga kirib kelgan 50-60 yillar butun xalqimiz va madaniyatimiz tarixida murakkab va ziddiyatli bir davr bo‘lganligi endilikda ro‘yi rost ko‘rsatilmoqda. O‘sha yillar adabiyot va tanqidchilik maydonida faol ijod qilgan va E.Vohidov, A.Oripovlarni katta ijod olamiga boshlab, ularga rahnamolik qilgan ulkan olim va mutafakkir O.Sharafiddinov bu davrdagi hukmron siyosiy mafkuraning iste’dodli shoir va yozuvchilarni qanday tizginlab turishi va ularning ijod namunalariga munosabati haqida shunday guvohlik beradi: “Odamlar meni Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning ustozlari deb eslashadi. Albatta, bu nom juda sharaflidir va har qancha iftixor qilsa arziydi. Ochig‘ini aytib, tan olmog‘im kerak – Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning ustozlari, degan unvon menga boshqa ko‘pgina martaba-yu unvonlarimdan ortiqroq yoqadi. Ularning yozgan narsalariga e’tibor bilan qarash mening burchim edi”. Bu ikki shoirning paydo bo‘lishi, o‘sha yillari ketma-ket nashr qilingan she’riy to‘plamlari XX asr o‘zbek she’riyatini beqiyos yuksaklikka ko‘tarib yubordi. Bu she’riyat mudroq qalblarni uyg‘otdi, zanglagan va muz qotgan hislarni eritdi, ularga ko‘pgina iztirobli dardlarini unutishga yordam berdi. Ammo sho‘ro zamonida hukmron mafkuraning sog‘lom aqlga to‘g‘ri kelmaydigan xavfli o‘yinlari bo‘lardir. “Bu mafkura muhiylari o‘zlarini iste’dodparvar qilib ko‘rsatishni yaxshi ko‘rishadi. Ammo iste’dod egasi bir bahya chegaradan chiqsa, parvozi o‘ta shiddatli bo‘lsa, odamlar va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida e’tibori me’yordagidan ortib ketsa, darhol bunday ijodkorning oyog‘idan tortib, yerga tushirib qo‘yardi, kerak bo‘lsa, boshiga bir urib, pachoqroq qilib qo‘yishdan ham toymasdi. Erkin va Abdullaning parvozi esa borgan sari shiddatli tus olib bormoqda edi. Buning ustiga 60-yillarning ikkinchi yarmida hukmron mafkura nima sababdandir ko‘p sohalarda faol hujumga o‘tdi: turli qarorlar qabul qilindi, ko‘p ijodkorlar qoralandi. Yangi ta’qiblar boshlandi, yetakchi partiyaviy gazetalarda tahdidlar va po‘pisalarga to‘la maqolalar, bosh maqolalar e’lon qilina boshlandi. Bunday sharoitda Erkin ham, Abdulla ham o‘zining tegishli nasibasini olmay qolmadi”¹⁵.

¹⁵ Шарафиддинов О. Халқ устозим, мен эса толиб. Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – Б.267.

Tirnoq tagidan kir izlaydigan mafkuraparastlar yosh shoirlarning bir qancha she'riga va ayniqsa, "O'zbekim", "O'zbekiston" hamda "Tilla baliqcha" kabi she'rlariga yopishib olishdi. Ularning qator she'rlariga ham turli xil mafkuraviy tazyiq va nohaq tanqidlar bo'lgan. Mustabid sovetlar davridagi hukmron mafkura Erkin Vohidov ijodiga nisbatan ham ana shunday tazyiq o'tkazgani, ham mamlakatda ijod erkinligi yo'qligidan dalolat edi. Bu achchiq haqiqat Erkin Vohidovning she'riyatida ham, hajviyoti va publitsistik asarlarida ham chuqur dard va armon bilan ifodalangan. Erkin Vohidovning o'kinch-armon bilan aytgan "Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik"¹⁶ degan iqrori ostiga necha o'nlab haqgo'y va diyonatli ijodkorlar imzo chekishi mumkin edi. Iste'dod muhit bilan kurashda toblanadi deyishadi. Erkin Vohidov ijodi o'zining novatorligi, salmoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Shoir ham o'z ijodini boshqa tengqurlari singari mustabid sovet tuzumining hukmron mafkurasi tazyiqlari kuchaygan davrda boshlagan. Ammo uning chuqur ramziy ma'noni ifodalovchi "Tong nafasi" deb nomlangan birinchi she'riy to'plami adabiyotimizga va xalqimiz ongu-shuuriga yangi bir epkin va ruhiy to'lqin olib kirganligini nafaqat hassos, talabchan tanqidchi-adabiyotshunoslar, balki ziyrak kitobxonlar ham quvonch bilan tilga olishadi. Tug'ma nodir iste'dodi, shoirona o'tkir nigohi va olijanob orzu-niyatlari bilan adabiyot olamiga kirib kelgan Erkin Vohidov "Qalam" nomli dastlabki bir she'rida o'zining ijodiy dasturi, adabiy-estetik kredosini ham ravshan bayon etadi:

Qalam, mangu hamroh bo'lding yo'limga,
Bir umrga hamroz bo'lding dilimga,
Men shoirlik da'vosin qilmadim,
Ezgu maqsad seni tutdi qo'limga.
Sen mehrimni oq qog'ozga bitkazding,
Istagimni elga bayon etkazding.
Meni yurtim, davlatimga, xalqimga
Xizmat qilmoq davlatiga yetkazding.¹⁷

¹⁶ <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/yol-iztiroblari/>

¹⁷ Erkin Vohidov. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: Sharq NMK, 2000. –147 b.

Butun iste'dodi va qalb qo'rini el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishga bag'ishlagan shoirning ijodiy izlanishlari g'oyat samarali va mazmunli kechadi. Birinchi kitobidan so'ng oz o'tmay, shoirning mumtoz adabiyotimizning eng qadimiy janrlaridan bo'lgan g'azal janridagi rang-barang mavzu va g'oyalarni tarannum etgan go'zal she'rlaridan dastalangan "Yoshlik" devoni nashr etilishi adabiyotimizda quvonchli bir voqea bo'lgan edi. Ayniqsa, devondagi she'rlar ko'hna aruz vaznida qalam tebratuvchi yosh ijodkorlar uchun o'ziga xos bir mahorat maktabi bo'lib xizmat qilganligini deyarli barcha ustoz va zamondosh adiblar ham tan olganligini ta'kidlash joiz. Buning dalili sifatida O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning faxr bilan aytgan so'zlarini keltirish lozim: "Mana, bir necha o'n yillardirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu – Erkin Vohidov she'riyatidir. Men Erkin Vohidovni she'riyatda o'ziga xos sehr sohibi deb bilaman. O'lmas aruz vazniga bepisand qarash hali hukmron bir sharoitda, mumtoz g'azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi deya karomat qilishayotganda, Erkin Vohidov birinchilardan bo'lib aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi. Shu ma'noda g'azalga tavajjuh bildirgan yoshlarimizga hozirgi zamon shoirlarimizdan Erkin Vohidov ijodi maktab bo'la oladi"¹⁸.

Bu o'rinda Erkin Vohidov ijodi misolida an'ana, vorisiylik, o'ziga xoslik va adabiy muhit va iste'dod haqida ham fikr yuritish joiz. Jahon adabiyotidan ma'lumki, ijodkor iste'dodi tabiiy, tug'ma bo'lishi bilan birga uning kamol topishi, o'ziga xos novator ijodkor bo'lishi ko'plab obyektiv-subyektiv shart-sharoit va omillarga bog'liq bo'ladi. San'atkor davr farzandi bo'lgani uchun ham uning ijodiga u yashagan davr muhiti va asosiy tamoyillari o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Bu jihatdan atoqli adibimiz Odil Yoqubovning 50-60 yillardagi adabiy muhit haqidagi dardli xotiralari ulardan keyinroq ijodini boshlagan Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar avlodi yashagan davrning ham murakkabligini tushunishga yordam beradi: "Bizning avlod, – deydi O.Yoqubov, – konfliktsizlik deb atalmish g'ayriadabiy qarashlar, sotsialistik realizm deb atalmish biqiq, tafakkurni

¹⁸ Abdulla Oripov. So'z sehri (1992) (ziyouz.com)

cheklovchi va endilikda soxtaligi barchaga ayon umumtushunchalar, stalincha qatag'on hukm surgan, qatliom tufayli hamon yuraklardan qon silqib turgan bir vaziyatda adabiyotga kirib keldiki, buning ijodga salbiy ta'siri hanuz sezilib turadi. Shu ma'noda, garchi adabiy muhit taqozosiga ko'ra keyinchalik muayyan qiyinchiliklarni boshlaridan kechirgan bo'lishsa-da, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar avlodini nisbatan baxtli salaf deb atashni istardim. Ular ijodini boshlagan paytda ijtimoiy-siyosiy vaziyat nisbatan yumshagan, bahor epkinlari yanglig' mayin va umidbaxsh nasimlar esa boshlagan edi.”¹⁹ Adib ma'lum darajada haq. Lekin E.Vohidov, A.Oripovlar jadidlarday qatl etilmasa-da yoxud Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, S.Ahmad va Shukrullolardek uzoq yillar qamalib, olis o'lkalarga surgun qilingan bo'lmasa-da, ammo ular ham mustabid tuzumning xavfli tazyiq-taqiqlaridan, mafkuraviy tahdid va zug'umlaridan chetda qolgani yo'q.

XX asr adabiyoti, xususan, G'afur G'ulom va Erkin Vohidovlar ijodida ham Navoiyning ilhombaxsh nazmiy an'analari va badiiy til saboqlari nechog'lik samarali bo'lganligi, hech shubhasiz, adabiyotimizning yorqin bir sahifasini tashkil etadi.

“Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida,
Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida”...

Adabiyotimizda katta voqea bo'lgan “Yoshlik devoni” (1968) debochasidagi shu birgina baytda buyuk Navoiy ummonidan bahravorlik va vorislik mas'uliyati va Erkin Vohidovga xos tug'ma nazokat, zarif va fidoiylik, yurtparvarlik shoirona tajassum topgan edi. G'afur G'ulomdek alloma ustoz ham yosh shoirning hazrat Navoiyga munosib izdosh-shogird bo'la olganligini quvonch bilan e'tirof etganligi unutilmas lahzalardir: “Erkin Vohidov mudragan aruzni uyg'otib yubordi. Ivirsiq shoirlar aruzni adoyi tamom qilgan edilar. Aruz baayni pati yulingan tovuq bo'lib qolgandi. Erkin uni arab, fors so'zlaridan tozalayapti. Sof o'zbek g'azalini yaratyapti. Yaqinda bir papka g'azallarini olib keldi.

¹⁹ Одил Ёқубов. Шоир ҳақида сўз. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. – Б. 4.

“Do‘st bilan obod uying, bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa vayronadir koshona ham”...

Juda chiroyli, ma‘noli, mahorat bilan yozilgan g‘azallari ko‘p ekan. Qachon bostirasan, desam, yana ozroq turatarsin, deydi. Mana buni chinakam shoir desa bo‘ladi. Erkin she‘riyatda taqlid davridan sakrab o‘tib ketdi. Navoiyga ham, Boburga ham, Fuzuliya yo Mashrabga ham taqlid qilmadi. Ularga asir bo‘lib qolmadi ham. O‘sha mumtoz shoirlarning she‘r san‘ati sirlarini o‘rgandi. Nihoyat, o‘z yo‘lini topdi. She‘r ham kuy, ham fikr, ham suvrat, ham tuyg‘u. U yig‘i, u faryod, u quvonch, u nur... G‘afur aka Dushanbedagi adabiy anjumanlarda shogirdi Erkin Vohidov bilan birga butun tojik xalqi va ziyoli-shoirlari olqishini olib, Erkinga bo‘lgan hurmati o‘n hurmat bo‘lib qaytib keldi. Umrining oxirigacha unga rahnamolik qildi”.(Said Ahmad)²⁰

Erkin Vohidovning ulug‘ ustozlarga taqlid qilmagan holda o‘zining istiqbolli ijodiy yo‘lini topib, g‘azalnavislik, qasidanavislikda ham yuksak poetik mahorat namunasini yarata olganligini alohida ta‘kidlash lozim. Shu bilan birga hozirgi zamon o‘zbek g‘azalchiligi, xususan, Habibiy va Erkin Vohidovlarning go‘zal she‘rlari “aruz zamon ruhiga mos emas” degan ba‘zi fikrlarning asossiz ekanligini yana bir marta isbot qiladi. Shu munosabat bilan sobiq sovet davri va so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida g‘azal janri rivoji mavzusini tadqiq etgan adabiyotshunos Odil Nosirovning monogafiyasidagi ba‘zi tahlil va xulosalarga e‘tibor qaratishni lozim topamiz. Tadqiqotda Habibiy, S.Abdulla, Charxiy va Chustiy kabi aruznavis shoirlarning g‘azallari ancha keng o‘rganilgan. Ammo ularning sotsialistik mehnat, kommunistik e‘tiqod g‘oyalarini ulug‘lovchi va Lenin nomi bilan bog‘liq motivlarni bo‘rttirib ifodalovchi qator she‘rlarini mumtoz g‘azaliyot an‘analarini ijodiy davom ettirgan yetuk namunalar sifatida baholaydiki, bizningcha, bu xulosa bahsli ko‘rinadi. Shuningdek, “ayrim bo‘sh, hissiz, sakta yozilgan g‘azallar ba‘zi avtorlarning aruz nazariyasini yaxshi bilmasligi

²⁰ To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –B. 11-12.

oqibatidir”²¹, –deb talqin etishiga, nazarimizda, yana bir muhim talabni qo‘shish lozim. Ya’ni unday shoirlarda Erkin Vohidovga xos badiiy so‘z hissi va mas’uliyati yuksak emasligi va mumtoz she’riyatda keng qo‘llangan she’riy san’atlardan foydalanish bobida ustozlarga xos nuqtadonlik va poetik mahorat yetishmasligi bilan ham izohlansa to‘g‘ri bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz.

Aksariyati qo‘shiqqa aylanib, nozikta‘b xalqimizning go‘zallikka tashna qalblariga ruhiy ozuqa berib kelayotgan bu she‘rlar Erkin Vohidov ijodida buyuk Navoiy va Fuzuliy kabi g‘azal mulki sultonlarining o‘lmas an‘analari qanchalik katta mehr va badiiy mahorat bilan ijodkorona davom ettirilganligidan ham yorqin guvohlik berib turadi. Darhaqiqat, Erkin Vohidov she’riyati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Minglab she’riyat muxlislari qo‘lma-qo‘l talashib mutolaa qilgan bu nodir devon xalq orasida qanchalar shuhrat topganligi haqida taniqli shoir Anvar Obidjon shunday guvohlik beradi: “Bu kitob uyma-uy yurib, yarim qishloqni aylanib chiqdi. Muqovadagi yozuvlar qirtishlanib ketgani uchun, ichki betni ochdim, “Erkin Vohidov. Yoshlik devoni” degan bitiklarga ko‘zim tushdi. Kitobni o‘sha kuniyoq o‘qib chiqdim... keyin takror va takror o‘qiyverdim...

Tun bilan yig‘labdi bulbul
G‘uncha hajri dog‘ida,
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib
Qolmish uning yaprog‘ida.
Ko‘z yumar bo‘lsam, ko‘zim –
Oldida paydo gul yuzim,
G‘uncha ko‘z ochmog‘i bor
Bulbul ko‘zin yummog‘ida...

O‘ta yoqimli, o‘ta chiroyli edi bu g‘azallar. Hatto xushbo‘y va totli tuyulardi. Ularni o‘qigan o‘zbek, agar ichida ozgina yolqini bo‘lsa, o‘shanda

²¹ Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт санъат нашриёти. 1972. – Б. 133.

tobora kamsitilib, o‘z uyining burchagiga tiqib qo‘yilgan ona tilini o‘zgacha bir iftixor ila sevib qolmasligi mumkin emasdi”²².

Darhaqiqat, Erkin Vohidov, O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon ta’kidlaganidek, ijodining ilk bosqichlaridayoq butun xalq ommasining mehrini birdek qozona olgan serqirra iste’dod sohiblaridan biri sanaladi.

E.Vohidov she’riyatini kuzatar ekanmiz, undagi falsafiy teranlik, yorqin poetik obraz va tashbehlar, milliy tafakkur va xalqona donishmandlik kabi qirralarni ko‘ramiz. Bularning hammasi shoirning yuksak saviyadagi so‘z qo‘llash mahorati orqaligina ro‘yobga chiqayotganligini anglash qiyin emas. Shoir asarlaridagi she’riy nutq, xususan, jumla qurilishidagi so‘z tanlash va ularning mohirona ishlatilishi nafaqat tilshunoslarni, balki keng kitobxon ommasini ham jiddiy bahs-munozaraga chorlaydi. Umumiylik va o‘zlik, kurash hamda nafosat hech bir o‘rinda bir-biriga xalaqit bermasligini, xohish va iste’dod bor joyda ular birlashib yuksak bir to‘lqinga aylanishini shoirning aksariyat she’rlarida kuzatish mumkin. Ayniqsa, adibning milliy g‘urur ramziga aylanib ulgurgan “O‘zbekim” qasidasi misolida bu jihatning yaqqol namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz.

“O‘zbekim” qasidasining tarixiy ahamiyati shundaki, u mafkuraviy tazyiqlarning yumshagan davrida emas, aksincha siyosiy tuzumning badiiy ijod va boshqa sohalarda ham kuchli bir nazorati avj olgan vaqtlarda yaratilganini ta’kidlash lozim, deb hisoblaymiz. Asar dunyo yuzini ko‘rgan vaqtda partiyaning ulug‘ millatchilik va totalitar siyosiy tuzumi hukm surar, o‘zlikni anglash, milliy g‘urur hamda milliy manfaatlar xususida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Bu kabi o‘ta qaltis siyosiy muhitda jasoratli hamda haqiqiy vatanparvar insongina milliy manfaatlar haqida fikr yuritishi mumkin edi. Xuddi shunday jonkuyar, millatparvar ijodkor sifatida o‘sha davrda E.Vohidov o‘zining “O‘zbekim” qasidasi bilan nafaqat elimizga va hatto xorijiy mamlakatlarda ham tanilganligi shoir uchun katta baxt edi. “O‘zbekim” qasidasi xalqimizning milliy his-tuyg‘ularini, siyosiy va ma’naviy qarashlarini charxlashga va o‘zligini anglashga chorlashda beqiyos

²² To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.14.

ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlash lozim. "Erkin Vohidov ushbu she'ri orqali amalda: "Ey, o'zbekim! Sen qudratli davlatlar va olamshumul ahamiyatga molik taraqqiyot yaratgan xalqning avlodisan, o'z nasl-nasabingni, buyuk o'tmishingni va qadr-qimmatingni unutma, ko'zingni och!", – deb jar soldi. Bu o'sha davr uchun oshkora isyonkorlik edi."²³

Shoirning birgina "O'zbekim" qasidasi nafaqat she'riyatimizda, balki butun ma'naviy hayotimizda ham unutilmas bir voqea bo'lgan bu qasida xalqimizni o'ziga va o'tmishiga yangi va tiyrak nigoh bilan qarashni o'rgatdi. Asar xalqning dardiga darmon bo'ldi, deyish mumkin. Ko'hna qasida janrining zamonaviy porloq namunasi bo'lgan bu asar XX asr she'riyatimizning yuksak bir cho'qqisi bo'lishi bilan birga hukmron kommunistik mafkura va mustabid tuzum uchun xavfli bir ma'naviy kuchga aylanganini ko'plab yetuk ziyolilarimiz va taniqli adabiyotshunoslarimiz faxr bilan eslashadi. Qasidada xalqimizning va buyuk ajdodlarimizning qonli va shonli kechmishi Erkin Vohidovga xos yuksak badiiy mahorat va haqgo'ylik bilan eng avj pardalarda kuylangan:

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon o'zbekim...
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk-
Qo'ydi narvon, o'zbekim.
Mir Alisher na'rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shoh-u sulton, o'zbekim.
Ilm-u she'rda shoh-u sulton,

²³ To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 278.

Lek taqdiriga qul,
O‘z elida chekdi g‘urbat,
Zoru nolon, o‘zbegin...

Misralarda ifodalangan keng ma’no-mazmunni va ular zamiridagi o‘kinch-armonlar va faxr-u g‘urur tuyg‘ularini, afsuski, hammamiz ham haligacha chuqur anglab yetmaganimizni tan olishimiz kerak. Haqiqatan ham, ilm-fanda Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va Ulug‘bekdek buyuk siymolarimiz va she’riyatda Navoiydek tengi yo‘q ajdodlarimiz bo‘lsa-yu, ammo xalqimiz o‘z yurtida erkin bo‘lmasa, bundan ortiq adolatsizlik va nohaqlik bo‘ladimi? Sho‘ro tuzumida mustamlaka siyosatiga qullarcha tobe xalqimiz o‘zining buyuk ajdodlari va milliy qadriyatlari bilan faxrlanish u yoqda tursin, hatto ularning nomini tilga olishga ham botinolmasdi. Erksizligimiz shu darajada ediki, O‘zbekistonday ona yurtimizda O‘zbek tilimiz Davlat tili darajasida huquq va imkoniyatga ega emas edi. Qasidadagi so‘nggi misralar ham hayotiy va tarixiy haqiqatni aks ettirganligi bilan vatandoshlarimiz ong-u shuurini sergaklantirishi she’rning yana bir jiddiy maqsadi bo‘lgan:

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko‘kragimni tog‘ qilib,
Ko‘kragida tog‘ ko‘targan
Tanti dehqon, o‘zbegin...

Keltirilgan parchadagi so‘nggi bandning ma’nosini tushunishga va shoirning asl muddaosi va g‘oyaviy-badiiy niyatini to‘g‘ri anglashga urinib ko‘raylik. Bundan yarim asr muqaddam yozilgan, ammo sobiq sho‘ro davridagi hukmron mafkura tazyiqiga duchor bo‘lib, shoirimizga qancha ta’nay-u dashnomlar keltirgan “O‘zbegin” qasidasida ham, eng avvalo, jafokash xalqimizning asriy orzu-armonlari chuqur hamdardlik bilan ifodalangani adabiyotimizda katta bir voqea bo‘lganligi ayni haqiqat. Bu tarixiy voqelar E.Vohidovlarga izdosh bo‘lgan, jumladan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusufklar she’riyati, Tog‘ay Murod kabi iste’dodli adiblarning qissa va romanlari ham chinakam millatparvar adiblar sifatida o‘zbek xalqi, millati or-nomusi, xalqaro obro‘-e’tibori

uchun kurashganligidan yorqin dalolat berib turadi. Bular ijod qilgan yillar nisbatan iliq davr deb ta'riflangan. Adabiyotimizning to'ng'ich avlodi vakillari esa Oktabr inqilobi o'rnatgan mash'um totalitar tuzumning bo'g'iq muhitida yashab-ijod qilishga majbur bo'lganlari ham jasorat edi.

O'zlarining ulkan iste'dodi bilan xalqqa sadoqat bilan xizmat qilgan ulug'ustoz adiblarimiz ko'rgan nohaqliq-u fojialarning asl sababi va dahshatli oqibatlari haqida Abdulla Oripov armon bilan mushohada yuritib, atoqli allomamiz G'afur G'ulom ijodi munosabati bilan shunday yozadi: "Ular g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamlakachilik siyosati minglab haqgo'ylar boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yunturuq solishga erishdi. Nog'orasiga o'ynashni xohlamaganlar qatl etildi, quvg'in ostiga oldi. Shu tariqa o'zbek xalqi o'zining o'nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi.

Madhiyabozlik ommaviy taomiliga aylangan. Ne-ne go'zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug'doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlari kerak."²⁴ Garchand, O.Yoqubov kabi o'rta avlod vakillari Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarni adabiyot olamiga nisbatan iliq bir muhitda kirib kelgan baxtli va omadli salaf deb ta'riflagan bo'lsalar-da, bular ham ijod erkinligidan to'liq bahramand bo'la olmagan.

Erkin Vohidov o'zining "Ruhlar isyoni" dostoni mavzusi va bosh qahramonini ham yurtimizdan emas, balki olis Hindistondan olganligi ham ma'lum darajada hukmron mafkuraning tahdidlari bilan izohlanadi. Asar hozirgi o'zbek poemachiligining go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, u muallifning deyarli butun ijodidan o'sib, yetilib chiqqandir. Avvalo, dostondagi hayot, zamon va inson mohiyati haqidagi yoniq misralar shoirning qalb haroratiga to'liq lirikasini eslatadi. Asardagi kishini o'ziga rom etuvchi qiziqarli voqea va rivoyatlar tasviri esa ko'p asrlik folklor va mumtoz adabiyotimiz an'alarini

²⁴ Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 3- jild. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 91.

hamda shoirning “Nido”, “Baxmal” singari liro-epik poemalaridagi poetik mahoratni yodga soladi.

“Ruhlar isyoni” dostoni ming yillar davomida kishilikni o‘ylantirib kelgan umumbashariy muammo, ya’ni insonning zamin va zamonda erkin nafas olishi hamda chinakam baxt topishi masalasi talqiniga bag‘ishlangan. Mazkur masalani talqin etar ekan, shoir hayot haqiqatini butun murakkabligi, ziddiyatlari, shafqatsizliklari bilan bog‘liq holda gavdalantirishga erishgan, jiddiy ijtimoiy-ma’naviy muammolarni dadil o‘rtaga qo‘ygan, teran falsafiy mushohadalarini, inson hamda Yer kurrasining taqdiri to‘g‘risidagi alamli o‘ylarini sharqona donishmandlik bilan ifodalagan.

Doston kuchli qahramonlik pafosi bilan yo‘g‘rilgan. U butunicha epik doston bo‘lmasa-da, asarda inson qahramonligini ko‘rsatuvchi voqealarga ma’lum darajada o‘rin berilgan hamda bu epizodlardan shoir g‘oyasini, falsafiy mushohadalarini, qalb tug‘yonini ifodalashda vosita sifatida foydalanilgan. Bunday voqea sifatida XX asr boshlarida o‘z she’rlari bilan butun Hindistonni larzaga solgan mashhur bengal shoiri Nazrul Islomning jasorati, fojiali hayot manzaralari tanlangan. Bu jihatdan shoir mashhur dramaturg Abdurauf Fitrat an’analari izidan borgandek taassurot qoldiradi. Asrimiz boshlarida Fitrat “Hind ixtilolchilari” nomli pyesasida voqealarni Hindiston zaminidan tanlab, o‘zining mustamlakachilikka qarshi kurash, milliy iftixor va erkin muhabbat haqidagi g‘oyalarini ramziy yoki vositali usulda ifodalagan edi.

“Ruhlar isyoni” dostonida voqealar uzoq Hindistonga ko‘chirilishining boshqa sabablari ham bor, albatta. Ma’lumki, doston 80-yillarning boshlarida, ya’ni mamlakatimizda turg‘unlik davri hukm surgan va “haq so‘zni aytib bo‘lmaydigan” murakkab sharoitda yozilgan. U vaqtda demokratiya va oshkoralik haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. Shunga ko‘ra shoir o‘zining yoniq, hur fikrlarini, inson erki to‘g‘risidagi teran o‘y-mushohadalarini mustamlaka yurtimizda ochiq ifodalash qiyin edi. Dostonda Nazrul Islom hayotidagi muhim, keskin kurashlar bilan kechgan lavhalar tanlab olinib, chuqur poetik tahlil qilinadi. Nazrul Islom ham Qodiriy, Cho‘lpon va Usmon Nosirlardek bor-yo‘g‘i o‘ttiz besh

yoshigacha yonib ijod qiladi va o‘z she‘rlari bilan Hindiston osmonida chaqmoqdek porlab, mazlumlar qalbiga nur sochadi. Shundan keyin yovuz kuchlar, mustamlakachilar uni es-hushidan, tafakkuridan, go‘zal xayollaridan, hatto so‘zlash qobiliyatidan, orzu-umidlaridan mahrum qiladilar. Nazrul Islom qolgan qirq yillik umrini majruhlikda, azob-uqubatda kechiradi.

Shoir bu fojiaining tarixiy va ijtimoiy ildizlarini original va novatorona shaklda yoritadi. Ana shu tahlil jarayonida inson va jamiyat, shoir va davr, iste’dod va ijod erki xususidagi falsafiy mushohadalar va umuminsoniy g‘oyalar ifodalanadi:

Shoir yurak –
Pok tilagi,
Imonidir basharning,
Armon to‘la yurakdagi
Isyonidir basharning.

Dostonning bosh g‘oyaviy falsafasi dunyodagi erksizlikka, haqsizlikka, zulmga, mustamlakachilikka nisbatan keskin isyon va norozilik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Nazrul Islom o‘z xalqi qalbidagi ana shu isyonning yangroq bongi va qurboni bo‘ldi. Uning qalbidagi tug‘yonlar poetik misralarda aks etadi:

Har nechakim zo‘r iste’dod,
Toshqin ilhom,
U nega,
Xalqing yotsa chekib faryod,
Yaramasang kuniga.
Shoir bo‘lib
Nega kelding hayotga,
Eling yotsa dardga to‘lib,
Kelolmasang najotga?!
Ne shoirsan,
Bo‘lmasa el g‘ami – darding,
Yuraging – el yuragi?!

Nazrul Islom she'rlaridan birida: "Men isyonkor", "Men qayg'uli bu dunyoning notinch qolgan ruhiman", – deb xitob qiladi. Cho'lponlar dard-armonlariga hamohang bo'lgan bu satrlar orqali Erkin Vohidov xalqimizning ham asriy orzulari, ham og'ir qismatini ifodalay olgan deyish mumkin. Bu jihatdan shoirning buyuk safdoshi Abdulla Oripovning xotirasi muhim: "O'ylab qarasam, -deydi shoir, biz g'alati davrlarni boshdan kechiribmiz: Ya'ni mahorat, san'at shart emas, yalang'och bo'lsa ham bizning g'oyani takrorlayber! Ana shu tazyiq tufayli ne-ne iste'dod egalari o'zlarining benazir mahoratlarini namoyish eta olmadilar.

Maktab darsliklarida: "Paxta tersang, toza ter, chanog'ida qolmasin" kabi texnik qo'llanmalar, ruhsiz gaplar she'riyat namunasi deya taqdim etildi. Qirq yilcha muqaddam jamol ko'rsatgan Erkin Vohidov she'riyati o'sha qorong'u go'shalarni birdaniga yorita boshladiki, shoirimiz o'zining ilk kitobini bejiz "Tong nafasi" deb atamagan edi. Erkin Vohidovning yuksak poetik mahorat bilan yaratgan ko'plab she'r va qasidaları o'zbek she'riyatida yangi yorqin sahifa ochdi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassam edi"²⁵. Bu fikrni shoirning xalq dard-u tashvishlari va orzu-umidlarini aks ettirgan publitsistik asarlariga nisbatan ham aytish ayni haqiqat bo'ladi.

Erkin Vohidov serqirra iste'dod sohibi sifatida o'zbek dramaturgiyasi, xususan, komediya janri rivojiga ham munosib hissa qo'sha oldi. Ammo afsuski, shoirning bu iste'dodi, jumladan, uning xalqimizga manzur bo'lgan "Oltin devor" komediyasi ham haligacha yetarli darajada o'rganilgan deb bo'lmaydi. Fikrimizning dalili sifatida publitsistika rivojida o'ziga xos o'rin tutuvchi xotiralar turkumiga murojaat qilamiz.

Xotiralar turkumining o'rni, yirik munaqqid-adabiyotshunoslar va mashhur adiblarimizning estetik qarashlari va ularning adabiy jarayondagi roli hamda tanqidchilik rivojiga ulkan ta'siri haqida so'z yuritilar ekan, adabiyotshunosligimizda, xususan, Erkin Vohidov asarlarida keng o'rin tutuvchi,

²⁵ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/abdulla-oripov-so-z-sehri-1992>

ammo kam o'rganilgan xotiralar turkumiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Adabiyotshunosligimizda Navoiy, Hamza, Ayniy, Qodiriy, Oybek, Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, O.Sharafiddinov, E.Vohidov, A.Oripov, Shuhrat, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev va Tog'ay Murod kabi ulug' siymolar hayoti va ijodiga bag'ishlangan bu rukndagi asarlar yanada boyib bormoqda. Masalan, 2018-yili nashr qilingan, nozik kuzatishlar va tahlillarga boy bo'lgan ko'plab yetuk maqolalar va nurli xotiralarni o'z ichiga olgan "To quyosh sochgayki nur" nomli besh yuz sahifalik katta to'plamda Erkin Vohidovning millionlab tomoshabinlar mehr-e'tiboriga tushgan "Oltin devor" komediyasi haqida yoxud uning ma'naviy hayotimizda alohida ahamiyat kasb etgan o'tkir publitsistik asarlari haqida bironta maqola yoki xotira yo'qligi kitobxonlarni ham taajjublantirishi tabiiy. Bugun ham teatr sahnalaridan tushmay kelayotgan "Oltin devor" komediyasi haqida loaqal bir sahifa maqola yo xotira berilmaganini oqlab bo'lmasa kerak. Bunday e'tiborsizlik, albatta, zalvorli kitobning umumiy qimmatini va ahamiyatini pasaytirmasa ham, to'plamning yanada mukammal bo'lishini orzu qilgan holda keyingi nashrida ushbu kamchilik bartaraf etilishiga umid qilish mumkin.

Xotiralar turkumidagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish va yirik adiblar va ularning mashhur asarlari haqidagi maqolalarimiz va xotira-esselarimiz mumkin qadar to'liq va mukammal bo'lishiga erishsish ham tanqid va adabiyotshunoslikning jiddiy muammolaridan ekanligini unutmasligimiz lozim. Shu munosabat bilan mazkur to'plamda Erkin Vohidov shaxsi va ushbu komediya taqdiri bilan bog'liq, ammo o'quvchilar ommasiga noma'lum bo'lgan juda muhim va ibratli xotira va ma'lumotlar borki, mavzumiz doirasida ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Erkin Vohidovning chinakam milliy ruh va xalqona uslubda yaratilgan "Oltin devor" komediyasi o'zbek dramaturgiyasidagi xarakterlar komediyasiga yorqin misol bo'la oladi. Shoirning o'ziga hos hajviyoti va xalqchil yumorga boy badiiy-estetik tafakkurining yetuk bir samarasi bo'lgan bu komediyada muallif inson dunyoqarashi va xarakteridagi ziqnalik, boylikka, mol-mulkka o'chlik, tajanglik kabi xususiyatlarni aks ettirishni bosh mavzu qilib tanlagan. Komediya har bir dialog muallif tomonidan

mahorat bilan ishlanganki, asarda hech qanday noo‘rin so‘z – iboraga yoxud ortiqcha, sun’iy xatti-harakatga duch kelmaymiz. Kulgili vaziyatlar zo‘rma-zo‘rakilik yoki bachkana harakat – qiliqlar emas, aksincha, hammasi tabiiy, xalqona ruhda va ular tomoshabinlarni jalb etadi. Teatr sahnalarida 500 martadan ko‘p namoyish etilgan ushbu komediya o‘zining badiiy jihatdan pishiq-puxtaligi, inson xarakteridagi kulgili jihatlar yorqin obrazlarda gavdalantirib berilgani bilan bugungi kunda ham o‘z tomoshabinlariga ega. Ammo Erkin Vohidovga xos nozikta‘b hamda mahorat bilan yaratilgan va o‘zbek dramaturgiyasi tarixini yangi bir sahifa bilan boyitgan bu komediya ham, afsuski, ayrim hozirjavob munaqqidlar tomonidan xolis baholanmadi. Aksincha, asarda salmoqli mazmun yo‘q degan da‘vo bilan kamsitildi va mashhur shoirimizning nodir iste’dodi hamda ijodiga nisbatan ham bepisandlik bilan asossiz mulohazalar bildirildi: “Iste’dod egasi, u dramaturgmi, rejissyormi, boshi berk ko‘chaga kirib ketib, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Tanqidchilarimiz esa ularning har bir asarini, barcha izlanish-intilishini haqiqat hamda adolat ruhi bilan sug‘orilgan tahlildan o‘tkazib, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib turishlari lozim..... Erkin Vohidov bir-ikki bor qoqilib ketgandir, lekin hali yiqilganicha yo‘q”²⁶. Kitobxonlarni va tomoshabinlarni ham chalg‘ituvchi bunday salbiy holatlar professional tanqidchilikning saviyasi pastligi bilan izohlanishi to‘g‘ri bo‘lsa kerak. Komediyaning g‘oyaviy-badiiy va ijtimoiy-estetik ahamiyatini to‘g‘ri anglab olishda Erkin Vohidovning bu asarni qanday ezgu maqsadda bitganligi haqidagi samimiy e‘tirofi ham o‘ziga xos bir ochqich bo‘la oladi. “Shoir o‘z yurtining og‘riqli muammolarini, kamchiliklarini har qancha qalamga olsa haqli. Ammo tarjimon biror millat muammosi-yu, nuqsonlari aks etgan asarlarni iloji boricha tarjima qilmagani ma’qul. Yo‘qsa, uning bu xolis xizmati siyosiy nizolargacha olib kelishi hech gap emas. Bu fuqarolik burchi, milliy g‘urur bilan bog‘liq qaltis vaziyat.” “Oltin devor” yurtimizdagi deyarli barcha teatr sahnalarida bir necha yillar davomida qayta-qayta qo‘yilgan.

Xotiralarda ko‘rsatilishicha, Moskvadan Toshkentga bir mashhur rejissyor kelib, Erkin Vohidovga “juda ham muvaffaqiyatli komediya bo‘libdi, darrov buni

²⁶ Қосимов У. Адабиётга этикод. – Тошкент: Иқтисод молия, 2018. – Б. 67.

tarjima qilib, “markaz” teatrlarida qo‘yish kerak”, –deb taklif etadi. Katta qalam haqi ham va’da qilinadi. Ammo muallif rozilik bermaydi. Chunki “Oltin devor”da boshlariga oltin talvasasi tushgan ikki o‘zbek cholining qilmishlari va dahanaki “jang”-tortishuvlari o‘tkir hajv ostiga olingan. Bunday milliy qusurlar ustidan o‘sha millatning o‘zigina xandon otib kulishga haqli, boshqa millat emas. Agar uni tarjima qilib, Moskvada teatr sahnalarida qo‘yilsa, rus va boshqa millat vakillari o‘zbek xalqining ustidan kulgan bo‘lar edi”²⁷.

Erkin Vohidovga xos samimiyat, kamtarlik va teranlik aks etib turgan bu so‘zlardan qanday xulosa chiqarish to‘g‘ri bo‘ladi? Kitobxonlarga birinchi marta taqdim etilayotgan bu noyob xotira va ibratomuz e’tirof so‘zlari Erkin Vohidovning chinakam millatparvar hamda vatanparvar ijodkor ekanligini namoyon etishi bilan unutilmas bir voqea bo‘ldi, deyish mumkin. O‘zbek adabiyotining Erkin Vohidov kabi ulkan namoyandalarining xalqimiz va vatanimiz oldidagi xizmatlari xususida so‘z borganda, avvalo, ular yaratgan badiiy asarlar nazarda tutilsa, ikkinchidan, adiblarimiz tomonidan boshqa millat ijodkorlarining sara asarlarini mohirona tarjima qilish ham alohida ahamiyatga ega.

Ayniqsa, Erkin Vohidov mumtoz rus adabiyotidan va rus tili orqali jahon adabiyotining ko‘plab durdona asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girib, adabiyotimiz xazinasini boyitganligi e’tiborga loyiq. Zotan, I.Gyote, S.Yesenin, R.Hamzatov, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiylardan qilgan tarjimalari, xususan, “Eron taronalari” bilan “Faust” va “Dog‘istonim” tarjimasi adabiyotimiz va madaniy hayotimizda muhim voqea bo‘lgan. Shuningdek, Erkin Vohidov Mirzo G‘olib va Bedilning ham ayrim asarlarini o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilganligi tahsinga loyiqdir.

Milliy adabiyotlar rivojida badiiy tarjimaning o‘rni va ahamiyati katta ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu jihatdan atoqli shoir va adiblarimiz Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor va Ozod Sharafiddinovlarning orzulari ushalib, tarjimachilikning mohiyati xususidagi fikrlari bugun ham o‘z

²⁷ To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 502.

ahamiyatini yo‘qotmagan. Hamid Olimjonning 30-yillardayoq Pushkin va Mixail Svetlovning mashhur asarlarini jo‘shqin ilhom va mehr bilan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni bilan bog‘liq fikrlari bugun ham dolzarb va qimmatli saboqdir: “Pushkindan muvaffaqiyatli tarjima qilingan har bir parcha, har bir satr shoir ijodida muhim bir bosqich, chunki bu adabiy-ijodiy ish – sodda tilmochlik emas. Shuning uchun ham Pushkindan biror asarni yaxshilab tarjima qilish bilan shoir o‘z ijodida yangi bir pog‘ona oshadi”²⁸. Mustaqilligimiz sharofati bilan tarjima adabiyoti ham yil sayin ko‘payib va boyib borayotganligi ham muhim voqea bo‘lmoqda.

Yirik shoir va adiblar singari Erkin Vohidov ham mohir tarjimon ham edi. Jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girib, adabiyotimiz xazinasini va xalqimiz ma’naviyatini behad boyitdi. “El ustozim, men esam tolib”, – deya, yuksak e’tiqod bilan yashab-ijod etgan ulkan talant sohibi Erkin Vohidovning teran g‘oyaviy-badiiy ijodi va qizg‘in ijtimoiy faoliyati xalqimiz va davlatimiz tomonidan yuksak qadrlandi. U “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan. 1999-yil 25-avgustda Erkin Vohidov vatanimizning eng yuksak mukofoti – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlanib, “Oltin yulduz” medali taqib qo‘yilgan. Afsuski, beshafqat o‘lim 2016-yil 30-may kuni xalqimizning asl farzandi, adabiyotimizning buyuk namoyandasi Erkin Vohidovni oramizdan olib ketdi. Bu – xalqimiz uchun, adabiyotimiz va ma’naviyatimiz uchun ham og‘ir yo‘qotish bo‘ldi. Ammo donolar aytganidek, xalq qalbidan manguga joy olgan haqgo‘y shoirning so‘zi aslo zavol ko‘rmaydi.

O‘lsa o‘zi o‘lar, So‘zi o‘lmaydi,

Hamisha barhayot nasl shoirlar.

Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,

Yurakka ko‘milar asl shoirlar. (M.Yusuf)

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 7-dekabrda qaroriga asosan Erkin Vohidov tavalludining 80-yilligi mustaqil yurtimizda keng nishonlandi. Farg‘onada shoirning Uy-muzeyi hamda Erkin Vohidov nomidagi ijodiy maktab

²⁸ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/pushkin-poetry.html>

tashkil etildi. Margʻilondagi soʻlim madaniyat – istirohat bogʻiga shoir nomi berildi. Erkin Vohidov nomi abadiylashtirilib, shoirga muhtasham haykal oʻrnatildi. Erkin Vohidovdek yorqin talant sohibining soʻzi ham ana shunday mangulikka daxldor maʼnaviy-ruhiy hodisalar sirasiga kiradi. Zero, chinakam shoirning oʻzi oʻlsa ham, soʻzi insonlar qalbida mangu yashaydi.

1.2.8. Shoir badiiy publitsistikasi: anʼanaviylik va oʻziga xoslik

Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, koʻplab mashhur adiblar oʻzlari yaratgan betakror soʻz sanʼati namunalari bilan bir qatorda, ayni bir vaqtda, joʻshqin ijtimoiy faoliyati va yetuk publitsistik asarlari bilan ham insoniyat tafakkuri va maʼnaviyati rivojiga yetarlicha hissa qoʻshganlar. XX asr oʻzbek adabiyotining taʼmal toshini qoʻygan Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, A.Qodiriy, Choʻlponlarni yoxud adabiyotimizning toʻngʻich avlodi namoyandalari – Gʻafur Gʻulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Shuhrat va Sh.Rashidov kabi adiblarimiz ijodini koʻz oldimizga keltiraylik. Ular, avvalo, isteʼdodi va davr talabi bilan soʻz sanʼatining deyarli barcha janr va shaklida sermahsul ijod qilishgan. Ayni vaqtda, badiiy publitsistika sohasida, yaʼni maqolanavislikda ham samarali qalam tebratganlar. Boshqacha aytganda, bu adiblarimiz xalqning orzu-umidlari va dard-tashvishlarini nafaqat oʻzlarining badiiy asarlarida, balki hozirjavoblik bilan yozilgan publitsistik maqolalari va nutqlarida ham haqqoniy aks ettirganlar. Ular ana shunday publitsistik maqolalari chop etilgan ilmiy-maʼrifiy jurnallar hamda mazmundor, taʼsirchan nutq va suhbatlari bilan ham xalqning orzu-intilishlarini roʻyobga chiqarishgan va jamiyat ravnaqi yoʻlida kamarbasta boʻlishgan.

Erkin Vohidov ana shu ulugʻ adiblarimizning qutlugʻ anʼanalarini muvaffaqiyatli davom ettirib, ham sheʼriyatda, ham badiiy publitsistika sohasida samarali ijod qilib, katta shuhrat qozonganligi hech kimda shubha tugʻdirmaydi.

Ushbu mavzuni oʻrganar ekanmiz, shoir ijodida “Publitsistika” nima, “ijtimoiy publitsistik lirika” va “publitsistik asar” kabi tushunchalarga ham biroz toʻxtalib oʻtishimizga toʻgʻri keladi. Hozirga qadar yaratilgan darslik va oʻquv qoʻllanmalarda, shuningdek, uzoq yillar davomida foydalanib kelinayotgan “Adabiyotshunoslik terminlari” lugʻatlarida ham badiiy publitsistika yoki

publitsistik asar nima u boshqa adabiy tur va janrlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanishi haqida yetarli ma'lumot berilmagan. Masalan, yirik adabiyotshunos-olimlarimiz tomonidan tayyorlangan va O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti tomonidan chop etilgan ikki jildli "Adabiyot nazariyasi" kitobida ham "Publitsistika" to'g'risida alohida ta'rif yoki ma'lumot keltirilmagan. Faqat adabiy tur va janrlarga bag'ishlangan qismida Lirika janrlariga ta'rif berishda ularning bir necha xillarga bo'linishi tushuntirilib va shu jumladan, "Ijtimoiy-publitsistik lirika deb, muayyan davrlarda jangovar ijtimoiy masalalarga bag'ishlab yozilgan... she'rlar nazarda tutiladi", – deya umumiyroq bir ta'rif beriladi. Bizningcha, bu ta'rifda, avvalo, publitsistik asarlarga xos xususiyatlar to'liq ko'rsatilmagan. Ikkinchidan, publitsistik asarlar, albatta, "jangovor ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan" bo'lishi kerak degan tavsif-talab ham o'rinli emas. Chunki bu ta'rif adabiy jarayon va janrlar tabiati hamda spetsifikatsiya nuqtayi nazaridan ham muvofiq kelmaydi.

Yoki bir necha mualliflar tomonidan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida yaratilgan va ko'p yillardan buyon foydalanilib kelinayotgan "Adabiyotshunoslikka kirish" darsligi ham, shuningdek, mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da ham, afsuski, badiiy publitsistika janriga to'liq ta'rif berilmagan. Jumladan, mazkur lug'atda "Publitsistika – Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar: Publitsistik maqolalar, ocherk, pamflet, murojaatnoma, felyeton va h.k."²⁹ – deb izoh berib o'tiladi xolos. Bu ta'rif ham, bizning nazarimizda, bahsli ko'rinadi. Chunki ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozilgan "barcha turdagi" asarlarni, masalan, she'r yoki hikoyani ham publitsistika deb atash to'g'ri bo'lmaydi. Ikkinchidan, jamiyat hayoti va ma'naviyatiga taalluqli mavzu hamda muammolarga yoxud axloqiy-estetik masalalarga bag'ishlangan publitsistik asarlar – maqola yoki nutq va suhbatlar ham bo'lishi mumkin, bunga ko'plab

²⁹ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: 1983. – Б. 263.

misollar topiladi. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: yirik adib hamda mutafakkirlarning maqola va nutqlari yoxud ularning turli mavzudagi suhbatlarini qaysi tur va janrga mansub, deb aytsak to'g'ri bo'ladi?

Rus adabiyotshunosi M.S.Cherepaxov publitsistikada janrlar masalasi ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida ekanligini, bu borada yagona, qat'iy mezon yo'qligini qayd etadi³⁰. Shu sababli olim publitsistik janrlarning muhim xususiyatlarini qat'iy mezon sifatida ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, ocherk, maktub, pamflet, esse, suhbat kabi janrlar mohiyatan ba'zida sof publitsistik, ba'zida badiiy-publitsistik, ba'zan esa adabiy-tanqidiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan badiiy-publitsistik janrlar olimlar tomonidan turlicha tasnif qilinadi. R.Muhammadiyev "Publitsistika janrlari" kitobida o'zbek gazeta va jurnallari asosida publitsistik janrlarga qisqacha ta'rif berib, ularning bir-biridan farqlarini sharxlaydi³¹.

O'zbek badiiy publitsistikasining asosiy xususiyatlarini o'rgangan M.Husayinov publitsistikani ilmiy-nazariy adabiyotlardagi qarashlar asosida uch turga, ya'ni *ilmiy publitsistika*, *siyosiy publitsistika*, *badiiy publitsistikaga* bo'lib o'rganadi³².

Badiiy-publitsistik janrlar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Ochil Tog'ayev esa janr xususiyatlariga ko'ra publitsistikani *voqeyi-informatsion* (xabar, reportaj, hisobot, korrespondensiya), *analitik* (maqola), *badiiy-publitsistik* (ocherk, feleton, pamflet) turlarga ajratadi³³.

Biz yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda, badiiy-publitsistik janrlar qatoriga ocherk, felyeton, pamfletdan tashqari essen hamda adabiy suhbat, adabiy o'ylarni kiritish maqsadga muvofiqligini aytmoqchimiz. Chunki esse, adabiy suhbat, adabiy o'ylarda badiiy, ilmiy, publitsistik mushohada yetakchilik

³⁰ Черепяхов М.С. Проблемы теории публицистики. – М.: Мысль, 1973. – С. 212.

³¹ Муҳаммадиев Р. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. – Б. 124.

³² Хусайнов М. Ўзбек бadiий публицистикасининг асосий хусусиятлари: Филол. фанлари номзд... дисс. – Тошкент: 1968. – Б. 36.

³³ Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. – Тошкент: F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 5.

qilishini, badiiy publitsistika janrlari singari unda sinkretizm hodisasi kuchli namoyon bo‘ladi.

Erkin Vohidov badiiy publitsistikasining janr xususiyatlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, yozuvchi ijodida esse va adabiy suhbat, adabiy o‘ylar janrlari alohida o‘rin tutishini ko‘rsatib o‘tishimiz joiz. Adibning “Iztirob”, “Shoir she’ru shuur” asarlaridagi maqolalarni ijodkorning o‘zi ham shunday deydi: “Bu kitobni dastalar ekanman, bosib o‘tgan hayot yo‘lim ko‘z oldimdan o‘tdi. Unda ko‘p o‘nqir-cho‘nqirlar, yanglishlar, izlanishlar bor. Negaki, boshimizdan kechirgan kunlarimizning o‘zi notekis, murakkab, xatolarga to‘la bo‘lgan. Biz haq so‘zni aytish qiyin bo‘lgan zamonda yashadik. Bu ish hozir ham, demokratiya va oshkoralik hukmron bo‘layotgan davrda ham unchalik oson emas.

Qo‘lingizdagi kitob muallif dunyoqarashining shakllanish yo‘llarini aks ettiradi. Men bu to‘plamga turli yillarda turli munosabat bilan bayon qilingan fikrlarim, dunyoqarash ifodasi bo‘lgan she’rlarimdan namunalar kiritdim³⁴. Bundan anglashiladi-ki, biz tahlil etayotgan yozuvchi badiiy publitsistikasida adabiy o‘ylar turkumi salmoqli ekanligi bejizga emasligini his etamiz. Bundan tushunish mumkinki, yozuvchi publitsistikasida qaysi janrning almashinib kelishi, bir ijodkorning muayyan ilmiy publitsistika, siyosiy publitsistika, badiiy publitsistikaga ko‘p yoki kam murojaat etishi, qaysi janrda qanday ijtimoiy muammolarni yoritishi, bir janr ichida boshqa publitsistik janrlarga xos unsurlarning uchrashi, janrlarning yozuvchi yashayotgan davr va uning yoshi, tajribasi, iste’dodi, dunyoqarashi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqishi, ijodkor yuqorida ta’kidlaganidek, davr, tuzum, umuman, yozuvchi yashagan muhit bilan ko‘proq bog‘liqligini bilishimiz mumkin.

Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo‘lgan publitsistik asarlari uning she’r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan bo‘lib, ular xalqqa, jamiyatga xizmat qilishdek oliyjanob maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Ona – Vatanimizga va xalqimizga bo‘lgan fidoyilik va jonkuyarlik Erkin Vohidovning deyarli barcha she’rlari hamda publitsistik

³⁴ Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 5

maqolalari, nutq, suhbatlarining ham asosiy g‘oyaviy mazmun yo‘nalishi edi. Eng muhimi – ularda yuksak ma‘naviyatli xalqimiz zakovati, yorug‘ kelajakka umid-ishonchi ham aks etib turadi. Erkin Vohidov Mustaqillikka erishish arafasida xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, haq-huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g‘oyat og‘ir salbiy oqibatlari, xususan, Farg‘ona vodiysida 1989-yili ro‘y bergan noxush voqealar haqida “Ota yurtning omon bo‘lsa” nomli maqolasida o‘zining iztirobli o‘y-fikrlarini alam va azob bilan yozganligi adabiyotimiz hamda tariximizning unutilmas dardchil sahifalari bo‘lib qoldi. M.Husayinov tasniflagan siyosiy publitsistika ham shoir ijodida alohida xalqona vatanparvarlik ruhida aks etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Publitsistikaning muhim jihatlaridan biri uning hujjatligidir. “Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko‘rinishida, publitsistik organizmning har bir hujayrasida ana shu omilning ta’siri sezilib turadi”³⁵. Erkin Vohidov badiiy publitsistikasining bu xususiyatiga ko‘ra chinakam yurtparvar, mutafakkir shoir sifatida o‘ziga xos hozirjavoblik, chuqur hamdardlik, qayg‘udoshlik yetakchi o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin. Ijodkor badiiy publitsistik fikrlarining qanchalik to‘g‘ri hamda asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar, shuningdek, so‘nggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham to‘la tasdiqladi. Ya’ni Erkin Vohidov sobiq sho‘ro davridagi xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada erta-yu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sog‘lig‘ini yo‘qotib kelgan paxtakor-u dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini va uning dard-u tashvishlarini qanchalik haqqoniy yoritganligi O‘zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o‘tmish tariximizni anglab olishi hamda bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi, ulkan ahamiyatini tasavvur etishida ham zarur hayotiy saboqdir. Davr bilan hamqadam bo‘lgan Erkin Vohidov maqolalarida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, endilikda mustaqil mamlakatimiz – yangi O‘zbekistonimiz erishgan va

³⁵ Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975. – С. 6-7

erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlar hamda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida yurtimiz ham, ong-tafakkurimiz ham beqiyos darajada o'zgardi. O'tmishdagi hayot bilan bugungi hayotimizni taqqoslasak, yer bilan osmoncha farq bor. Barcha sohada chuqur islohot va katta o'zgarishlar ro'y berganligi hamda ular jadal davom etayotganligini hatto xorijliklar ham havas bilan tan olayapti. Birgina ma'naviyatimiz sohasidagi yangilanish va o'zgarishlarni ko'z oldimizga keltiraylik. Mustaqil yurtimizda milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hamda ulug' ajdodlarimiz merosiga bo'lgan munosabat, ayniqsa, o'zbek tili va adabiyotimizga bo'lgan yuksak e'tibor va cheksiz g'amxo'rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g'ururlanadi.

Shoirning ko'p yillik tajriba, kuzatishlari va ijodiy mahoratining samarasi bo'lgan, hamisha bedor hamda bezovta qalbining kechinmalari sifatida san'atkorona ifodalangan publitsistik asarlaridagi ustuvor jihatlardan yana biri shundaki, ularda yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning zakovati, shuningdek, kelajakka umid-ishonchi ham yorqin aks etib turadi. Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida g'oyat hozirjavoblik, chuqur hamdardlik va umidvorlik bilan yozgan asarlarining qanchalik haqqoniy hamda asosli ekanligini nafaqat voqealar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, so'nggi yillarda xalqimiz hayotida yuz bergan tub burilishlar ham to'la tasdiqladi.

“O'zimiz o'z ichimizda bir-birimizga har qancha yaxshi-yomon gap aytsak ko'taramiz. Lekin xorijda o'zbeklar haqida faqat yaxshi so'zlar aytilishini istar edim. Biz boy emasmiz, ammo himmatlarga boy xalq farzandlarimiz”. Darhaqiqat, ushbu fikr-mulohazalar ayni mustaqillikka erishgan yillarimizda (1992-yil 17-yanvar. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi) aytilgan bo'lsa-da, lekin muallifning bunday da'vatkor shikasta mulohazalari o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganligini ta'kidlash lozim.

Erkin Vohidov sobiq sho'rolar davrida yashagan va ijod qilgan inson sifatida haqiqiy vatan Istiqloldan so'ng o'zimizniki bo'lganligini, ona tilimiz, ming yillik

urf-odat va qadriyatlarimiz yana xalqimizga qaytarilgani hamda ma'naviy mulkiga aylanganligini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. Vatanimizni jahonga tanitish, vatanimiz sha'nini himoya qilib xorijga chiqqan har bir yurtdoshimizni qadrlashimiz kerakligini, milliy g'urur yurtdoshlarimiz uchun eng birinchi galdagi oriyat masalasi bo'lmog'i lozimligini muallif o'z so'zlarida bot-bot takrorlashi ham bejiz emas.

Shuningdek, Erkin Vohidov millat va vatan ravnaqi yo'lida yosh avlod tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz kerakligini, o'sib kelayotgan yoshlarimiz kelajagimiz bunyodkori bo'lishlarini aytib, dilidagi o'y va tashvishlarini bayon etadi: "Yurtni yurt qiladigan, aslida uning qarchig'ay o'g'lonlaridir. Ochig'ini aytsam, biz bolalarimizni bo'sh tarbiyalaganmiz. Biz ko'rgan qiyinchiliklarni ular ko'rmasin deb, hamma narsani muhayyo qilishga uringanmiz. To'ylarida necha bosh-oyoq sarupolar qilib, yillab oyoq uzatib yotsa bo'ladigan sharoit yaratib qo'yganmiz. Bola aziz, odobi undan aziz, deymiz. Lekin endi yangi zamonda odobli bo'lishning o'zi juda kam. Akvariumda o'sgan baliqlar ochiq dengizga tashlansa, ular boshqa baliqlarga yem bo'ladi. Musichalar zamoni o'tdi, burgutlar, qarchig'aylar kerak Vatanga."³⁶ Erkin Vohidovning badiiy hamda ijtimoiy jihatdan iste'dodi ko'rinib turgan bunday maqola va suhbatlarini o'qigan kitobxon ko'nglidan shunday bir xayol o'tsa ajab emas: har doim ham shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olimlarimizning maqola yoki nutqlarida bunday hayotiy mushohada va mantiqiy fikrlar ifodasini uchratmaymiz.

Shu bilan birga, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast adib qalbi va shaxsi, ya'ni shoirning keng miqyosli badiiy-estetik tafakkur-mushohadasi, el-yurt bilan chuqur hamdard-u hamnafasligi, o'ziga xos jonkuyarligi va ijodiy shijoati ko'rinib turadi. Qolaversa, shoirning mumtoz she'r-u dostonlariga xos bo'lgan badiiy til, o'zbekona so'z sehri-fasohati publitsistik maqola va suhbatlarida ham mavjudligi, ularning katta hayajon bilan o'qilishiga sabab bo'ladi. Bu haqda o'ylaganimizda, eng avvalo, shunday bir fikr ko'nglimizdan kechadi: taniqli adib

³⁶ Воҳидов Э. Юлдузли онлар шукуҳи. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 10.

va munaqqidlarimiz yakdillik bilan ta'kidlaganidek, Erkin Vohidov ijodida xalqimiz yaqin o'tmishda boshidan kechirgan ham suronli, ham g'am-anduhli kunlarning haqqoniy manzaralari yorqin aks ettirilgan. Shu bilan birga ularda Mustaqillikdan keyingi yillardagi yorug' kunlarimizning buyuk ne'mat ekanligi ham o'zining teran ifodasini topgan deyilsa, ayni haqiqatni ifodalagan bo'lamiz. O'zining betakror she'r va g'azallari, yetuk komediya, dostonlari, beqiyos hajviyoti hamda tarjimalari bilan teran fikr-g'oyalar yo'g'rilgan publitsistik asarlari, nutq va suhbatlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Erkin Vohidov boy ijodiy merosi har jihatdan chuqur o'rganishga munosibdir. Adabiyotimizni yangi bir bosqichga ko'targan Erkin Vohidovning "O'zbekim", "Inson", "Ruhlar isyoni", "Iztirob" kabi she'r-dostonlari va publitsistik maqolalari, eng avvalo, haqgo'yligi va millatparvarlik ruhi bilan xalqimiz ma'naviy hayoti va tafakkurida ulkan o'zgarish yasaganligi ayni haqiqatdir. El-yurtga fidoyi bo'lgan Erkin Vohidov fenomeni, shoir ijodining o'ziga xos jihatlari, xususan, publitsistik asarlarini o'rganish yangi O'zbekistonimizning ustuvor maqsadlari, milliy g'oya va mafkuramiz nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Erkin Vohidovning davr va ijod muammolari, she'riyat, ijodkor shaxs va badiiy til mahorati masalalarini yorituvchi rang-barang asarlari shoir ijodining g'oyaviy mazmuni, maqsad yo'nalishini belgilovchi adabiy-estetik qarashlari bilan yaxlit tarzda g'oyat katta salmoqqa ega. Serqirra iste'dod sohibi Erkin Vohidov publitsistikasida jamiyat hayotining muhim voqealari, adib va ijod qirralari qanchalik chuqur, haqqoniy va san'atkorona ifodalanishini tadqiq etish, shubhasiz, tanqid-adabiyotshunosligimiz va ma'naviyatimiz rivoji uchun ham dolzarb vazifalardan bo'lib sanaladi.

Ustoz olimimiz mashhur adiblar va allomalarning nutqlari va ularning o'tmishda ham, hozirgi davrda ham juda katta ijtimoiy-estetik salmoqqa ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, jumladan, shularni yozadi: "Adabiyot to'g'risida ko'pgina maqola-yu risolalar o'qib, katta-kichik nazariyalar bilan tanishib, ulardan "nutq" degan adabiy janr to'g'risida biron ma'lumot topa olmadim. Ularda bor-yo'g'i to'rt, uch va hatto bir misradan iborat she'r, ruboiy, fard, qit'a kabi janrlar

haqida batafsil gapiriladi-yu, nutq to‘g‘risida lom-mim deyilmaydi. Holbuki, nutq qadim-qadimlardan beri adabiyotdagi muhim janrlardan biri bo‘lib kelmoqda. Bir vaqtlar nutq yuksak san’atlar qatoriga ko‘tarilgan, uning sirlarini maxsus maktablarda yillar mobaynida o‘rganishgan. Notiqlik san’atini egallash uchun hatto quduqlarga tushib o‘tirib mashqlar qilishgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Demosfen, Sitseron kabi notiqlar ismi hozir ham tillardan tushmaydi...»³⁷

Ushbu fikrlarni davom ettirib, yana shuni aytish lozimki, mumtoz adabiyotimizning yuksak bir cho‘qqisi deya tan olingan Alisher Navoiy davrida ham notiqlik, ya’ni voizlik san’ati rivoj topganligini ko‘plab tarixiy va adabiy manbalar orqali bilib olishimiz mumkin. XX asr adabiyotida ham notiqlik san’atining nodir namunalari yaratilganini ustoz O.Sharafiddinov to‘g‘ri qayd etadi. Jumladan, A.Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Shuhrat, E.Vohidov va A.Oripovlarning teran mazmunli nutqlari xalqimiz ma’naviy hayotida unutilmas iz qoldirganini ta’kidlaydi. Bu fikriga yorqin bir misol tariqasida Abdulla Qahhorning 1956-yili Yozuvchilar uyushmasining tarixiy plenumidagi nutqini yoxud adibning 60 yillik yubileyidagi qisqa, ammo o‘sha davr uchun katta bir voqea bo‘lgan nutqini tilga olib o‘tadi. Haqiqatan ham, xalqimiz orasida haqgo‘y yozuvchi deya shuhrat qozongan Abdulla Qahhorning 1967-yil 17-sentabrdagi tantanali va unutilmas anjumanda, yana kompartiyaning kazo-kazolari qatnashgan yig‘inda “Men partiyaning boshliqni ko‘rganda yer tepinib, chest berib turadigan oddiy soldati emasman. Balki ongli a’zosiman” degan so‘zlarni aytishi – bu bamisoli boshni kundaga qo‘yish bilan baravar edi va buning uchun qanchalik katta jur’at talab qilinar edi. Abdulla Qahhorning bu mardona so‘zlari, zamondoshlari to‘g‘ri ta’kidlaganidek, xuddi oftob charaqlab turgan yorug‘ kunda momoqaldiraq gumburlagandek taassurot qoldirgan. Hayratlanarli joyi yana shundaki, bu voqea bir zumdayoq Moskvaga, ya’ni sobiq kompartiyaning eng oliy organi bo‘lgan Kremlidagi Markaziy Qo‘mitasigacha va tegishli davlat organlariga ham yetib borgan va u yerdagilarni ham ancha-muncha sarosimaga solib qo‘ygan ekan.

³⁷ Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик компаниси бош тахририяти. 2004. – Б. 410.

Yoki buyuk shoirimiz G'afur G'ulomning 1966-yili Tataristonga borib, mashhur tatar shoiri Abdulla To'qay yubileyiga bag'ishlab Qozon shahrida o'tkazilgan katta anjumanda tatar tilida so'zlagan jo'shqin nutqi ham katta dovrug' qozongan. Bunday yorqin misollar shuni ko'rsatadiki, ulkan adiblarning qisqa nutq va maqolalari ham katta ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, ular ba'zan uncha-muncha yirik asarlardan ko'ra ham kuchliroq g'oyaviy-estetik ta'sir va ahamiyat kasb etishi mumkinligi ayon haqiqat.

Erkin Vohidovning badiiy publitsistikasi, ya'ni bugungi hayotimiz, ma'naviyatimizning ko'plab dolzarb muammolari hamda ijod masalalariga bag'ishlangan salmoqli maqolalari, da'vatkor nutq-suhbatlari va ularning ta'sirchan g'oyaviy-estetik mazmuni chuqur o'rganishga munosibdir. Shoir publitsistikasidagi badiiy ijod va ijodkor shaxsi haqidagi asosiy konsepsiyasini ifodalovchi markaziy fikr-g'oyalarini belgilovchi quyidagi falsafiy qarashlariga e'tibor qarataylik: "El ko'nglidagini topish va el ko'ngliga yo'l topish bu – she'riyat. Madh etish ham, rad etish ham she'riyat emas. Xalqni maqtagan shoir – ulug' emas, uning o'zligini o'ziga ko'rsatib berolgan, ayovsiz gapni aytolgan shoir – ulug'. Mamlakatimiz buyuk, shoiri ko'p. Xalqni ko'rsata bilish uchun shoir darvesh emas, o'ktam, so'zi keskir, o'zi shijoatli bo'lishi kerak". Bu so'zlarda Erkin Vohidovning butun umri davomida rioya etgan muqaddas ijodiy a'moli va ezgu orzulari ham yaqqol aks etgan deyish mumkin. Shoir she'riyati va publitsistik asarlarida yetakchi motiv bo'lgan bu markaziy g'oya uning butun ijodi va adabiy-estetik qarashlarining mustahkam zamini va tayanch ustunlardan biri deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo'lgan va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan publitsistik asarlarini ikki katta guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni shoirning bir turkum maqolalari, suhbat va xotiralarida jamiyatimiz va xalqimiz hayotidagi muhim va dolzarb ijtimoiy muammolarni yoritish ustuvorlik qiladi. Boshqa bir turkum maqolalari va jurnalistlar, muxbir va taniqli adabiyotshunoslar bilan bo'lgan adabiy suhbatlari esa bevosita adabiyot, badiiy ijod, ma'naviyat va adabiy til

masalalariga bag‘ishlanganligi adabiy o‘ylari bilan ajralib turadi. Lekin yuqorida aytganimizdek, shoirning butun ijodi yaxlit bir olam bo‘lganidek, publitsistik asarlarini mavzu-muammolariga ko‘ra ikki guruhga ajratib o‘rganish ham shartli ravishdagina qilingan tasnifdir.

Chunki Erkin Vohidovning publitsistik asarlarini bir-biridan va she‘riyatidan keskin ajratib, farqlantirib turadigan jihatlardan ko‘ra ularni g‘oyaviy-badiiy jihatdan birlashtirib, ruhan yaqinlashtirib turgan mushtarak jihatlar ko‘p va bu, aslida, tabiiy bir holdir. Negaki Erkin Vohidovning deyarli barcha publitsistik asarlari uning she‘r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard hamda ijodiy ilhom bilan yaratilgan va ularning barchasi xalqqa xizmat qilishdek oliyjanob maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Ikkinchidan esa, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast shoir qalbi va shaxsi, ya‘ni shoirning keng miqyosli badiiy–estetik tafakkur – salohiyati va el-yurt bilan chuqur hamdard-hamnafasligi, uning o‘ziga xos jonkuyarligi va ijodiy shijoatkorligini ko‘rsatib turadi. Qolaversa, Erkin Vohidovning xalqimiz ma‘naviy mulkiga aylangan mumtoz she‘r va dostonlariga xos bo‘lgan zargarona badiiy til va o‘zbekona so‘z sehri uning publitsistik maqolalari hamda suhbatlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun Erkin Vohidovning jo‘shqin publitsistik faoliyati bilan chuqur tanishish va adib qalamiga mansub bo‘lgan va turli mavzularga bag‘ishlangan maqola va suhbatlaridan yetuk namunalarini adabiy jarayon kontekstida tahlil etish lozim bo‘ladi.

Fikrimizning dalili sifatida Erkin Vohidovning faol jamoat arbobi va hozirjavob publitsist adib sifatidagi ibratli ijodi va faoliyatidan dastlab quyidagi misolni keltiramiz. 1989-yili yozilgan “O‘zbekcha salomga o‘zbekcha alik bo‘lsin” nomli dolzarb maqolasida u Davlat tili bilan chambarchas bog‘liq jiddiy muammolar xususida fikr yuritib, mamlakatimizda Atamalar markazi tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi yoxud Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etishni birinchi bo‘lib taklif etadi. Keng jamoatchilik va O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bu taklif asosida Vazirlar Mahkamasi huzurida yirik adib Odil Yoqubovlar mutasaddiligida Atamashunoslik

qo‘mitasi tuziladi va shunday nufuzli komissiya Oliy Majlis Kengashi tomonidan ham tashkil etiladi.

Bular Erkin Vohidovning chinakam xalq shoiri va zabardast mutafakkir publitsist sifatidagi ijodi va jo‘shqin faoliyati yangi O‘zbekistonimiz ravnaqi va ma‘naviy-ruhiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq muammolarni yorita olganligi bilan nechog‘lik dolzarb va muhim ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lganligini ko‘rsatadi. Binobarin, jamiyat qanchalik iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy va ma‘rifiy jihatdan taraqqiy qilmasin, lekin baribir jamiyatdagi ijtimoiy muammolar aholining uyg‘oq, ziyoli qatlamini o‘ylashga, muammoning tagzaminini izlab topishga undab kelaveradi.

Erkin Vohidovning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan serqirra ijtimoiy va ijodiy faoliyatiga 1993-yilning eng dolg‘ali kunlarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, ya‘ni xalqimizni adolat va farovonlik, ma‘naviy taraqqiyot yo‘llariga boshlovchi shoir-yozuvchilar hayoti va taqdiridagi muammolarni ham qo‘shish lozim. Afsuski, Erkin Vohidovning xalqimiz ma‘naviy hayotida qiyin kechgan bir davrdagi g‘oyat mas‘uliyatli rahbarlik faoliyati haqida ham hech bir adabiy yoki tarixiy manbada loaqal qisqa bir ma‘lumot uchratmaymiz. Ya‘ni yurtimizning tom ma‘nodagi ziyolilari bo‘lmish adiblar o‘rtasida xuddi “g‘anim zotlar kabi” (Abdulla Oripov) keskin qarama-qarshilik va ziddiyat-ixtiloflar kuchayib, shuncha yillardan buyon faoliyat ko‘rsatib kelgan Yozuvchilar uyushmasi parokandalikka uchrab, bo‘linib ketdi. Shu murakkab va ixtiloflar avj olib turgan qaltis bir vaziyatda O‘zbekiston adiblari Ittifoqi, ya‘ni O‘zRAI tuzilib, bu yangi Uyushma rahbarligiga ko‘pchilik shoir-yozuvchilar va tanqidchi-adabiyotshunoslar taklifi bilan Erkin Vohidov nomzodi ko‘rsatildi. Ijod ahli jamoasi va xalq ishonchini qadrlagan Erkin Vohidov bir muddat ushbu yangi ijodiy tashkilot raisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. O‘zining katta ijodiy va tashkilotchilik salohiyatini ishga solib, eng avvalo, Respublikamiz shoir-yozuvchilari va munaqqid-adabiyotshunoslarni, qolaversa, ijod olamiga yorug‘ orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan iste‘dodli yoshlarning ko‘ngillariga yo‘l topib, ularni yana yagona Ittifoqqa birlashtirishga va birgalikda Mustaqil O‘zbekiston ravnaqi yo‘lida sadoqat bilan ijod qilishga da‘vat

etdi va pirovardida shu ezgu maqsadga erishildi. El-yurtimiz ozod bo‘lib, shoir-u adiblari erkin ijod qilishlarini necha yillardan buyon orzulab kelgan Odil Yoqubov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov kabi yurtparvar va millatparvar ijodkor safdoshlar bilan birgalikda xalq dardiga malham bo‘lish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi yana qaytadan tiklanishida Erkin Vohidovning xizmati va oqilona jonbozligi ulkan bo‘lganini unutmasligimiz lozim. Publitsistika (lotincha: publicus - ijtimoiy) – davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag‘ishlangan adabiy ijod turi. Publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg‘otish va uni shakllantirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirish ekanligi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak bunday ijtimoiy-siyosiy vazifalar Erkin Vohidovning eng mas’ul jamoat vazifalaridan bo‘ldi.

Erkin Vohidov publitsistikasida ulug‘langan tarixiy o‘tmishimiz va bebaho milliy qadriyatlarimiz, adabiyot hamda san’atimizni chuqur o‘rganish ulardagi yorqin jihatlar, shuningdek, saboqlarni yoshlarimiz tarbiyasiga yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib sanaladi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv va tahlikali davrda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlar sari ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish yanada muhim hayotiy ehtiyoj va zaruratga aylanmoqda. Erkin Vohidov ijodi va publitsistik asarlari ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida faxrli bir o‘rin egallaganligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Bu jihatdan shoirning ilk ijodiy namunalaridan biri “Qalam” radifli she’ri uning butun she’riyati va publitsistikasiga bosh sarlavha bo‘la olishi mumkin:

Yangrasin Erkin so‘zing,
Aslo tiling lol o‘lmasin.
Dast ko‘tar davron yukini,
Egma qadding yo, qalam.³⁸

Butun iste’dodini el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishga bag‘ishlagan Erkin Vohidov ijodiy izlanishlari g‘oyat samarali va mazmunli kechadi. San’atkor davr

³⁸Вохидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ НМК, 2000. – Б. 147.

farzandi bo'lgani uchun ham uning ijodiga, she'riyati va publitsistik asarlariga u yashagan davr muhiti va hukmron kommunistik mafkuraning tazyiqlari o'z ta'sirini o'tkazganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Ya'ni Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar avlodi ham mustabid tuzumning xavfli tazyiq-taqiqlaridan, mafkuraviy tahdid va zug'umlaridan chetda qolgani yo'q. Ular ham boshqa adiblarimiz kabi davr farzandi edi, ular ham Oktabr inqilobi, Lenin dahosi va komfirqaning "jozibador" va'dalari-yu balandparvoz shior va xitoblariga ishonib, qalam tebratgan va zamon talablariga bo'ysunishga majbur bo'lganini ham rad etib bo'lmaydi.

Dil so'zi qatag'on erksiz tuzumni

Biz ko'rdik, ko'rmasin hech kim, hech zamon.

Erkin Vohidovning o'kinch-armon bilan bitgan bu satrlari ostiga yana necha o'nlab haqgo'y va iste'dodli shoir va yozuvchilarimiz imzo qo'yishlari mumkin.

Mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy qasida janrining zamonaviy porloq namunasi bo'lgan "O'zbekim" qasidasi XX asr she'riyatimizning yuksak bir cho'qqisi bo'lishi bilan birga hukmron kommunistik mafkura va mustabid tuzum uchun xavfli bir ma'naviy kuchga aylanganini ko'plab yetuk ziyolilarimiz va taniqli adabiyotshunoslarimiz faxr bilan eslashadi. Qasidada xalqimizning va buyuk ajdodlarimizning qonli va shonli kechmishi Erkin Vohidovga xos yuksak badiiy mahorat va haqgo'ylik bilan eng avj pardalarda kuylangan: Misralarda ifodalangan keng ma'no-mazmunni va ular zamiridagi o'kinch-armonlar, faxr-u g'urur tuyg'ularini, afsuski, hammamiz ham haligacha chuqur anglab yetmaganimizni tan olishimiz kerak. Haqiqatan ham, ilm-u fanda Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va Ulug'bekdek buyuk siymolarimiz va she'riyatda Navoiydek tengi yo'q ajdodlarimiz bo'lsa-yu, ammo xalqimiz o'z yurtida erkin bo'lmasa, bundan ortiq adolatsizlik va nohaqliklik bo'ladimi? Sho'ro tuzumida mustamlaka siyosatiga qullarcha tobe xalqimiz o'zining buyuk ajdodlari va milliy qadriyatlari bilan faxrlanish u yoqda tursin, hatto ularning nomini tilga olishga ham botinolmasdi. Erk-huquqsizligimiz shu darajada ediki, ona yurtimizda O'zbek tilimiz Davlat tili darajasidagi mavqega va imkoniyatga ega emas edi. Qasidadagi

so‘nggi misralar ham hayotiy va tarixiy haqiqatni aks ettirganligi bilan vatandoshlarimiz ong-u shuurini sergaklantirishi she‘rning yana bir jiddiy maqsadi bo‘lgan:

“Faxr etarman, ona xalqim,
Ko‘kragida tog‘ ko‘targan
Tanti dehqon, o‘zbekim...”³⁹

Keltirilgan parchadagi so‘nggi bandning ma‘nosini tushunishga hamda shoirning asl muddaosi va g‘oyaviy-badiiy niyatini to‘g‘ri anglashga urinib ko‘raylik. Chindan ham, o‘zbek dehqoni, o‘zbek paxtakorlari asrlar davomida mashaqqatli mehnat qilib, million tonnalab paxta yetishtirib, sobiq Ittifoq respublikalarini ham ta‘minlab kelgan, ammo oqibat xalq hayoti qanchalar ayanchli kechganligiga tarix ham guvoh. Erkin Vohidov she‘rlari, maqola va suhbatlarida ro‘yi-rost aytilganidek, o‘zbek xalqi, paxtakor – dehqoni o‘z yeriga, dalasiga o‘zi xo‘jayin emas edi. Bu achchiq haqiqat sobiq sho‘ro davrida ham Erkin Vohidov kabi rostgo‘y shoir va yozuvchilarimizning yetuk asarlarida, shu jumladan, publitsistik maqolalarida u yoki bu darajada haqqoniy ko‘rsatilgan edi. Darhaqiqat, bundan 55 yillar muqaddam yozilgan, ammo sobiq sho‘ro davridagi hukmron mafkura tazyiqiga duchor bo‘lib, shoirimizga qancha ta‘na-yu dashnomlar keltirgan “O‘zbekim” qasidasida ham, eng avvalo, jafokash xalqimizning asriy orzu-armonlari chuqur hamdardlik bilan ifodalangani adabiyotimizda katta bir voqea bo‘lganligi ayni haqiqat. Erkin Vohidovning “Vatan umidi” (1991) she‘ri shoir qalbidagi ko‘p yillik o‘kinch-armonlarining chuqur bir ifodasi bo‘lib maydonga kelgan asarlardan biri bo‘ldi:

Muazzam Jayxun-u Sayxun labida tashnalab qoldim,
Kiyintirdim jahonni, jismi uryon, bekafan bo‘ldim”-

Darhaqiqat, Mustaqillikning ilk kunlarida bitilgan bu she‘r ham Erkin Vohidov she‘riyati va maqolalarida aks etgan chuqur hayotiy va tarixiy haqiqatning o‘ziga xos mantiqiy davomi va umumlashgan bir sintezi sifatida katta

³⁹ Воҳидов Э. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – Б. 95.

ahamiyatga ega ijtimoiy-falsafiy bir asar bo'lib qoldi. Erkin Vohidov she'riyatida bo'lganidek, publitsistikasida ham xalqimizning asriy orzulari va og'ir qismatini ham ifodalay olgan deyish mumkin.

Erkin Vohidovning ko'pgina nutq-maqolalari, she'r va suhbatlarida izchil ifodalangan yana bir muammo borki, bu hech bir vatandoshimizni befarq qoldirmaydi. Bu mustaqil yurtimizdagi har bir fuqaroning mamlakatimiz kelajagi va xalqimiz hayoti uchun daxldorlik mas'uliyat tuyg'usi. Loqaydlik jamiyatimiz hayoti va ravnaqi uchun eng xavfli illatdir. "Nima ishim bor! yoki Nima ishing bor?" qonuni bilan yashash jamiyatimizning ofati desa bo'ladi. Bu xudbinlik dunyosining falsafasi. Biz qurayotgan adolatli, huquqiy demokratik jamiyat esa insonning insonga bo'lgan mehr-u oqibati asosiga qurilgan jamiyat bo'ladi". Kelajakni oldindan ko'ra olgan shoirimizning bunday ezgu g'oyalari yurtimizda xayrli niyatlar bilan boshlangan yangi Renessans poydevorini yaratishdek oliyjanob g'oya va yuksak maqsadlarimiz bilan qanchalar hamohangligini ta'kidlash lozim.

Erkin Vohidovga xos samimiyat, kamtarlik va teranlik aks etib turgan bu so'zlardan adabiyotimiz hamda milliy qadriyatlarimiz haqida muhim xulosa chiqarish to'g'ri bo'ladi. Kitobxonlarga ilk marta taqdim etilgan bu noyob xotira va ibratimiz e'tirof Erkin Vohidovning chinakam millatparvar, vatanparvar ijodkor ekanligini namoyon etishi bilan unutilmas bir voqea deyish mumkin. Darhaqiqat, o'zligimizni anglashda, milliy g'oya va tafakkurimiz yuksalishida badiiyatning yuksak bir namunasi bo'lgan Erkin Vohidov ijodi hamda hayotiy saboqlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Erkin Vohidovning "Tong nafasi" va "Yoshlik devoni" to'plamlari adabiyotimiz va she'riyatimizda yangi sahifa ochdi. Shoirning barcha she'rlari, doston va qasidalariga xos asosiy va mushtarak xususiyatlar shundaki, uning butun ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu bo'lib kelgan. Bunday umuminsoniy g'oya va milliy qadriyatlar shoirning barcha janrdagi asarlarida, xususan, publitsistik maqolalarida ham ustuvorligi ularning beqiyos ijtimoiy-ma'naviy, badiiy-estetik ahamiyatini ko'rsatadi. Erkin Vohidov dostonlari, "Inson" va "Dehli

aeroportidagi hodisa” hamda umrining so‘nggida yozgan “Dunyoga savol” kabi she‘r – qasidalari va umuminsoniy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan publitsistik maqolalari bizni ogoh etib, hamisha Insonlik burchimizni va mas‘uliyatimizni unutmaslikka da‘vat etib turadilar.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Erkin Vohidov she‘riyatida ona – yurtimiz tarixi va kelajagi, o‘zbek tilimiz va milliy qadriyatlarimiz tasviri asosiy o‘rin tutganidek, bu zalvorli mavzular shoirning publitsistikasida ham yetakchi motivlar sifatida talqin etiladi.

2. Erkin Vohidov Mustaqillikka erishish arafasida xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, haq-huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g‘oyat og‘ir salbiy oqibatlari, xususan, Farg‘ona vodiysida 1989-yili ro‘y bergan noxush voqealar haqida “Ota yurti omon bo‘lsa” nomli maqolasida o‘zining iztirobli o‘y-fikrlarini alam va azob bilan yozganligi adabiyotimiz hamda tariximizning unutilmas dardchil sahifalari bo‘lib qoldi.

3. Erkin Vohidov maqolalarida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, endilikda mustaqil mamlakatimiz – yangi O‘zbekistonimiz erishgan va erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlar hamda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida yurtimiz ham, ong-tafakkurimiz ham beqiyos darajada o‘zgardi.

4. Erkin Vohidovning tarixiy siymolarga bag‘ishlangan she‘rlari va publitsistik maqolalari ham adabiyotimiz rivojida muhim o‘rin egallabgina qolmasdan, davr va adabiy jarayonning yetakchi tendensiyalarini aks ettirishi bilan ham muayyan qimmatga ega.

5. Erkin Vohidov dostonlari, “Inson” va “Dehli aeroportidagi hodisa” hamda umrining so‘nggida yozgan “Dunyoga savol” kabi she‘r – qasidalari va umuminsoniy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan publitsistik maqolalari bizni ogoh etib, hamisha Insonlik burchimizni va mas‘uliyatimizni unutmaslikka da‘vat etib turadi.

6. Erkin Vohidovning buyuk shoir va mutafakkir Navoiyga bag‘ishlangan she‘rlari va maqolalari nafaqat shoir ijodida, balki XX asr o‘zbek adabiyoti va navoiyshunosligida ham eng yorqin va mazmundor sahifani tashkil etadi.

7. Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi nafaqat she’riyatimizda, balki butun ma’naviy hayotimizda ham unutilmas bir voqea bo‘lgan bu qasida xalqimizni o‘ziga va o‘tmishiga yangi va tiyrak nigoh bilan qarashni o‘rgatdi.

8. Mumtoz adabiyot tadqiqotchi olimlari va adiblar ichida O‘zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilishi jabhasida va Navoiyning tengsiz siymosi, beqiyos ijodi va yuksak san’atkorligi haqida Erkin Vohidov darajasida teranlik va nuktadonlik bilan yozgan va targ‘ib etgan ijodkor juda kam uchraydi.

II BOB. ERKIN VOHIDOV PUBLITSISTIKASIDA DAVR RUHI

2.1.§. Ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy muammolar talqini

Erkin Vohidovning faol fuqarolik pozitsiyasi aks etgan va shoirga xos san'atkorona uslubda yaratilgan publitsistik asarlarida ham xalq orzu-intilishlari hamda millatparvarlik g'oyalarini ifodalashdek ijodiy tamoyillar ustuvorligini ko'rsatish uchun dastlab ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy mavzular talqini masalasiga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarixdan bizga ma'lumki, 70-yillar jahon davlatlari siyosatida qarama-qarshilik va ziddiyat-ixtiloflar kuchaydi. Hukmronlik siyosatiga asoslangan sotsialistik tuzum bilan erkin bozor iqtisodiga asoslangan demokratik tuzum o'rtasida turli sohada keskin kurash avj oldi. Ikki sistemaning keskin ziddiyatlari oqibatida turli qit'alarda ijtimoiy-siyosiy nizolar, katta mojaro va qonli to'qnashuvlar yuz berdi. Sobiq sovet respublikalari ham notinch bo'lib qoldi. Hukmron sovet imperiyasining tanazzuli boshlangan edi. Xalqning asosiy qismi ularga ishonchini yo'qotdi. Dunyoda g'oyalar o'rtasida yangi bosqichga kirgan kurash shoir va yozuvchilar ijodida ham aks-sado bera boshladi. Ana shunday keskin ijtimoiy-siyosiy kurash natijasi o'laroq Erkin Vohidov bir qator o'zbek adiblari bilan mamlakat miqyosidagi anjumanlarda va xalqaro yig'inlarda faol qatnashadi. Ko'plab chet ellarda safarda bo'ladi. Nufuzli va ulkan anjumanlarda o'zbek xalqi nomidan muhim fikrlar va g'oyalarni ilgari suradi. Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Belorussiya, Latviya, Litva, Estoniya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston adiblari bilan bir qatorda xalqlar, millatlar o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalarning mazmuni va bugungi murakkab globalashuv davrida adabiyotlar taqdiri kabi jiddiy muammolar yuzasidan salmoqli fikr va mushohadalarini bayon etadi va ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy mavzulardagi hayotiy fikr-qarashlari bilan matbuotda chiqishlar qiladi. Nafaqat O'zbekiston mamlakatining, balki insoniyatning g'oyat muhim va murakkab masalalarini ko'tarib chiqqan maqola hamda nutqlari shoirning mashhur she'rlari singari qizg'in muhokamalarga sabab bo'ladi va bular jamiyat madaniy-adabiy hayoti uchun ham samarali bo'lganligi keng jamoatchilikka ma'lum.

Shoirning mana shunday qaynoq hayot ichida, el-yurtning orzu-umidlari va g'am-tashvishlari bilan birga hamnafas bo'lib yashashi unga muhim, dolzarb mavzu g'oyalar berishi bilan birga uni ijodkor sifatida faollashtiradi va jamiyatning muammolariga o'z munosabatini bildirib, ularga daxldorlik tuyg'usini ham kuchaytiradi. Yuqorida XX asr o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlarni hamda adabiyotimizning to'ng'ich avlodi namoyandalari – G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor va Hamid Olimjonlarning ijodlari serqirra ekanligi ta'kidlandi. Ularning barchasi so'z san'atining she'riyat, nasr va dramaturgiya sohasida sermahsul ijod qilish bilan birga, ayni vaqtda, badiiy publitsistika, ya'ni maqolanavislikda ham samarali faoliyat ko'rsatganlari xalqimiz ong-u tafakkurida o'chmas iz qoldirganini endilikda chuqurroq angab yetyapmiz. Shunday ekan, u yoki bu yozuvchi yoki biror san'atkor ijodiga baho berilganda va uning ijodkor sifatidagi faoliyati hamda shaxsi o'rganilganda, o'sha san'atkorning ijtimoiy-publitsistik asarlariga ham e'tibor qaratilsa, o'shanda ijodkor siymosini va uning adabiyot va xalq oldidagi xizmatlarini yanada to'liqroq tasavvur etishga imkon tug'iladi.

Chinakam xalq shoiri va O'zbekiston Qahramoni degan eng oliy rutbaga munosib bo'lishdek baxt-tolega musharraf bo'lgan Erkin Vohidovning mumtoz she'rlari va ulardagi har bir satr necha o'n yillardan buyon xalqimiz yuragining eng to'ridan joy olganligining asosiy bir sababi ham shundaki, uning har bir so'zi ona-Vatanga va xalqimizga bo'lgan yuksak e'tiqod va muhabbatdan tug'ilgandir.

“El ko'nglidagini topish va el ko'ngliga yo'l topish – bu she'riyat”, – deydi Erkin Vohidov. Ya'ni xalqni va millatni uning o'zligini o'ziga haqqoniy ko'rsatib berolgan va unga ayovsiz gapni aytolgan shoir- ulug' ijodkor. Hazrat Navoiyning:

“Kishi aybing desa dam urmag'il, ul erur ko'zgu,

Chu ko'zgu tiyra bo'lsa, o'zga aybing zohir aylarmu”

degan hikmati Erkin Vohidov kabi millatparvar shoir va adiblar uchun muqaddas bir ijodiy dastur bo'lgan desak, xato bo'lmaydi.

Zero, yurt sevgisi, vatan sevgisi faqat uni madh etishdan, uning sha'niga madhiyalar eshitishdan iborat bo'lmaydi, ba'zan yurt haqidagi qayg'uli

tuygʻularni, tanqidiy mulohazalarini aytishni ham taqozo qiladi. Erkin Vohidov ham Vatani va xalqini chin yurakdan, astoydil yaxshi koʻrgan va shu yurtning, xalqning ijodkor bir farzandi sifatida uni har qanday qusurlardan, har turli kamchiliklardan xoli koʻrishni istaydi. Bunga esa faqat maqtoʻv bilan erishib boʻlmaydi. Aslida, chinakam isteʼdod xalqning dardiga malham boʻlishi, uning kuniga va koriga yarashida namoyon boʻladi. Buning uchun ijodkor el-yurtining dardi-gʻamiga hamdard boʻlishi talab qilinadi va hayotni haqqoniy aks ettirishi va shu yoʻl bilan xalqning mushkulini yengillatishi lozim boʻladi.

Erkin Vohidovning ijtimoiy-falsafiy va adabiy-estetik qarashlarining ustuvor jihatlarini oʻzida aks ettirgan badiiy publitsistik maqolalaridan biri “Ozodlikning ilk shabbodalari” deb nomlanadi. Maqolada shoʻrolar davri adabiy siyosati, ijodkor erki, ijod erkinligi hamda XX asr ikkinchi yarmidan soʻng badiiy ijod olamidagi yangilanishlar haqida fikr yuritilgan. Har qanday davrda ham ijodkor shaxsi badiiy ijod qilishdan toʻxtamaganligini adabiyotimiz tarixidan kuzatishimiz mumkin. Lekin ijod ahliga har doim hukmron mafkura oz boʻlsa-da oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaganligini qayd etish oʻrinli. Mustaqillikdan avval noxolis qarashlar va salbiy munosabatlar oqibatida tariximiz va milliy qadriyatlarimiz, asosan, qoralanib va kamsitib kelingan. “Shoʻrolar davrida milliy qadriyatlarimiz, moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy eʼtiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Biryozlamalik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga oʻrgatib qoʻygan edi. Aslida yoʻq yorqin kelajakni ulugʻlash odat tusiga aylangan edi.”⁴⁰ Istiqlol sharofati bilan yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga va ulugʻ ajdodlarimiz hayoti va merosiga boʻlgan davlat miqyosidagi odilona siyosat va munosabat butunlay oʻzgardi. Ayniqsa, oʻzbek tili va adabiyotimizga nisbatan boʻlgan yuksak eʼtibor va cheksiz gʻamxoʻrlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda gʻururlanadi.

⁴⁰ Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2006. – B. 5.

Mustaqillikdan keyin yangi darslik va majmualarimizda mumtoz o'zbek adabiyotimiz tarixi ham, XX asr va hozirgi davr adabiyotimiz ham xolisona o'rganila boshlanganligini alohida qayd etib o'tish lozim.

She'rni "haqiqat sadosi, dardli yurak nidosi" deb bilgan Erkin Vohidov 1989-yil aprelida yozgan va keskin tazyiqqa uchragan "Iztirob" nomli she'rida buyuk ustozlari Navoiy orzu qilganiday xalqimizning asriy armonlarini aks ettira olgan edi. Unda mustabid sho'ro tuzumining bosqinchilik siyosatini keskin qoralab, xalqimizning o'z qadri va huquqlari uchun kurashi har jihatdan adolatli ekanligini fidoyi vatanparvar bir shoir sifatida chuqur hamdardlik bilan ifodalagani uchun ham ushbu she'r hukmron mafkura tomonidan keskin tanqidga uchragani va shu bois nashr etilishi taqiqlanganini bugungi yoshlarimiz bilmasligi mumkin.

Lekin har bir asar makon va zamon ta'siridan ayri holda yaralishi juda murakkab jarayon sanaladi. Badiiy ijodning uzoq va yaqin tarixini o'rganish chog'ida o'sha davrning adabiyot sohasidagi hukmron mafkuraviy siyosatini ham nazarda tutmoq lozim. Bu jihatdan olib qaralganda, o'tgan asrning oltmishinchi yillar adabiyoti, sho'rolar yurti tarixida alohida bosqich bo'lgani, xuddi shu davr avlodi, deb atalgan yangi dunyoqarash, yangicha ijod qila boshlagan ijodkorlarning badiiy ijod olamiga kirib kelishi, o'sha zamondagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy jarayonlar samarasi sifatida ham baholashimizga imkon beradi.

"Hech bir hodisa besabab sodir bo'lmaganidek, mamlakatdagi o'sha burilish ham o'z-o'zidan voqe bo'lgan emas. Qatag'on va qo'rquv muhiti, afkor dunyodan temir devorlar bilan ajratilgan mamlakatda yashash odamlarning joniga tekkan, lekin muttasil nazorat, taqiq va ta'qiblardan qochish iloji yo'q edi. Bunday sharoitda xalqning kurash quroli, ham qilich, ham qalqoni adabiyot bo'ladi."⁴¹ "Ayniqsa, adabiyot oldiga shaxsga sig'inish yillari qo'yilgan sun'iy g'ovlar olib tashlangach, yozuvchilarning ijodiy aktivligi va tashabbusi uchun ham keng yo'l ochildi.

"Mustabid sovet tuzumi siyosati va mafkuraviy tazyiqlariga bevosita guvoh bo'lgan va o'zi ham ustozlari kabi azob chekkan Tog'ay Murodning hukmron

⁴¹ Воҳидов Э. Озодликнинг ilk шаббодалари. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 215.

partiya siyosatiga va uning mafkuraviy iskanjasiga qarshi bashorat bilan aytgan zalvorli soʻzlari oʻziga xos bir maʼnaviy jasorat sifatida baholanishi mumkin”.⁴²

Shaxsga sigʻinish oqibatlari adabiyotimiz tarixida ham, adiblar qalbida ham ogʻir asoratlar qoldirdi. Toʻgʻri, shaxsga sigʻinishning zararli taʼsiri adabiyotni rivojlanishdan butunlay toʻxtatib qololgani yoʻq.”⁴³ Darhaqiqat, oʻtgan asr oʻzbek adabiyoti taraqqiyoti uchun qanchalik yangilanishlarga, yuksalishlarga boy davr boʻlgan boʻlsa, undan kam boʻlmagan yoʻqotishlarga ham sabab boʻlganligini qayd qilishimiz lozim. Jumladan, XX asrda yangidan yangi adabiy turlar, janrlar, badiiy tasvirning oʻziga xos shakllari adabiyotimizga kirib kelgan boʻlsa, koʻplab mumtoz asarlarimiz, haqiqiy millatparvar ijodkorlarimiz, bebaho badiiy ijod namunalarimiz taʼqib qilindi yoki adabiyotimiz maydonidan umuman surib chiqarildi.

Muallif oʻtgan asr 60-yillaridan keyingi adabiyotimiz taraqqiyotiga nazar tashlar ekan, aynan shaxsga sigʻinish, yaʼni Stalin vafotidan keyin badiiy ijod olamida ilk erkinlik shabbodalari esa boshlaganligini alohida taʼkidlab oʻtadi. Adibning qayd etishicha, ayni shu yillarda Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Oʻlmas Umarbekov, Oʻtkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi oʻziga xos yozuvchilar, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qoʻshjonov, Ibrohim Gʻofurov, Umarali Normatov singari yosh munaqqidlar ilm va ijod olamiga oʻziga xos ovozlari bilan kirib keldi.

Erkin Vohidovning taʼkidlashicha, ozodlik ruhi faqatgina yangi avlod ijodidagina emas, balki XX asrning oʻttizinchi yillaridayoq ustoz adib sanalgan Abdulla Qahhor bu davrga kelib erkin ijod uchun kurashning, adabiyotdagi qalbakilikka qarshi kurashning oldingi qatorida turgan. Ulugʻ yozuvchining oʻtkir publitsistik maqolalari, badiiy ijod haqidagi achchiq va iztirobli soʻzlari, mafkuraviy mutelik, fikriy torlik hukm surayotgan muhitni larzaga solgan edi.

Haqgoʻy ustozlarga maslakdosh boʻlgan Erkin Vohidov har doim oʻzining ijtimoiy hamda badiiy-publitsistik maqolalarida xalqimiz va Ona Vatanimiz ravnaqi uchun oʻzining nihoyatda sermazmun, uzoqni oʻylagan, kelajak avlod

⁴² Xidirova Munavara. Togʻay Murod asarlari poetikasi va ijod jarayonining oʻrganilishi. Filol. fan. boʻyicha fals. dokt...dissert. – Jizzax, 2022. – B. 37.

⁴³ Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ. 2019 йил – Б. 501.

uchun ham asqotuvchi taraqqiyparvar g'oyalar va fikr-qarashlari bilan yurt rivoji yo'lida kurashganligiga guvoh bo'lamiz. Muallif ta'kidlaganidek, "Vatanda yashab, biz o'zimiz ko'pincha uning qadrini his etmadik. Negaki, biz o'z vatanimizning chinakam egasi bo'lolmadik. Ruhimizga begona bo'lgan tuzum va dunyoqarash asiri bo'ldik, o'zga til va o'zga urf odatlar tazyiqida hayot kechirdik. Istiqlool bizga vatan berdi. Endi, meniki deb aytgulik o'zbek yurtimiz, mustaqil davlatimiz, davlat tili bo'lgan ona tilimiz bor. Olamga ochilgan darvozamiz bor. Ana shu tabarruk darvozadan tashqariga chiqqan har bir o'zbek shu yurt bolasi, uning bir zarrasidir.

Asrlar davomida shakllanib va rivojlanib, keyingi avlodlar tomonidan ijodiy davom ettirilayotgan bu adabiy an'ana mashhur shoirimiz Erkin Vohidov ijodida ham alohida o'rin tutadiki, ishimiz davomida shoirimizning turli yillarda va turli voqealar munosabati bilan yaratilgan publitsistik maqolalari, xotiralari, nutq va suhbatlarini uning ayrim she'rlari bilan bog'liq holda kengroq o'rganishga va ularning mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Erkin Vohidovning 1987-yili chop etilgan "Shoiru she'ru shuur" va 1992-yili nashr etilgan "Iztirob" nomli to'plamlarida uning aksariyat maqolalari, xotiralari va suhbatlari jamlangan. Ular so'nggi yillar o'zbek adabiyoti va adabiy-estetik tafakkuri rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi bilan birga, ayni vaqtda, ma'naviyatimizni boyitib, o'zligimizni va vatanga daxldorlik burchimizni chuqurroq anglab olishimizda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

1992-yili nashr qilingan "Iztirob" nomli salmoqdor to'plamining muqaddimasida muallif ushbu kitobining vujudga kelishi va uning asosiy mazmuni haqida, jumladan, shunday yozadi: "El ichida yashab, elning orzu-umidlari, kurashlari, shodlik va qayg'ularidan chetda turish mumkin emas. Jamiyat hayotining mavju dolg'alari hamma zamonlarda ham she'riyat ahli yuragida aks etgan.

Bu kitobni dastalar ekanman, bosib o'tgan hayot yo'lim ko'z oldimdan o'tdi. Unda ko'p o'nqir-cho'nqirlar, yanglishishlar, izlanishlar bor. Negaki boshimizdan

kechirgan kunlarimizning o‘zi notekis, murakkab, xatolarga to‘la bo‘lgan. Biz haq so‘zni aytish qiyin bo‘lgan zamonda yashadik”⁴⁴.

E.Vohidovning samimiyat va ichki bir armon bilan aytgan bu iqror so‘zlaridan muhim haqiqatlarni o‘zimizga tasavvur etishimiz mumkin. Bu murakkab va ziddiyatli davr to‘siqlari, ming afsuski, keyinchalik ham adabiy jarayonda davom etdi.

Shoirning samimiyat va ichki bir armon bilan aytgan bu iqrori zamirida xalqimiz boshidan kechirgan, ammo oshkora aytoilmagan dard-alamlari ham o‘z ifodasini topgan. Erkin Vohidov ijodida xalqimiz yaqin o‘tmishda boshidan kechirgan dolg‘ali va g‘am-anduhli kunlarning haqqoniy manzaralari ham, Mustaqillikdan keyingi yorug‘ kunlarimizning buyuk ne‘mat ekanligi ham o‘zining teran ifodasini topgan va bular, shubhasiz, alohida o‘rganishga munosibdir.

Erkin Vohidov she‘riyati hayot singari rang-barang bo‘lganidek, uning maqola-nutqlari, suhbat va intervyularining ham mavzu doirasi keng va muammolari jihatidan ham xilma-xildir. Masalan, “Iztirob” to‘plamining asosiy g‘oyaviy mazmun-mundarijasini tashkil etgan yigirmadan ortiq maqola va suhbatlarning aksariyati ona-Vatanimiz va xalqimizning yaqin o‘tmishi, hozirgi hayoti va kelajagi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammolarga bag‘ishlanganligini alohida ta’kidlash lozim. Ya’ni ularda mehnatkash va dono xalqimizning ko‘p yillik hayotiy tajribasi ham, jamiyatimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga faol munosabati va yangi O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lidagi orzu-intilishlari ham haqqoniy ifodalangan.

Darhaqiqat, to‘plamdagi maqola va suhbatlar xalqimizning oqilona o‘y-tashvishlari hamda kelajakka bo‘lgan umid-ishonchi bilan shoirning bedor qalbidagi iztirobli kechinmalarining yakdil va hamohangligini ham aks ettirib turadi. Chunonchi, quyidagi maqola va suhbatlarning sarlavhalari ularning mazmuni va g‘oyaviy maqsadiga qanchalik mos va ma’nodor ekanligiga diqqat qilaylik: “Shoirilar armoni”, “Ota yurting omon bo‘lsa”, “Adolat tuyg‘usi”, “Inson ma’mur bo‘lmasa, xalq ma’mur bo‘lmaydi”, “O‘zbekcha salomga o‘zbekcha alik

⁴⁴Вохидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон. 1992, – В. 5.

bo‘lsin”, “Ruhimiz ehtiyoji”, “Umidli dunyo”, “Egalik huquqi”, “Ulg‘ayish azobi”, “Turkiston bozori”, “Bizning odatlar” Erkin Vohidovning xalqimiz orasida mashhur bo‘lib ketgan o‘lmas she‘r va dostonlari singari bu rang-barang maqola va suhbatlar ham necha minglab vatandoshlarimiz qalbida aks-sado berganligi adabiy jamoatchilikka yaxshi ma‘lum. Bular ham Erkin Vohidov ijodiy tafakkuri va qiziqishi olamining kengligini ko‘rsatishi bilan birga, ayni vaqtda, shoirning o‘zi va so‘zi xalq uchun, ma‘naviyatimiz uchun nechog‘lik zarur ekanligidan ham guvohlik berib turadi. Ularga shoirning so‘nggi yillardagi va ayniqsa, Istiqloldan so‘ng jamiyatimizda ro‘y bergan ulkan o‘zgarish va yangilanishlardan ilhomlanib yaratgan va ko‘plab rivojlangan xorijiy mamlakatlar bo‘ylab safarlarida tug‘ilgan o‘y-kechinmalari ifodalangan ta’sirchan maqola va suhbatlarini qo‘shsak, uning publitsist sifatidagi ijodi ham ko‘lamdor va mazmunan salmoqdor ekanligini yaqqol tasavvur qilish mumkin.

Bir umr o‘zining yuksak e’tiqodida sobit turgan shoirning Mustaqillik arafasida bitgan “Vatan istagi” she’rida ham yana xalqimizning asriy orzu-armonlarini va ona yurtimizning istiqbolini o‘zining bedor qalbidagi jo‘shqin his-tuyg‘ulari bilan hamohang tarzda yorqin aks ettiradiki, natijada shoir kashf etgan haqiqatlar xalqning orzu-armonlarga to‘la ko‘nglidagi ezgu haqiqat – so‘zlariday chuqur hayotiylik kasb etadi.

O‘tgan asrimizning 80-yillari so‘ngida sobiq sovet davlatining hukmronligidan va mustabid tuzum zug‘umlaridan sabr kosasi to‘lgan millat va xalqlarning noroziliklari kuchayib, o‘z haq-huquqlari va erkinliklarini talab qila boshladi. Afsuski, bu milliy uyg‘onish va ommaviy harakatlar komfirqaning zo‘ravonlik siyosatiga qarshi isyon va hatto davlatga qarshi qo‘zg‘olon sifatida baholanib, ular harbiy kuchlar tomonidan ayovsizlik bilan bostirildi. Shunday mudhish voqealar dastlab Kavkaz respublikalarida va boshqa bir necha respublikalarda ro‘y berdi. Hozirda tarixga aylangan, lekin xalqimizning yodidan chiqmaydigan bu mash‘um voqealar, eng avvalo, yurtparvar shoir va ziyolilar qalbini larzaga soldi va bu adolatsizliklarni haqqoniy aks ettiruvchi asarlar va hujjatli filmlar ham yaratildi. Jumladan, Erkin Vohidov 1989-yil aprelida yozgan

“Iztirob” nomli she’rida Gruziya poytaxti Tiflis (Tibilisi)dagi qonli to‘qnashuvlar misolida komfirqa va sobiq sho‘ro hukumatining bosqinchilik siyosatini keskin qoralab, xalqimizning o‘z qadri va huquqlari uchun kurashi har jihatdan adolatli ekanligini sodiq bir farzand va fidoyi vatanparvar shoir sifatida chuqur hamdardlik bilan ifodalagan edi:

Xalqimga qadringni bil desam agar,
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,
Bu qutqu atalsa davlatga zarar,
Qancha azob bo‘lsa, tortganim bo‘lsin...⁴⁵

Ona – Vatanimizga va xalqimizga bo‘lgan mana shunday fidoyilik va jonkuyarlik Erkin Vohidovning deyarli barcha publitsistik maqolalari, nutq va suhbatlarining ham asosiy g‘oyaviy mazmun yo‘nalishini belgilaydi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Erkin Vohidov she’riyati hayot singari mavzu jihatidan keng qamrovli va rang-barang bo‘lganidek, uning publitsistik maqolalari, nutqlari, suhbat va intervyularining ham mavzu doirasi keng va muammolari jihatidan ham xilma-xildir. Masalan, “Iztirob” to‘plamining asosiy g‘oyaviy mazmun-mundarijasini tashkil etgan yigirmadan ortiq maqola va suhbatlarning aksariyati Ona – Vatanimiz va xalqimizning yaqin o‘tmishi, hozirgi ahvoli va kelajagi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammolarga bag‘ishlanganligini alohida ta’kidlash lozim. Eng muhimi, ularning deyarli barchasida mehnatkash va dono xalqimizning ko‘p yillik hayotiy tajribasi ham, jamiyatimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati va mamlakatimiz ravnaqi yo‘lidagi orzu-intilishlari ham o‘zining haqqoniy ifodasini topganligidir.

Erkin Vohidovning xalqimiz orasida mashhur bo‘lib ketgan o‘lmas she’r va dostonlari singari bu rang-barang maqola va suhbatlar ham necha minglab vatandoshlarimiz qalbida aks sado berganligi adabiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum. Ammo ular shoir publitsistikasining ma’lum bir qismini tashkil etadi. Yuqorida alohida tilga olib o‘tilgan “Shoir-u she’r-u shuur” kitobining birgina “So‘z qadri” bobidan “San’at va tafakkur”, “Mukammallik”. “Ko‘ngildagi gaplar”,

⁴⁵Вохидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 48.

“Ruhimiz ne’mati”. “O‘z qadrini bilgan so‘z qadrini biladi”, “Bahramandlik” singari o‘ndan ortiq maqola va suhbatlari o‘rin olganligini ham alohida ta’kidlash lozim. Bular ham Erkin Vohidov ijodiy tafakkuri va qiziqish olamining rang-barangligini ko‘rsatishi bilan birga, ayni vaqtda, shoirning o‘zi va so‘zi xalq uchun, ma’naviyatimiz uchun nechog‘lik zarur ekanligidan ham guvohlik berib turadi. Ularga Erkin Vohidovning so‘nggi yillardagi va ayniqsa, Istiqloldan so‘ng jamiyatimizda ro‘y bergan ulkan o‘zgarish va yangilanishlardan ilhomlanib yaratgan va ko‘plab rivojlangan xorijiy mamlakatlar bo‘ylab safarlarida tug‘ilgan o‘y-kechinmalari ifodalangan ta’sirchan maqola va suhbatlarini qo‘shsak, uning publitsist sifatidagi ijodi ham tematik jihatidan qamrovi keng va mazmunan salmoqdor ekanligini yanada yaqqolroq tasavvur qilishimiz mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning bevosita AQSHga qilgan safari taassurotlari asosida yaratilgan va dastlab “Xalq so‘zi” ro‘znomasida, so‘ng “Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan “Tarix-taqdir-tashrif” deb nomlangan yirik maqolasi ham nafaqat adabiyot va badiiy ijod ahlining e’tiborini jalb qilib qolmasdan, balki muhtaram Birinchi Prezidentimizning ham nazariga tushganligi barcha shoir va yozuvchilarni cheksiz ruhlantirdi hamda ularga yangi ijodiy ilhom va rag‘bat bag‘ishlagani ayni haqiqatdir.

Masalan, Mustaqillikka erishish arafasidagi xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ko‘p jihatdan haq-huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g‘oyat og‘ir salbiy oqibatlarini, xususan, Farg‘ona vodiysida 1989-yili ro‘y bergan noxush voqealar haqida shoir iztirobli o‘y-fikrlarini shunday yozadi: “Quvasoyda boshlanib, butun Farg‘ona vodiysiga tarqalgan mudhish voqealar o‘ylarimni chetga surib qo‘ydi. Yuragim iztirob bilan to‘ldi. Ne kunlarga qoldik? Sha’nimizga aytilmagan malomatlar ozmidi?

O‘zbekka “paxta ishi”ning dog‘i yetmasmidi? Qirq besh yil hayotning achchiq-chuchugini birga totib kelayotgan ikki do‘st, birodar millatlar o‘rtasida qanday nizo bo‘lishi mumkin? Mana shunday iztirobli savollar boshimga qalashib keladi, javob izlayman... Voqea-hodisalarga adolat ko‘zi bilan qaralsa, ularning haqiqiy sabablarini ko‘rish qiyin emas.

Quvasoy voqeasi Fargʻonaliklarning toʻlgan sabr kosasiga soʻnggi tomchi boʻlgan xolos. Vodiydagi iqtisodiy, sotsial ahvolning chatoqligi, nochor oilalarning koʻpligi, ishsizlikning oshib borayotganligi bugun hammaga ayon. Yakkaziroatchilik – paxta yakkahokimligi balosi, ayniqsa, Fargʻonaga koʻp ofatlar keltirdi. Bu mehnati ogʻir, ammo bahosi arzon ekin dehqonni xonavayron qildi.

Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor? Bu yerning 80 foizi paxta bilan majburiy band boʻlsa, u nima bilan tirikchilik qilsin? Terim mavsumida kun boʻyi paxta tergan studentning ish haqi oʻzining kunlik ovqatiga bazoʻr yetadi.

Respublikadagi ekologik holatni, bolalar, ayollar oʻlimining koʻpligini, yerning zaharlanganini gapirmayoq qoʻyay. Bu masalalar bir-ikki yilda yuzaga kelgan emas. Zero, ularni hal qilish uchun ham vaqt kerak... Lekin bu uzoq yillar yigʻilgan alamning birodarkushlik shaklida namoyon boʻlganligi tashvishlidir. Bu ish sabablari oʻrganilar, tarix oʻz hukmini chiqarar. Qirgʻindan manfaatdor boʻlgan shaxslar, guruhlar adolat qoshida javob berar...”⁴⁶

Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida gʻoyat hozirjavoblik bilan va chuqur hamdardlik va qaygʻudoshlik bilan yozgan bu fikrlarining qanchalik toʻgʻri va asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlar va soʻnggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham toʻla tasdiqladi. Yaʼni Erkin Vohidov sobiq shoʻro davridagi xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada erta-yu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sogʻligʻini yoʻqotib kelgan paxtakor-u dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini va uning dard-u tashvishlarini qanchalik haqqoniy yoritganligini yana bir muhim tarixiy hujjat, yaʼni muhtaram Birinchi Prezidentimizning “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish eng – oliy saodatdir” nomli kitobi asosida ham dalillab oʻtsak boʻladi. I.A.Karimovning ushbu kitobida haqgoʻylik bilan bitilgan maqolalari, katta hayotiy tajriba va donishmandlik bilan yoʻgʻrilgan nutq-maʼruzalari, juda taʼsirchan va unutilmas xotiralari bilan Erkin Vohidovning publitsistik asarlari

⁴⁶ Воҳидов Э. Изтироб. Ота журтинг омон бўлса. Тошкент: Ўзбекистон, 1992, – Б. 13-15.

mazmunan nechog‘lik mushtarak va hamohang ekanligida ham ana shu achchiq hayotiy haqiqatning chuqur aks etganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Eng avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, Birinchi Prezidentimizning bu asarida xalqimizning mustabid sovet davlatining hukmron siyosati ostida qanchalar erksiz va huquqsiz yashaganligi va boshidan qanday nohaqlik va adolatsizliklarni kechirganligi va Mustaqillikka erishilgandan keyingi davrdagi erkin va ozod hayotimizning asosiy sabab va omillari g‘oyat chuqur qiyosiy tahlillar va mantiqiy xulosalar bilan ifodalangan. Bular O‘zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o‘tmish tariximizni anglab olishida va bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi va ulkan ahamiyatini tasavvur etishimizda ham eng zarur hayotiy saboqlar bo‘la oladi. Ayni vaqtda, bu kitob millionlab hamyurtlarimiz va ayniqsa, umidli yoshlarimiz uchun ona-Vatan qadrini tushunib olishida va uning ravnaqi yo‘lidagi barcha faoliyat va intilishlarimizda ham muhim bir dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Bu kitobda jamlangan nutq va ma’ruzalarning yetakchi g‘oyaviy mazmunini birinchi yurtboshimizning quyidagi o‘gitlaridan uqib olamiz: “Biz o‘tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edig-u bugun kim bo‘ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o‘zimizga chuqur tasavvur etamiz. Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko‘rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotning qadriga yetadi”.⁴⁷

Yuqorida Erkin Vohidov og‘riqli o‘y-fikrlar va hayotiy savollar bilan bayon etgan Farg‘ona voqealarining tub sabablari ham bu kitobda g‘oyat aniq va chuqur ko‘rsatib berilganligi yana bir marta xalqimizning ko‘zini ochgandek bo‘ladi go‘yo va barchamizni kechagi kunimizdan, tarixiy o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Jumladan, Farg‘onadagi keskin vaziyat haqida aytilgan quyidagi fikrlarni o‘qigan har bir kitobxon larzaga tushadi va Mustaqilligimizning buyuk ahamiyatini yanada chuqurroq anglay boshlaydi: “Sobiq SSSR davrida

⁴⁷ Ислом Каримов. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. — Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. — Б. 7-15.

O‘zbekistonga nisbatan Markaz tomonidan olib borilgan zo‘ravonlik siyosati, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini mensimaslik, paxta yakkahokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy holatimiz va hayotimiz jar yoqasiga kelib qolgani, norozilik lovullab yonib ketadigan darajada keskinlashib borgani hech kimga sir emas. 1989-yilning may oyida Farg‘onada, Quvasoyda bo‘lib o‘tgan qonli voqealarga nima sabab bo‘lgan edi? Ana shunday adolatsiz siyosat emasmi?

Yurtimizda vaziyat jar yoqasiga kelib qolgan, odamlarning sabr kosasi to‘lgan, ularning turmush sharoiti og‘ir edi. Buni yashash darajasi bo‘yicha O‘zbekiston o‘n beshta respublika ichida eng pastki o‘rinlarga tushib qolgani, uch-to‘rttalab oila katalakdek hovlilarda tiqilib yashagani, ishsizlik, onalar va bolalar o‘limi keskin oshib ketgani ham tasdiqlaydi. Ana shunday adolatsiz sharoitda azaldan chidamli xalqimizning ham toqati toq bo‘ldiki, endi uni ushlab, to‘xtatib turadigan kuchning o‘zi yo‘q edi. Shunday o‘ta murakkab, tahlikali, takror aytaman, kichik bir uchqun chiqsa, hammayoq lovullab yonib ketadigan bir vaziyatda men O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshlashimga to‘g‘ri kelgan edi...”⁴⁸

Nafaqat Erkin Vohidov singari xalqparvar va haqiqatgo‘y ijodkorlarimizni, balki butun O‘zbekiston xalqini chuqur qayg‘u va qo‘rquv-tahlikaga solgan Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlarda ro‘y bergan voqealarning qanchalik dahshatli tus olganligi ham Birinchi Prezidentimizning ushbu kitobida barchaga tushunarli tarzda ro‘yi-rost ko‘rsatilganligini quyidagi xulosalar orqali yaqqol ko‘z oldimizga keltiramiz: “Mustaqillikni qo‘lga kiritish ostonasida turgan damlarimizni o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, butun O‘zbekistonni, kerak bo‘lsa, O‘rta Osiyoni portlatib-yondirib yuborishi mumkin bo‘lgan, sobiq Ittifoqni larzaga solgan, “Farg‘ona fojeasi” deb nom olgan mash‘um voqealarni xayolimizga keltiraylik.

⁴⁸ Ислом Каримов. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. — Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. — Б. 26.

O'sha paytlarda sobiq Markaz tomonidan bizga qarshi qancha-qancha uydirmalar, tuhmat va bo'htonlar yog'dirilgani, hatto xalqimizga millatchi deb nom berishga urinishlar bo'lganini ko'pchilik hamon yaxshi eslaydi."

Nihoyat, shoir aytganidek, "Ortda qoldi dard – sitam, Ketdi vahming, bitdi zahming, Topdi darmon o'zbekim". 1991-yil xalqimiz va mamlakatimiz tarixida unutilmas eng buyuk voqea sodir bo'ldi: dono va jasoratli yo'l boshchimiz rahnamoligida xalqimiz erk va ozodlikka erishdi. Faqat Mustaqilligimiz tufayligina barcha jabr-u sitamlarga va adolatsizliklarga chek qo'yilganligini va har birimizning taqdirimizda bu tarixiy haqiqatning ahamiyati katta ekanligini unutmasligimiz kerak.

Shu munosabat bilan Erkin Vohidov maqolalarida keng o'rin tutgan bir qator muammolarimiz Mustaqillik sharofati bilangina hal etilganligini ham ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi. Masalan, shoirning "O'zbekchilik" va "Bizning odatlar" kabi maqola va suhbatlarida xalqimizning ba'zi yaxshi va ijobiy urf-odatlar, an'ana va taomillari quvvatlanib, ularning muhim tarbiyaviy ahamiyati to'g'ri yoritiladi. Aksincha, eskirgan urf-odatlar va ba'zi nomaqbul diniy aqida va qarashlar esa tanqid qilinib, ular jamiyatimiz rivoji va kishilar ong-u tafakkuriga ham salbiy ta'sir etishi mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Chunonchi, dabdabali to'y-hashamlar, kelin-kuyovlarga haddan ziyod sarpo-liboslar, ayniqsa, qimmatbaho mebellar va ortiqcha jihozlar olish kabi molparastlik odatlari avj olganligini kuyunchaklik bilan kitobxonlar hukmiga havola etadi. Eng achinarlisi, bunday odatlar illatga aylanib, o'rtacha yashayotgan oilalarni qiyin ahvolga solib qo'yayotganligini ham hayotiy misollar bilan ifodalaydi. Muhimi yana shundaki, bunday tanqidiy munosabat shoirning bir qator she'rlarida ham o'zining haqqoniy ifodasini topganki, ishimizning keyingi bobida ana shunday mavzulardagi she'rlarga ham alohida to'xtalib o'tamiz.

Erkin Vohidovning ko'pgina maqola, she'r va suhbatlarida juda keskin aks ettirilgan yana bir muammo borki, bu hech bir vatandoshimizni befarq qoldirmasa kerak. Bu – mustaqil yurtimizdagi har bir fuqaroning mamlakatimiz kelajagi va xalqimiz hayoti uchun daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi. Loqaydlik esa

jamiyatimiz hayoti va ravnaqi uchun eng xavfli illatdir. Xalqimizda ming asrlar davomida yashab kelayotgan va biz saqlab qolishimiz kerak bo'lgan qoida va odatlarimiz ko'p. "Nima ishim bor!" yoki "Nima ishing bor?" qonuni bilan yashash jamiyatimizning ofati desam bo'ladi. Bu-xudbinlik dunyosining falsafasi. Biz qurayotgan adolatli, huquqiy demokratik jamiyat esa insonning insonga bo'lgan mehr-u oqibati asosiga qurilgan jamiyat bo'ladi..."⁴⁹ E.Vohidov ijodida she'r va maqolalarida ham loqaydlik keskin qoralanganining sababi birgina shoirning nuqtayi nazari va shaxsiy tuyg'ulari bilangina bog'liq emas. Loqaydlikni Erkin Vohidov jamiyatni yemiruvchi bir ofat sifatida nafrat bilan muhokama qilishining asosiy sababi shundaki, u kishilik jamiyatida ijtimoiy adolat o'rnatilishiga va haq qaror topishiga asosiy g'ov bo'ladi. Odamlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibat va birodarlikni, hamdardlikni chuqurlashtirish va ezgulik yo'lida birdam bo'lishga xizmat qilish o'rniga xavfli to'siq bo'ladi. Erkin Vohidov kabi shoir va adiblarimizning loqaydlikni o'ta xavfli illat deb bilishi diniy aqida va hadislarimizga ham bog'liqligi, islomiy ma'rifat va hadislar ham insonlarni nohaqlikni qo'li bilan, tili bilan qaytarishni buyuradi, juda bo'lmaganda dili bilan, ya'ni ko'nglidagi noroziligi bilan unga qarshi turish lozimligini uqdiradi. Mavlono Jaloliddin Rumiy hikmatlaridan biri shunday: Agar tanang-vujudingdagi og'riqni sezsang, sen borsan, tiriksan. Agar o'zgalarning dardini sezsang – sen insonsan. Erkin Vohidovning asarlarida loqaydlikni jamiyatimizning ashaddiy dushmani deb qat'iy rad etishida va "Uchi tugik dastro'mol", "Bedorlik" va "Sen menga tegma" kabi falsafiy qarashlarining tag ma'nosida ham ana shunday ulug' niyat va oliyjanob insoniy g'oyalar mujassam.

Adabiyot va san'atda bo'lganidek, Erkin Vohidov singari ulkan shoir va mutafakkir ijodida muayyan davr ruhi va ijtimoiy muammolarining aks etishi tabiiy bir holdir. Jumladan, o'tmishda ham va keyingi davrlarda ham va odamlar ong-tafakkuri va o'y-qarashlarida jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabatlarida turli xil qarshlar va ba'zan loqaydlik yoxud olomonchilik kayfiyatlari ham

⁴⁹ Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. Б. 21.

bo‘lganligi achchiq haqiqatdir. Bu jihatdan Erkin Vohidovning qator maqolalari va fikrlari shunday ogoh etadi: “Bir kishining qo‘liga mash’ala berib teatr yo boshqa muhtasham binoga o‘t qo‘y deyilsa, u o‘ylab qoladi va bunday jaholatga qo‘li bormaydi. Agar shunga o‘xshash bir to‘da odamlar olomonga aylansa, teatrga ham o‘t qo‘yishi hech gap emas”⁵⁰

Qayta qurish yillari deb atalgan 1980-yillar va mustaqillik arafasidagi taloto‘plar va ijtimoiy-ma’naviy beqarorliklar SSSR degan imperiyaning tanazzuli arafasida ko‘plab mintaqalarida paydar-pay sodir bo‘lgan olatasir yig‘inlar, mitingbozlik va olomonchilik hodisalari haqqoniy tasvirlanganini mashhur shoirlarimiz Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonidagi jaholat to‘g‘risidagi rivoyati yoxud “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” ro‘znomasida chop etilgan esse-fikrlari bilan va Abdulla Oripovning “Olomonga” yoxud Muhammad Yusufning “Xalq bo‘l, elim” she‘rlari bilan muqoyasa qilinganda, yanada yaqqolroq his etish mumkin.

Ushbu she‘r va maqolalarni o‘qigan kitobxonning olomon va uning tarixiy o‘tmishimizda va keyingi yillardagi mohiyati to‘g‘risidagi tushuncha-tasavvuri yanada kengayishi va ong-tafakkuri ham chuqurlashib, jiddiy mushohada yuritishi shubhasizdir:

Mashrab osilganda qayoqda eding,
Cho‘lpon otilganda qayoqda eding.
Qarshingda hasratli o‘yga tolaman,
Qachon xalq bo‘lasan, ey sen olomon.⁵¹

Bu asarlarda ifodalanyotgan g‘oya va mazmunning umumiy mushtarakligi shunchaki tashqi yoki tasodifiy o‘xshashlik yoxud qandaydir taqlidchilik natijasi ham emas. E.Vohidovning xalq va millatimizning dard-hasrat va armon to‘la qalbidagi asriy nidolarining chuqur va yakdil bir aks-sadolaridir deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

⁵⁰ Вохидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 17.

⁵¹ https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/mavlonov_jaloliddin_rumiy_uz/858 Abdulla Oripov. “O‘zas”, №1, yanvar, 1993 y

Bu fikrni yana bir qiyos bilan davom ettirish mumkin. Tog‘ay Murod romanida ijtimoiy-siyosiy hayot va sotsialistik mafkura odamlar ongi-ruhiga chuqur ta’sir qilishini deputatlar misolida ham aks ettirgan va bu jihatdan ham Erkin Vohidovning “Xalq noiblari” she’riga hamohanglik va mushtaraklikka guvoh bo‘lamiz. Shu muqoyasa orqali ham Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Tog‘ay Murod kabi millatparvar adiblarning xalq dard-u tashvishi bilan yashagani va jamiyat ma’naviy hayotidagi illatlarni tezroq bartaraf etish haqida qayg‘urgani va bu orzu-harakatlari bilan buyuk jadidlarimiz kurashining izchil davomchilari bo‘lganini tasavvur etamiz.

Erkin Vohidov ta’kidlaganidek, olomonchilik, to’dachilik, mahalliychilik, manmanlik bosh ko’targan joyda millatning millat o‘laroq ildamlashiga g‘ov bo‘ladigan ijtimoiy-ruhiy hiyla-nayrang va riyokorliklarga o‘z-o‘zidan yo‘l ochilaveradi. Albatta, tashqi g‘animdan ham bu-xavfliroq. Xalq atalmish mavjudlikning tabiati va shuurida sifat o‘zgarishi ancha sekinlik bilan yuzaga chiqadigan hodisadir. “Barcha kulfat shundaki, – degan edi o‘zbekning kelajagini o‘ylagan donishmand shoirimiz Erkin Vohidov, – bizda balandroq kursi, mo‘may mukofot yoxud deputatlik nishoni va’da qilinsa, millat, xalq, vatan taqdirini unutib qo‘yadigan eldoshlarimiz ko‘p”. Darhaqiqat, bu kabi toifalar qadri uchun emas, qorin uchun yashaydiganlar, o‘zining “ego-men”ini xalq va el-yurt manfaatidan ustun qo‘yuvchi, “Men tinch-olam tinch” qabilida ish ko‘ruvchi kimsalardir.

Erkin Vohidovning yuqorida ko‘rib o‘tilgan maqolalari, nutq va suhbatlarining mushtarak jihatlaridan biri shundaki, ularning deyarli barchasi xalqimiz va jamiyatimizning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib yozilgan. Boshqacha aytganda, ularda xalqimizning ko‘nglidagi va tilining uchidagi so‘z-fikrlar topib aytilgan. Eng muhimi shundaki, ularda bugungi va ertangi hayotimizning g‘oyat dolzarb muammolari katta bir donishmandlik va bashoratgo‘ylik bilan yoritilgan.

Haqiqatan ham, muallif ta’kidlaganidek, bugungi har tomonlama rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnimizni, o‘zimizning so‘zimizni aytishimiz uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodimizni barcha bilimlardan xabardor

va har qanday sinovlarga dosh bera oladigan qilib tarbiyalashimiz lozim. Chunki hozirgi taraqqiy topgan jamiyatlarda tarbiyalanayotgan kadrlar har qanday xavf-xatarlarga tayyor va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga javob topa oladigan darajada fikrlay oladigan qilib ta'lim va tarbiya olayotganligini iqtidorli yoshlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Erkin Vohidov yuqoridagi fikrlari orqali bugungi otalarning farzandini qiynalmasin deb, barcha narsalarni muhayyo qilib qo'yishlari, to'y-u tomoshalarni haddan ziyod oshirib, hovli-yu, uy-joylarni tayyor qilib berishlari natijasida farzandlarimiz o'ta dangasa, tayyoriga ayyor bo'lib qolayotganliklari ham hozirgi yosh avlod tarbiyasida yo'l qo'yilayotgan jiddiy kamchiliklar ekanligini oqilona bir xavotir bilan ta'kidlaydi va jamoatchilik e'tiborini shu muammolarga jalb etadi.

Erkin Vohidov bugungi yosh avlod ta'lim-tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, bir latifani keltirib o'tadi: – Bir dehqon o'g'lini Yevropaga ta'lim olish uchun jo'natibdi. Oradan bir yil o'tib o'g'ildan xat kelibdi. “Ota, olmon tilini egallab, lotinchani o'rganishga kirishdim, pul yuboring”. Dehqon pul yuboribdi. Undan so'ng yana bir yil o'tib, o'g'ildan yana bir xat kelibdi. “Lotinchani ham suv qilib ichib yubordim. Endi arabchaga kirishdim. Pul yuboring”. Ota yana yiqqan-tergan pulini jo'natibdi. Bir yildan keyin o'g'il yana pul so'rab xat yozibdi. Dehqon bu safar pul yubormay maktub jo'natibdi. “O'zingizni sog'indik, qishloqqa bir kelib keting”⁵², deb yozibdi. Darhaqiqat, muallif o'zining ushbu suhbat maqolasida mazkur latifani keltirish orqali farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni masalasiga alohida urg'u berganligini ko'rishimiz mumkin. Farzandni doimiy tarzda ota-ona o'z nazoratiga olmasa, albatta, u bolaligiga borib, turli davralar, har xil guruhlar ta'siriga tushib qolishi tabiiy. Erkin Vohidov yuqoridagi latifa orqali farzand tarbiyasida doimiy e'tibor talab qilinishiga urg'u berib o'tadi. Latifa davomida esa, Yevropaga o'qishga ketgan o'g'il va nihoyat ona qishlog'iga kelganligi, ota o'z o'g'liga olmoncha hamda lotincha so'zlarning o'zbekcha ma'nolarini so'raganida, o'g'il otasini tushunmaydi deb, o'zbekcha “panshaxa”ni olmonchasi “der

⁵² Vohidov E. Yulduzli onlar shukhi. Asarlar. Oltinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 26.

panshaxa”, “poxol” soʻzini lotinchasi “poxolus” deyiladi, deb javob qilibdi. Shunda ota miyigʻida kulib, arabchani ham bir yil davomida oʻqidingiz, arablar “arava”ni nima deyishadi, deb savol beribdi. Oʻgʻil bu gal ham oʻylab oʻtirmasdan “al-arobatus” deya javob qaytaribdi. Otaga oʻgʻlining Yevropada qanday ilm olganligi ayon boʻlgandan soʻng, – “oʻgʻlim, olmoncha ham, lotincha ham, arabcha ham oʻzimizning til ekan”, – deb oʻgʻilni qishloqda mehnat qilib yurishi eng toʻgʻri yoʻl ekanligini taʼkidlabdi. Muallif, shuningdek, mazkur latifa orqali koʻp jihatdan biz olgan bilimlarga, toʻgʻrirogʻi, bilimsizligimizga ishora qilayotgandek. Chunki hozirgi rivojlanayotgan jamiyatimizda ham latifada aytilgan “yevropa”da taʼlim olgan oʻgʻilga oʻxshash “iqtidor egalari” uchrayotganligi tabiiy.

Yirik isteʼdodlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishgan tadqiqotchilar ularning turli janr va mavzuda yaratgan barcha asarlari umumiy ruhi va gʻoyaviy-badiiy maqsadlariga koʻra ichki bir butunlikni tashkil etadi, degan qarashlarni ilgari suradilar. Xuddi shundayin, Erkin Vohidovning mavzu va janr jihatidan rang-barang boʻlgan sheʼr-dostonlari va publitsistik maqolalari, suhbatlari ham mushtarak jihatlarga ega va ularning deyarli barchasi xalqqa xizmat qilishdek ezgu maqsadlar bilan yoʻgʻrilgan. Xalq shoir va yozuvchilardan hamisha haq gapni kutadi. Buning uchun ijodkordan tugʻma isteʼdod bilan birga haq soʻzni dadil ayta olish jasorati ham talab etiladi. “Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan boʻlsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qoʻyar edim. Chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli zehniga bogʻliqdir. Sanʼat asarida yaxshini yaxshi deb odamlarga ibrat qilish, yomonni yomon deb odamlarni undan jirkantirish uchun shijoat kerak boʻlsa, shijoat halollikni talab qiladi. Shuningdek, shijoatsiz halollikning oʻzi oʻlik sarmoyadir”⁵³, – degan edi realist yozuvchilarimizdan biri Abdulla Qahhor.

Oʻtmishda ham, bugungi kunlarimizda ham ana shunday shijoatli va haqgoʻy adiblar koʻplab topiladi. Hassos tanqidchi va tarjimon Ibrohim Gʻafurov

⁵³ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/abdulla-qahhor-shijoat-haqida-1963>
Abdulla Qahhor. “Shijoat haqida” 1963 yil

to'g'ri ta'kidlaganidek, Erkin Vohidov o'zini she'rga bag'ishlagan va hech qachon she'r-u she'riyatga xiyonat qilgan emas. U totalitar muhitning zamonasozligiga qat'iyat bilan qarshi turoidi. U qalbining amri bilan ijod qildi, o'z insoniy, ijodiy prinsiplarini mafkuraning shiddatli tazyiq va amrbozliklaridan saqlashga muyassar bo'ldi. Holbuki, o'sha zamonasozlik, totalitar tuzum, uning mafkurasi bilan murosasozlik ko'plab talantlarning erkin o'sishiga yo'l qo'ymadi, ba'zi talantlarni o'tmaslashtirib, ularni siyqa, tamagir madhiyabozlik, maddohlik yo'sinida asarlar yozishga ko'ndirdi. Ijodning erkin tomirlarini kasallantirdi. Ana shunday og'ir va murakkab sharoitda ijod qilish va haq so'zni aytish yosh adabiy avlodga ham oson bo'lmagan va ular ana shu hukmron komfirqa siyosatiga qarshi o'laroq haqiqatdan chekinmagan. Bu jihatdan Erkin Vohidovning ko'plab asarlari yosh adiblar uchun ijodiy jasorat namunasi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

So'z san'atkori ijodini uning publitsistikasi va adabiy-estetik qarashlaridan xoli o'rganish biryozlamalik bo'lur edi. Erkin Vohidovning "Shoir-u she'r-u shuur", "Iztirob" to'plamlarining mazmun - mundarijasini belgilagan, davr va so'z san'ati, adabiy muhit va badiiy ijod muammolariga oid asarlari uning ijodkor shaxs sifatidagi siymosini to'liqroq tasavvur etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga shoirning mumtoz she'r va dostonlari yaratilishi, badiiyatini va mohiyatini anglashimizda ham yordam beradi. Ijodkorning so'z san'ati va madaniyatimiz rivojidadagi o'rnini badiiy asarlari bilan birga uning publitsistik faoliyati va adabiy-estetik qarashlarini vobasta o'rganish orqali chuqurroq anlaymiz."⁵⁴ Darhaqiqat, Erkin Vohidovning badiiy publitsistikasida insonning ruhiy va ma'naviy qiyofasi, kamolotiga alohida e'tibor qaratilishi ustuvor yo'nalish ekanligini kuzatamiz. Erkin Vohidovlar talqinida badiiy ijodning asosiy vazifasi, eng avvalo, insonlar hayoti va ong-u tafakkurida ezgulik va birodarlik, tinchliksevarlik va adolatparvarlikni barqarorlashtirishi lozimligi bilan belgilanadi.

2.2.§. Publitsistikada badiiy ijod va ijodkor shaxs muammolari

Erkin Vohidov publitsistikasida eng salmoqli o'rin tutuvchi badiiy ijod va uning mangu muammolari va xususiyatlari haqidagi o'ziga xos teran fikr va

⁵⁴ То қуёш сочгайки нур. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 470-471.

qarashlari bag‘oyat muhimligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Hassos shoir va mutafakkirning badiiy publitsistikasining asosiy mavzu-mundarijasini Alisher Navoiy kabi ulug‘ ustozlari va zamondosh adib va adabiyotshunoslar haqidagi maqolalari tashkil etadi. Adabiyot maydonida paydo bo‘lgan har bir yosh iste’dod adabiy ta’sir omillari yordamida shakllanishi va kamol topishi badiiy ijodning ob’ektiv qonuniyati bo‘lib hisoblanadi. So‘z san’ati rivojining ushbu faktor-omillari qanday namoyon bo‘lishini mumtoz adabiyotimiz va XX asr adabiyotida, ayniqsa, Navoiy an’alarining Erkin Vohidovlarga ilhombaxsh ta’siri va ular tomonidan ijodiy davom ettirilishi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Albatta, ijodkor bir shaxsning ulg‘ayishi va kamolotga erishuvida, avvalo, ota-onasi va uni qurshab turgan muhit, yaqin zamondoshlari, aziz ustoz va tengdosh shoir-yozuvchilarning ta’siri va ko‘magini ham inkor etib bo‘lmaydi.

Navoiyning ijod ahlining shaxsi, burch va mas’uliyati, badiiy so‘z fazilati va funksiyasi, adabiyot va san’at asarida shakl-mazmunning uyg‘unligi va ma’noning ustuvorligi kabi deyarli barcha asosiy masalalar xususidagi teran qarashlari bugungi kunda ham shoir va adiblar hamda adabiyotshunoslar uchun, shubhasiz, beqiyos bir ijodiy dastur bo‘la oladi. Navoiy “Mahbub ul-qulub”da ijodkorlar shaxsi va iste’dodi, tasvirlash mahorati kabi jihatlariga ko‘ra bir necha guruhga ajratilgani ham juda asoslidir: “Birinchi guruhi-ilohiy ma’rifat xazinasini javohirlari bilan boyigan va xalqning ta’rifiga ehtiyoj sezmaganlar bo‘lib, qiladigan ishlari ma’nolar xazinasidan javohir yig‘moq va u javohirlarni el ezguligi uchun nazm ipiga termoqlikdir. Nazmlari ifodasi nihoyatda qutlug‘, g‘oyat yoqimli va ulug‘dir. Istagan odam bularning she’rlaridan so‘z mo’jizalarini topa oladi”⁵⁵. Erkin Vohidov Navoiy tavsifidagi birinchi guruhga, ya’ni maqtov-u ta’riflarga ehtiyoj sezmasdan sidqidildan ijod qiluvchi fidoiy shoirlar toifasiga mansub. Erkin Vohidovning Navoiy an’alarini yuksak saviyada mahorat bilan davom ettirganligi va asarlari xalq qalbidan munosib joy olganligi bunga dalildir.

Ayniqsa, buyuk Navoiy ijodi va estetik olamidan boshqalardan ko‘ra ko‘proq oziqlanib, unga beqiyos darajada ixlos va e’tiqod qo‘ygan Erkin Vohidov

⁵⁵ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адаб.ва санъат нашри, 1983. – Б. 26-27.

ham adabiyotga, ijodkor shaxsiyati va burchiga juda katta mas'uliyat bilan yondashgan. Mumtoz adabiyotshunoslik namunalarida san'at asarini o'rganishda yuksak talab-mezonlarga asosan fikr yuritish, tanqidiy mulohaza va xulosalarni bevosita asar tahlili bilan ilmiy va mantiqiy jihatdan dalillash zarurligi ta'kidlanadi. Bu xususiyatlar – bugungi kunda ham tanqidchilikda, ayniqsa, Erkin Vohidov kabi hassos shoir va mutafakkirlar asarlari va adabiy-estetik qarashlarida ustuvor tamoyil bo'lib sanaladi.

Ya'ni san'atkor shaxsi va ijodi ajralmas bir butunlikdan iborat yaratiqdir. Ijodkorning shaxsiy kechinma va tajribalari ijodida, qolaversa, adabiy asari syujetini shakllantirishida muhim omil bo'lishi mumkin. Ijodkor ongi-o'y-xayolidagi voqea-hodisalarni mazmunan jamlash, ularni muayyan g'oyaviy maqsad asosida saralash, tartib va tizimga solish badiiy tafakkurning o'ziga xos ijodiy bosqichlari sanaladi. San'atkor taxayyul olami, ko'ngil mulki va ijodiy laboratoriyasida kechadigan bu jarayonlar badiiy niyat va mantiq asosida shakllantiriladi. Oddiy ko'z bilan qaralganda, anglash va his etish bir qadar mavhumroq tuyuladigan va ma'lum darajada sirli kechadigan bu botiniy "ilohiy" lahzalar har bir ijodkorda turlicha yo'sinda, uning dunyoqarashi va tafakkur tarziga ko'ra yuz berishi mumkinligi isbotlangan.

Adibning "Qalbimiz hududlarini omon saqlaylik" ("Yoshlik" jurnali muxbiri Alisher Nazar bilan suhbat) nomli muhim bir publitsistik maqolasida badiiy ijod, adabiyotning yashovchanligi va sofligi, ijodkor e'tiqodi hamda fidoiyligi, iste'dodning yuzaga chiqishida ijtimoiy-tarixiy muhitning ta'siri masalalari xususida fikr yuritilgan. Ijodkorlar bir-biriga o'xshamagani kabi Erkin Vohidovlar muhiti, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor, Shuhrat, Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinov kabi ustozlarning yoshlarga mehr-u ardog'i ham turlicha bo'lgan. "Ularning yodi oldida qarzdormiz va bu qarzni ijodkor yoshlarga mehr ko'rsatib uzmog'imiz kerak", – deydi E.Vohidov.⁵⁶ Haqiqatan ham, o'tgan asrning 60-70 yillarida adabiyotga, badiiy ijodga bo'lgan mafkuraviy tazyiq ko'plab yosh ijodkorlarning o'z to'g'ri yo'lidan adashib, ijod

⁵⁶ Воҳидов Э. Эрк саодати. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 270-271.

olamining keng sarhadlaridan biroz chetlashib qolishlariga ham sabab bo'lgan. Ularning yetuk ijod namunalari o'sha davr tanqidchiligi tomonidan nohaq tahlil-talqinlarga uchrab, chop etilmay qolish holatlari ham ko'p bo'lib turgan. Erkin Vohidov o'sha muhitda ijod qilgan adiblardan biri sifatida, adabiyot maydoniga kirib kelayotgan shoir-yozuvchilarga har doim ham oson bo'lmaganini ta'kidlaydi. Bu borada ulkan adiblarimiz – Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom va ustoz munaqqid Ozod Sharafiddinovning rahnamoligi nechog'lik muhim ahamiyat kasb etganligini chuqur minnatdorlik bilan e'tirof etadi.

Erkin Vohidov ushbu suhbat maqolasida o'sha murakkab davrda ijod qilgan ustozlar o'z fe'l-atvoriga muvofiq turfa xil bo'lganligi, ularning har biri yosh qalamkashlarga o'zlarining qimmatli maslahatlarini berganliklarini mamnuniyat bilan xotirlaydi: “G'afur G'ulom 1966-yilning aprelida Tojikiston yozuvchilari anjumaniga borar ekan, Komil Yashinga aytib meni ham ro'yxatga kiritganini, yo'l-yo'lakay bu bolaning qulog'ini cho'zib qo'yaman, deb aytganini eshitganman. Darhaqiqat, u kishi o'sha safardan qaytishda menga tanbeh berib: “Siyosatga to'g'ri kelmaydigan she'rlar yozarmishsan. Hukumat bilan o'ynashma, jimjiloqdek shoirsan. Bu davlat marshallarni ham otgan”, degani qulog'imdan ketmaydi.”⁵⁷

G'afur G'ulomning Erkin Vohidovga bergan tanbehini uning kelajagini o'ylab, otalarcha qilgan nasihati sifatida tushunish lozim, deb o'ylaymiz. Chunki keksa avlod vakillari, jumladan, G'afur G'ulom ham Stalin qatag'onining bir necha to'lqinlarini ko'rgan inson sifatida yosh shoirni o'zini asrashi lozimligini chin ko'ngildan xohlaganini anglash mumkin.

G'afur G'ulom ocherk va maqolalarida yozuvchi nigohining o'tkirligi, milliy xarakter va ruhiyatni ich-ichidan puxta bilishi, fikrining olmosdek keskirliigi, tilining yorqinligi, tasvirlarining xalqchil yumorga boyligi ham Erkin Vohidovdek hassos yosh ijodkorlar uchun bir ibrat bo'lgan. Shu munosabat bilan uning yangi hayotni ulug'lash, gumanizm va baynalmilallik g'oyalarini targ'ib qilish, xalqlar do'stligi va qardoshligini tarannum etish G'afur G'ulom she'riyati kabi E.Vohidovning publitsistikasining ham asosiy mazmunini tashkil etadi. G'afur

⁵⁷ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/erkin-vohidov-qalbimiz-hududlarini-omon-saqalaylik>

G‘ulom butun ijodi davomida vatanimiz hayotidagi hamma muhim hodisalarga ehtirosli va haqqoniy so‘zi bilan javob berdi va publitsistik maqolalarida xalq qalbini ifodalab, uni yangi-yangi g‘alabalarga ilhomlantira oldi.

Ustozning ilhombaxsh bu an‘analari ham keyingi avlod namoyandalari, xususan, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov va Abduqahhor Ibrohimov kabi adiblar tomonidan ijodiy davom ettirilganligiga guvoh bo‘lamiz. G‘afur G‘ulomning ijodiy an‘analari uning hajviy hikoya va she‘rlari orqali ham Erkin Vohidov kabi yirik shoir va adiblar ijodiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligini ta’kidlash lozim. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Klassiklardan qachon so‘z ochar, ehtiyot bo‘ling, olovlar sochar” degan felyetonini eslaylik. Uning qahramoni – “ziynat va shuhrat uchun “shoir” bo‘lib olgan Suvonqul degan betayin bir kimsa. U bir kun kechasi juda chiroyli qiz bilan oshiqona suhbatda bo‘lganini tush ko‘rib chiqadi-yu uni qo‘msab o‘zicha ashula to‘qiydi: “Tushimda meni qitiqlab ketgan, ey pari, Qaysi texnikumda o‘qiysan? Ariza yozsam, adresing yo‘q, Kel, malagim, kel!”

Shu-shu Suvonqul o‘zicha shoir bo‘lib qoladi va hamma yoqni ana shunday bema’ni “nazm durdonalariga” to‘ldirib tashlaydi. G‘afur G‘ulom felyetonda shoirlik da’vosida yurgan Suvonqulning o‘ta farosatsizligi, saviyasi pastligi, “o‘qish-o‘rganish” degan gaplardan uzoqligini fosh qilib, o‘tkir zaharxanda bilan yozadi: “Suvonqul endi “madaniy” shoir, hech qanday jihatdan kamchiligi yo‘q. U klassik shoir va adiblarni ham o‘z bilganicha taniydi. “Pushkin – katta ko‘cha, Tolstoy – yo‘g‘on degani. Navoiy – piyoda yura turgan bir oyoqyalang. Fuzuliy – eski maktablarda o‘qiladigan bir kitob. Muqimiy – Hapalak qishlog‘ining so‘fisi”.⁵⁸ Suvonqulning saviyasi – mana shu.

Shuninglek, G‘afur G‘ulomning hajviy she‘rlari va hikoyalarining ba’zi xususiyatlari ham uning hozirjavob ijodkorligi va badiiy mahoratidan guvohlik berib turadi. Chunonchi uning asosiy obrazlaridan biri Matmusa “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” odamlarni, madaniyatni shapka kiyib, galstuk taqishdan iborat deb biladigan, aslida, zamondan orqada qolgan, texnikadan, ilm-fan yutuqlaridan

⁵⁸ Шарафиддинов О. Халқ бахтининг оташин куйчиси. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 237.

bexabar kimsalarni o'zida ifodalovchi xarakter. Yozuvchi uning mohiyatini nodonlik va ilmsizlik tufayli qahramonning kulgili vaziyatlarga tushib qolishini tasvirlash bilan ochib beradi. Bu an'ana Erkin Vohidov kabi adiblarimiz asarlarida ijodkorona davom ettirilganligini ham payqash qiyin emas. Jumladan, G'afur G'ulomning hajviy qahramoni Matmusa Erkin Vohidovning el orasida mashhur bo'lib ketgan turkum hajviy asarlarining asosiy qahramoni bo'lganligi ham fikrimizga dalil bo'la oladi. Ustoz Said Ahmad, Anvar Obidjonlar va tanqidchi-adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, Erkin Vohidov xalqimizning buyuk shoiri allomalari bisyor bo'lgani bilan ularga munosib avlod bo'la olmayotgan zamondoshlariga qarata Matmusa timsolida "oyna tutib", har bir o'zbek xonadonida ajdodlar an'anasi davom etmog'i lozimligini uqtirmoqchi bo'ladi. (Nurboy Jabborov) Shoirning o'zi bu haqda shunday deydi: "Donish qishloq latifalari"ni o'qib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig'lab yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirayotgani sir emas-ku!

Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutgancha bir xil ohangni chalabergan Matmusalar ozmi? O'zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo'lni ko'rolmay, osmonga qarab ketayotgan hollarimiz yo'qmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar"⁵⁹

Yoxud yana bir umumiy mulohaza xayolimizdan o'tadi: Erkin Vohidovning mashhur "O'zbekim" qasidasidagi "Qayga borsam, boshda do'ppim, g'oz yurarman gerdayib" kabi satrlarini kitobxonlar yod bilishadi. Ushbu xalqona satrlarni o'qiganimizda hamisha milliy o'zbek do'ppisini kiyib, o'zbek xalqimizning qadimiy tarixidan va shoirligidan g'ururlanib, tanti dehqonlarimizga xos viqor bilan ko'ksini kerib yuradigan G'afur G'ulomning ulug' ustozlardek salobat-kelbati va donishmandona nuroniy siymosi ko'z oldimizda gavdalanishi tabiiy bir hol. Va mana shu buyuk shoirimizning betakror ijodi va o'ktam ovozi va qadri balandligi Erkin Vohidovdek millatparvar shoirimizga "O'zbekim"day

⁵⁹ "Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati" mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari / – Guliston – 2020. – B. 44.

betakror qasidalarini yaratishga ilhom bag‘ishlagan bo‘lsa ne ajab!. Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, “G‘afur G‘ulom – qomusiy bilim-tafakkur egasi bo‘lishi bilan birga Navoiydan ruhlanib, ko‘plab tillarni puxta bilishi bilan ham barcha ijodkorlarni hayratga solardi. U Tojikistonga borganda, do‘st-u birodar shoir va adiblar bilan forsiyda so‘zlashar, katta anjumanlarda ham fors-tojik tilida nutq irod qilib, minglab kitobxonlar olqishiga sazovor bo‘lganini Erkin Vohidov ham faxr-iftixor bilan eslaydi...”⁶⁰

Erkin Vohidovning maqola va xotiralarida G‘afur G‘ulom iste’dodining boshqa ko‘plab ijodkorlarda uchramaydigan hayratomuz xislatlarini ham havas bilan ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, G‘afur G‘ulomdagi badihago‘ylik talantini alohida ehtirom bilan ta’kidlab, shunday ta’riflaydi: “G‘afur G‘ulom silkinsa she’r to‘kilar edi...” Shu munosabat bilan yuqoridagi fikrlarning yana bir dalili sifatida G‘afur G‘ulomning haqiqiy ma’noda yetuk badihago‘yligidan yorqin dalolat beruvchi va chinakam milliy tafakkur va o‘zbekona bag‘rikenglikning go‘zal bir namunasi bo‘lgan “Bizning uyga qo‘nib o‘ting, do‘stlarim” she’ridan keltirilgan bir bandiga dono xalqimiz nigohi bilan razm solaylik: Keksa shoir tilidan ovoqimiz,

Shunday o‘tsin har bahor-u yozimiz,
Ko‘p ko‘rinsin ko‘zingizga ozimiz,
Do‘stlar uchun jonimiz-niyozimiz,
Bizning uyga qo‘nib o‘ting, do‘stlarim!⁶¹

Xalqimizni dunyoga tanitgan ulug‘ alloma G‘afur G‘ulomning “daryodil shoir” ekanligi (Ozod Sharafiddinov) ham, uning abadiyatga daxldorligi ham, eng avvalo, shoirning mana shunday oliyhimmat va keng fe’li-sa’jijasida, beqiyos o‘zbekona tantiligi va o‘ktamligida ham ayon bo‘lganligi ayni haqiqatdir.

Erkin Vohidov kabi yosh ijodkorlarga Abdulla Qahhor bergan saboqlari ular uchun muhim bir dastur bo‘lib xizmat qilar edi. Badiiy asarning kitobxonni to‘lqinlantiruvchi chuqur mazmunli bo‘lishi uchun hamisha muhim bir shartga

60 Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 248.

61 Фафур Ғулом. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 88.

izchil amal qilishi – “xalqning dilidagi, tilining uchidagi” gapni topib aytishi kerak. Bu soʻzlarda adabiyotning tub mohiyatiga doir jihat yaxshi ifodalangan. Yaʼni “xalqning dilidagi, tilining uchidagi gap” bevosita “yozuvchi hamisha haqiqatni topib aytishi kerak” degan fikrni ham qamrab oladiki, bu realistik sanʼatning azaliy, asosiy bir prinsipidir. Yaʼni ijodkordan tugʻma isteʼdod bilan birga haq soʻzni dadil ayta olish jurʼati talab etiladi. Darhaqiqat, qaysi bir isteʼdodli yozuvchi ijodini eslamaylik, u yaratgan asarlar hayotiy haqiqat nuri bilan yoʻgʻrilganligiga amin boʻlamiz. Yirik adib Odil Yoqubov tavsiflashicha ham, adabiyot haqiqatni aks ettirsagina haqiqiy adabiyot boʻladi.

Zotan, adabiyotimizning barcha yirik vakillari Navoiy ijodidan va adabiy-estetik saboqlaridan oziqlanmagan, taʼsirlanmagan va ilhomlanmagan deyish bamisoli ular quyosh nuridan bahramand boʻlmagan deyishdek anoyilik boʻlar edi. Navoiy ijodi va faoliyatida yuksak darajaga koʻtarilgan mardona jasorat ham maʼnaviy-estetik tafakkur silsilasidagi mustahkam xalqlar deyish mumkin. Sobiq shoʻro siyosati avj olgan sotsialistik tuzumga va hukmron partiya mafkurasiga qarshi haq soʻzlarni aytish- boshni kundaga qoʻyish bilan baravar edi.

Abdulla Qahhor taʼkidlaganidek, adabiy tanqid adabiyotni olgʻa suradigan kuch boʻlishi bilan yoshlar uchun maktab vazifasini oʻtaydi. “Yoshlarimizning yana ham tezroq oʻsishiga xalal berayotgan jiddiy kamchilik–yoshlarimiz asarlari bosilayotganiga xursand boʻlib, bilimlarini yetarli darajada boyitishga jon kuydirmayotganliklaridir. Soʻz sanʼatining sirini bilishga, badiiy mahoratlarini oshirishga qunt qilmayotganliklaridir.”⁶² Bugungi Istiqlol davri adabiy-tanqidiy tafakkuri va kitobxonlar maʼnaviyatini ham boyitishi mumkin boʻlgan bu hayotiy fikrlar adib vafotidan keyin nashr etilgan, ammo hukmron mafkuraning manqurtlarcha tazyiqi bilan taqiqlangan “Yoshlar bilan suhbat” kitobidan keltirildi. Zukko matnshunos-tarjimon Kibriyo Qahhorova va Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qoʻshjonovlar saʼy-harakati bilan 1968-yili chop etilgan bu kitobning ayanchli taqdiridan yoshlar bexabar deyish mumkin. Oʻttiz ming nusxada chop etilgan va adabiyotning mohiyati, badiiy ijod va mahorat sirlaridan bahs etuvchi bu

⁶² Наим Каримов. Усмон Носир. – Тошкент: Шарқ НМК, 1993. – Б. 4.

nodir asar qahhorona keskin fikrlar sababli savdo rastalaridan yig'ishtirib olinib, nashriyot maydonida yoqib yuborilgan. Ushbu kitobga O.Sharafiddinov muharrir bo'lgan va M.Qo'shjonov So'zboshi yozgan edi Erkin Vohidovning bu jihatdan ham Qahhor kabi ustozlarga maslakdosh va izdosh ekanligi, ammo jur'atsizlik, qo'rquv-hadiksirashlar hamon hayotimiz va ma'naviyatimizdagi illat bo'lib qolayotganidan bizni ham ogoh etadi:

Dil so'zi qatag'on erksiz tuzumni
Biz ko'rdik, ko'rmasin hech kim, hech zamon.
Ko'p qattiq tishlagan ekanmiz mumni,
Og'iz ocholmasdan yuribmiz hamon.⁶³

Ikki davrda yashab ijod etgan millatparvar ustoz va shogird asarlaridagi bunday da'vatkor haqgo'ylik ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotimizda ham jiddiy bir voqea bo'lib, bugun ham dolzarb sanaladi. Abdulla Qahhorning betakror adabiy-tanqidiy faoliyati va estetik qarashlarida iste'dodli yoshlar tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Adib talantni xalq mulki deb bilar va yosh iste'dodlar ijodini qadrlash, ularga oqilona rahnamolik va g'amxo'rlik qilish bobida Abdulla Qahhor darajasida faoliyat ko'rsatgan ustoz juda kam, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Bu jihatdan O'zbekiston Qahramoni, hassos adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning quyidagi fikri juda o'rinlidir: "Abdulla Qahhorda yoshlar bilan ishlash, ularning talanti, o'sishi haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish juda erta boshlangan. Keyin bu ishtiyoq kengayib, kuchayib, insoniy prinsipga, hayot va ijod maktabiga aylandi. Barcha buyuk adiblarimiz yosh ijodkorlarni tarbiyalash mas'uliyatidan aslo qochmaganlar. Lekin ular ichida Abdulla Qahhor yoshlar adabiyoti, uning tarbiyasi, muammolari bilan eng chuqur, eng izchil va eng samarali shug'ullangan, bunda o'z zimmasiga Gorkiy izidan borish vazifasini ortgan yirik adib va muallim edi."⁶⁴ Bu-to'g'ri e'tirof, ammo, bizningcha, Gorkiydan oldin Navoiy ko'rsatilsa, haqiqat yanada to'liqroq ifodalanar edi. Navoiyning beqiyos ustoz-muqavviylik an'alarini ibratli davom ettirgan fidoiy adiblardan biri, shubhasiz, Abdulla Qahhor deyilsa, bu xulosa ham hech kimda e'tiroz uyg'otmaydi. Bu jihatdan Erkin

⁶³ Вохидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил – Б.109.

⁶⁴ Иброҳим Ғафуров. Инсонийлик рисоласи. Адабиётимиз фахри. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 124.

Vohidovning maqolalari va purma'no xotiralari bugungi yoshlarimiz uchun ham chuqur hayotiy va ijodiy saboqlar bo'la oladi deb o'ylaymiz.

Qahhorning bu boradagi ibratli faoliyati adabiyot rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'lgani va adib yoshlarga qanday munosabatda bo'lish sabog'ini qoldirgani Erkin Vohidovning "Qarzdorlik" nomli xotira-maqolasida haqqoniy yoritilgan: "Abdulla Qahhor biz endi adabiyotga qadam qo'ygan davr muhiti markazida turgan shaxs edi, yoshlarga alohida e'tiborli, iste'dodni ilg'ash qobiliyati benihoya kuchli ustoz edi. Said Ahmad, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.Umarbekov, A.Oripov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, U.Nazarov singari yozuvchilarning ijodiy taqdirida Qahhorning ustozlik o'rni bor. Ustozning menga, so'ngra A.Oripovga ko'rsatgan xayrixohligi biz uchun o'ziga xos yashinqaytargichday bo'lgan".⁶⁵ Yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik Qahhor tabiatiga xos fazilat edi. Bu haqda adib shunday deydi: "Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, birinchi asari bilan yashnab kiradi.

"Men adabiyot muhibiman, adabiyotga yashnab kirgan yoshlarni ko'rib quvonib ketaman, quvonchimni o'sha yoshning o'ziga izhor qilib aytaman. Bu yashnagan cho'g'ni yelpish demakdir"⁶⁶. Darhaqiqat, Abdulla Qahhorning iste'dodli yoshlarga g'amxo'rlik va homiyligi ham hayratlanarli edi. Zotan, uning adabiyotga va ijod axliga jonkuyarligi, iste'dodli yoshlarga talabchan murabbiyligi, eng avvalo, bu betakror siymoning adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqi yo'lidagi fidoiyligi va mas'uliyati bilan izohlansa to'g'ri bo'ladi.

Darhaqiqat, asarlari maktab darsliklariga kiritilgan Abdulla Qahhorday ustoz o'zining yetuk hikoya va qissalariga yosh shoirlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning va hali millatchi tamg'asidan qutulmagan Cho'lponning she'rlarini epigraf qilib olishi adabiyot tarixida noyob bir hodisa. Qahhorning "Mahalla" nomli hikoyasiga "Inson bilan tirikdir inson" deb boshlangan falsafiy to'rtligi epigraf qilib olingani haqida keyinchalik E.Vohidov shunday yozadi: "60-yillar

⁶⁵ Вохидов Э. Карздорлик. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987. – Б. 117.

⁶⁶ <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/saydi-umirov-oltin-zanglamas-2007>

boshida hayotimda yuz bergan bir voqea qismatimda o'chmas iz qoldirdi. O'shanda men bir kitobcha avtori, nashriyotga ishga kirgan vaqtim edi. Buning ustiga, o'sha kezlari ba'zi she'rlarim tanqid qilinib, matbuotda yangi narsalarim to'xtab qolgan"⁶⁷. Qahhor bu e'tibori bilan go'yo bularning asarlari sizlarga ma'qul bo'lmasa, men ularni boshimga ko'taraman, bularga otilgan tosh menga ham otilgan tosh bo'ladi demoqchi bo'lgan.

Boshqa ko'plab adiblardan farqli o'laroq, Abdulla Qahhor talantli yosh ijodkorlarning badiiy-estetik tafakkuri va ijodiy imkoniyatlariga hamisha yuksak baho berib, ulardagi ana shu ma'naviy-estetik boylikdan ko'proq foydalanib, adabiyotimizni jahon miqyosiga ko'tarishni orzu qilar edi. Shu munosabat bilan Qahhorning bundan 50-60 yillar ilgari yosh iste'dodlarning dastlabki asarlari va ularning intellektual saviyasi haqida aytgan samimiy fikrlarini keltirib o'tsak, ustozning adabiyotimiz kelajagi haqida qanchalik kuyunchaklik qilganini kengroq tasavvur qilamiz:" Ko'p yoshlarimiz ilmi, dono bo'lgani, mas'uliyatli hunarning miridan sirigacha yaxshi bilgani holda adabiy munozaralarda, muhokamalarda kam qatnashadi, fikr-mulohazalarini yonlariga tugib yurishadi. Holbuki, oqsoqollar sizlarning fikr-mulohazalaringni, qanday qiyinchiliklar tortayotganliklaringni, bizning kitoblarimiz, kasbimiz haqidagi o'ylaringni bilgisi keladi. Oqsoqollar sizlarga ta'lim berishgina emas, sizlardan ta'lim olishni istaydi. Kelinglar, kasb-korimiz to'g'risida gurunlashaylik, teng turib musobaqalashaylik, talant xalq boyligi, xalq mulki ekanini nazarda tutib, bir-birimizga yordam qilaylik." Bu so'zlarda adabiyotni muqaddas deb bilgan, iste'dodli yoshlarni samimiy mehr va talabchanlik bilan qadrlagan ustozning ulug' orzu-tilaklari ham mujassam.

Istiqlol sharofati bilan o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi ham g'oyaviy, ham badiiy-estetik saviyasi jihatidan yangi bir bosqichga ko'tarildi. Shu munosabat bilan adabiyotshunos U.Qosimovning A.Qahhor va E.Vohidovlarga bevosita daxldor bir xotirasini keltirishni lozim topamiz. Qahhorshunos olim yozishicha, "Abdulla Qahhor uy-muzeyida an'anaviy xotirlash kechasi aytilgan muhim bir haqiqat alohida e'tiborga loyiq. Taniqli adiblar, akademiklar, adabiyotshunos-

⁶⁷ Воҳидов Э. Қарздорлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 77.

muxlislar qatnashgan anjumanda O‘zbekiston Qahramoni, mashhur shoirimiz Erkin Vohidov tarixiy bir voqeani sharqona lutf bilan e’tirof etgan. Istiqlool davri ijod ahliga e’tibor va g‘amxo‘rlik beqiyos ortdi. Mashhur ijodkorlar – Said Ahmad, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov va Erkin Vohidovlar Vatanimizning oliy mukofoti – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. Ular barchasi Abdulla Qahhor mehridan va unutilmas saboqlaridan bahramand bo‘lgan. Shu bois ustozimiz Abdulla Qahhorni to‘rt marta adabiyotimiz Qahramoni bo‘ldi, – deb e’zozlaymiz”.⁶⁸ Bu – samimiy va adolatli e’tirof edi!

Erkin Vohidov o‘zining maqola va xotiralari davomida boshqa yirik adiblarning ham unutilmas saboqlarini qadrlashi namoyon bo‘ladi. “She’r yozayotganda onadek mehringni ber, uni elga taqdim etayotganda talabchan ustozdek shafqatsiz bo‘l”, – der edilar G‘ayratiiy domla. Yoxud “She’r qog‘ozga tushguncha sizniki, nashr etilgach boshqalarniki bo‘ladi. Siz o‘z she’rlaringizga o‘zgalar ko‘zi bilan, xato-kamchiliklar qidirib qarashga o‘rganing”, – derdilar Mirtemir domla” Bular hozirgi yosh qalamkashlar uchun ham beminnat maslahatlardir. Erkin Vohidovning ustozlaridan olgan bunday bebaho saboq-o‘g‘itlarga sadoqat bilan amal qilish bilan birga ular bugun ham badiiy ijodning muqaddas talab-mezonlari bo‘la olishi shubhasizdir.

Ayniqsa, she’riyat shahri darbozasiz bo‘lib qolgan, kim nima ko‘ngliga kelsa yozib, xonandalar badiiyatning ko‘chasidan uzoq satrlarni qo‘shiq qilib, baralla aytib yurgan bizning hozirgi zamonda bu so‘zlar g‘oyat zarur va qadrlidir.”⁶⁹ Chunki hozirgi estrada yo‘nalishidagi aksariyat qo‘shiqlarning matnlarini she’r, deb aytish ancha mantiqdan yiroq bo‘lgan ish bo‘lib hisoblanadi.

Istiqlool yillarida ijodkorlarga badiiy ijod erkinligi berilganligi juda katta tahsinga sazovor imkoniyat va yutuqlarimizdan. Ammo guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, so‘z erkinligi, ijod erkinligini noto‘g‘ri tushunayotgan, haqiqiy san’atni biznesga aylantirib olgan “iqtidor” egalari ham borki, ular misolida adabiyotning, sof she’riyatning nufuziga soya tushayotgandek, nazarimizda.

⁶⁸ Қосимов У. Ёзувчининг сирлари. Абдулла Қаҳҳор сабоқлари. – Тошкент: Монография, 1995. – Б. 24.

⁶⁹ Воҳидов Э. Озодликнинг ilk шаббадалари. Асарлар. 6-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 219.

“Badiiy didning ommaviy tarzda susaygani – yoshlarning shunchaki vazn-u qofiyali nutq bilan she’rni, nazmboz bilan shoirni farqlamay qo’yayotgani hammani jiddiy tashvishga solmog’i kerak. Mazkur holning sabablari ko‘p, lekin, eng avval, o‘zimiz bilan bog‘liq tomonini mulohaza qilib olishimiz lozim. Bemaza she’rlar urchib ketayotgani haqida ko‘pdan beri aytib kelamiz. Afsuski, faqat shugina: “aytib kelamiz”, – vassalom! Hech birimiz o’sha she’rlarning nimasi bemaza ekani, nima uchun ularni she’r sanab bo‘lmasligini ko‘rsatib berishga hafsala qilmadik. Bunday she’rlarga osmondan qarab, ularni “tanqiddan tuban”, “diqqat-e’tiborimizga nomunosib” deb bildik, ular haqida bir nima yozishni o‘zimizga ep ko‘rmadik. Endi tobora amin bo‘lganim, bu masalada tutgan tutumimiz zimmamizdagi vazifaga xiyonat ekan. Zero, jim turmay, vazifamizni sidqi dildan bajarganimizda, bemaza she’rlar urchiblar ketmagan bo‘larmidi?!”⁷⁰

Ushbu o‘rinda yana bir muhim jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Erkin Vohidov hamda adabiyotshunos Dilmurod Quronovning bugungi she’riyat borasidagi mazmunan hamohang va mushtarak tanqidiy qarashlari bir nuqtada birlashganligi tasodifiy emasdir. Zero, ikki o‘zbek ziyolisi ham bir masaladan tashvishda, kelajak she’riyatimizning faqatgina shaklbozlik ketidan quvib, o‘zining asl o‘zanidan chiqib ketishidan xavotirda ekanligini anglab olishimiz mushkul emas. Aslida, bunday “nazmbozlik illati” Navoiy zamonasida ham bo‘lgan va ustoz ularga adabiy jamoatchilik e’tiborini qaratgan. Yoxud XX asr adabiyotimiz rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lgan yuqumli illatlardan biri ham ma’no-mazasiz qofiyabozlikdan iborat “she’r”lar bemaza qovunning urug‘iday ko‘payib ketganligi manbalardan ma’lum. Bu illatning ayrim ko‘rinishlarini 1940-yillarda “Poeziya yuksak san’atdir” nomli maqolasida ko‘plab misollar tahlili orqali chuqur tahlil etib bergan Abdulla Qahhor ularning sabab va oqibatlarini ham ko‘rsatib bergan ekan.

Erkin Vohidov o‘z faoliyati va ijodi va ma’naviy kamolotida o‘ziga xos o‘rin tutgan ustozlar haqida publitsistik maqolalarida, xotira-esselarida ularga bo‘lgan ibratomiz munosabati va minnatdorchiligini izhor qilib o‘tadi. Jumladan,

⁷⁰ Қуронов Д. Шеърда мантиқ керакми? // Шарқ юлдузи, 2016 йил, №2-сон.

muallif O‘zbekiston Qahramoni, ulkan adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov haqida o‘z fikrlarini shunday bayon etadi: “XX asr o‘zbek adabiy muhitida o‘z ibratli shaxsiyati, mustahkam e’tiqod-u dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo‘lib tanilgan alloma Ozod Sharafiddinov mening nafaqat shoir, balki inson sifatida shakllanishimga katta ta’sir ko‘rsatgan chin ma’nodagi ustoz edi.”⁷¹ – deya e’tirof etadi. Erkin Vohidov yorqin xotiralarida ta’kidlaganidek, o‘z davrining hamda keyingi yillarda ham o‘zbek adabiyotining yirik darg‘alaridan biri, mashhur adib Abdulla Qahhor bilan tanishuvida, katta avlod ijodkorlari nazariga tushishida ham Ozod Sharafiddinovning o‘rni va xizmatlari mislsiz katta bo‘lgan.

Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov o‘tgan asr adabiyoti hamda adabiyotshunosligi taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan buyuk o‘zbek mutafakkirlaridan biri edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ozod Sharafiddinovning XX asr yangi o‘zbek adabiyotining mustabid adabiy siyosat tazyiqi va tahdidlari tufayli toptalgan tarixini tiklash, qatag‘on qilingan adiblar merosini xalqqa qaytarish yo‘lidagi jonbozliklari ayni ilmiy-ijodiy jasoratning chin namunasidir. Mustabid tuzum sharoitida bunday kurash va shijoatlar qanchalar qimmatga tushganligini, ehtimol, hozirgi yosh avlod yaxshi bilmas. Munaqqid “Tobutdan tovush” komediyasi haqidagi ilhom va ehtiros bilan yozilgan maqolasi, mafkuraviy-siyosiy jihatdan “nomaqbul” she’rlar mualliflari Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlarga ustozlik qilgani uchun ta’na-dashnomlarga uchradi, u muharrirlik qilgan “Tirik satrlar” to‘plami va A.Qahhorning “Yoshlar bilan suhbat” kitobi qatag‘onga duchor bo‘ldi, olovda yoqildi.”⁷² Garchi muhit shunday murakkab va ziddiyatli bo‘lsa-da, juda ko‘plab ilm va ijod ahli, ayniqsa, yoshlar Abdulla Qahhor va Ozod Sharafiddinovlarni haqiqiy ijod posbonlari, haqiqat jarchilari deb bilib, ularga ergashishga, ularning davrasida bo‘lishga intilishgan.

Erkin Vohidov o‘zining “Ustoz siyratiga chizgilar” nomli badiiy publitsistik maqolasida Ozod Sharafiddinovning chin ma’nodagi olimligi, yuqori saviyadagi badiiy asarlarga, haqiqiy iste’dod egalariga tom ma’nodagi ustoz hamda otalarcha

⁷¹ Воҳидов Эркин. Устоз сийратига чизгилар. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 280.

⁷² Норматов У. Ижод ва шижоат. Озод Шарафиддинов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019 – Б. 66.

g'amxo'r inson bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida, siyosiy-mafkuraviy devorlar bilan qoplangan bir muhitda yozuvchi-shoir nomini ko'tarib yurish nechog'lik qiyin bo'lgan bo'lsa, tanqidchi-adabiyotshunos sifatida faoliyat olib borish ham shu qadar og'ir bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas. U tuzumda badiiy ijod maydonida ijodkor iste'dodining haqiqiy bahosi, halol baholash mezonini bo'lgan emas.

Sho'rolar zamonida ijodkorlarning o'rni va mavqeyi partiyaga nechog'lik sodiqligi hamda mehr-u sadoqatiga qarab belgilanar, munosabatiga ko'ra mukofot-u yorliqlar bilan taqdirlanar edi. Xuddi shunday g'ayrioddiy qonun-qoidalar asosiga qurilgan tuzumga chiday olmagan insonlardan biri, ulug' yozuvchi Abdulla Qahhor bo'lgan bo'lsa, yana biri esa tanqidchi-adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov bo'lganligini Erkin Vohidov o'z maqolasida haqli ravishda qayd qilib o'tadi.

Bu muhitga, uning tartib va qoidalariga qarshi chiqqan ziyolilar, oddiy insonlar ham doimiy ta'qib va tazyiqqa duchor bo'lishgan. Bunday jasoratli zotlarga yaqin bo'lgan ijodkorlar esa turli xil yo'llar bilan to'siqqa uchrab, nomlari "qora ro'yxat"larga kiritilgan.

Erkin Vohidov ta'kidlashicha, Ozod Sharafiddinov talantni ilg'aydi, iste'dodni ko'ra biladi, deb maqtashadi. Talantni ilg'ash-ku qiyin narsa emas. Yaxshi she'rni yomon she'rdan boshqalar ham farqlay biladi. Bu juda katta donishmandlik talab qilmaydi. Lekin iste'dod yonidan indamasdan o'tib, pachoq adibni olqishlaydigan odamlarga qoyil qolish kerak. Mana buni san'at desa, noyob qobiliyat desa bo'ladi. Ozod Sharafiddinov bunday "qoyilmaqom" munaqqidlar qatoriga kirmaydi. Borini qandoq bo'lsa, shundoqligicha aytadi-qo'yadi. Ko'pgina hamkasbalarida bor bu xil "hunar" bizning ustozda yo'q. Darhaqiqat, haqiqiy iste'dod va iqtidorni to'g'ri baholay olish hamda har qanday vaziyatda oqni oq, qorani qora, deb ayta olish ham chin ma'noda insoniylik va jasoratning bir ko'rinishidir.

Ozod Sharafiddinov adabiyot hamda adabiy tanqid maydoniga XX asrning o'rtalarida, yurtimizda mustamlaka tuzumning adabiy siyosati biroz yumshagan bir

davrda kirib keldi. Xuddi shu kezlarda badiiy tafakkur, adabiy tanqidchilik olamida yangi to‘lqin yuzaga kela boshlagan edi. Ozod Sharafiddinov shu to‘lqinning oldingi qatorlarida, umidbaxsh tamoyillarning, haqiqiy iqtidorlarning himoyachisi va kashfiyotchisi tariqasida maydonga kirib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. “Munaqqid adabiyotimiz osmonida mitti yulduzlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar paydo bo‘lganida – bu istiqboli porloq chin iste’dodlarni tanqidchilikda ilk bor kashf etdi, ularni yangi ijodiy parvozlarga ruhlantirdi.”⁷³ Erkin Vohidovning ushbu “Ustoz siyratiga chizgilar” nomli maqolasi faqatgina Ozod Sharafiddinov shaxsiyati va ijod yo‘lini yoritibgina qolmasdan, balki XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining tom ma’nodagi qiyofasi, badiiy ijodga, ijodkor shaxsiga sobiq mafkuraning munosabati masalalarini ham qamrab olganligi bilan alohida ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yana bir O‘zbekiston Qahramoni, taniqli adib Said Ahmad ijodi va shaxsiyatiga bag‘ishlangan “Mehr va sadoqat ramzi”, Shoislom Shomuhamedovga bag‘ishlangan “Ezgulikka yo‘g‘rilgan hayot”, Hamid G‘ulom hayoti va ijod yo‘li haqida “Bag‘rikeng inson”, O‘tkir Hoshimov shaxsiyatini ochib beruvchi “Do‘stim to‘g‘risida bitiklar”, Ibrohim G‘afurov haqida “Ijodkorning yorug‘ yulduzi”, shoira Oydinga bag‘ishlangan “She’riyatga oshnolik yuksalishdir” kabi maqolalar ham muhim mavzularni shoirona yoritganligi bilan tanqid-adabiyotshunosligimizda munosib o‘rin tutadi.

Yoxud taniqli adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning ilmiy faoliyatini aks ettiruvchi “Teran daryo sokin oqar”, sevimli va iste’dodli shoirimiz Muhammad Yusuf ijodi haqidagi “Parvona nurga talpinadi”, Abdug‘ofir Rasulov haqidagi “Kuyunchaklik” hamda ilk ustoz Hakimjon Hoshimov shaxsiyati va o‘qituvchilik faoliyatini yoritib bergan “Ustoz yodi” maqolalari Erkin Vohidovning publitsistik asarlari ko‘lami kengligi va badiiy mahoratini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Erkin Vohidov badiiy publitsistikasidagi ustivor yo‘nalishlardan biri bu – muallifning ustoz hamda zamondosh adib va adabiyotshunoslar ijodiga,

⁷³ Ozod Шарафиддинов. Ижод ва шижоат. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 567.

shaxsiyatiga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘lganligini yuqoridagi maqolalari misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, muallifning adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan “Teran daryo sokin oqar” nomli maqolasiga qaratsak, bu haqiqat ayonlashadi. Mumtoz adabiyotga, ayniqsa, hazrat Navoiy ijodi va siymosiga ixlos-e’tiqodi yuksak bo‘lgan Erkin Vohidovning bir qator maqola va suhbatlari ko‘plab zamondosh adib va adabiyotshunoslar hayoti va ijod yo‘lini yoritibgina qolmasdan, balki XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining haqqoniy manzaralari va badiiy ijodga, ijodkor shaxsiga sobiq mafkuraning munosabati masalalarini qamrab olganligi bilan ham alohida ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan muallifning taniqli adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan “Teran daryo sokin oqar” nomli maqolasi alohida ajralib turadi. Erkin Vohidov mazkur maqolasida tasavvuf adabiyoti hamda Alisher Navoiy ijodiga munosabat bildirish barobarida Najmiddin Komilovning mumtoz adabiyotimizning zabardast bilimdonlaridan biri ekanligiga ham alohida urg‘u berib o‘tadi. Najmiddin Komilov “Tasavvuf yoki komil inson axloqi” (1-kitob, 1996), “Tasavvuf tavhid asrori” (2-kitob, 1999) kitoblarida tasavvufning mohiyatini chuqur tadqiq qilib, bir vaqtlar chetga surib qo‘yilgan, man etilgan, o‘tmish bilan bugun o‘rtasida buzib tashlangan ko‘priknı tiklashga uringani katta qahramonlik edi! Islom dini, naqshband tariqati, falsafa, mantiq va badiiy adabiyot ilmidan yaxshi xabardor Najmiddin Komilov o‘zbek xalqiga shoh, darvesh, nafs, ma’rifat, qanoat, saxovat ma’nolarining mohiyatini tushuntirish baravarida, odamlarni hayotda zohiriy (tashqi) amallarga, o‘tkinchi hoy-u havaslarga, nopok xatti-harakatlarga ko‘ngil bog‘lamaslikka undadi. Ustozning o‘zlari ham ruhiy poklik, tartib-ozodalik qoidalariga amal qilib yashadilar.”⁷⁴ Darhaqiqat, Najmiddin Komilov mumtoz adabiyotimiz bag‘rida ming yillar davomida yashab, rivojlanib, kamol topib kelgan tasavvuf hamda uning turli asarlarda badiiy aks etishi masalasini birinchilardan bo‘lib ilmiy tadqiq qilgan tasavvufshunos olimlarimizdan biri sanaladi.

⁷⁴ <https://uza.uz/uz/postc/nazhmiddin-komilovni-eslab> Бахтиёр Омон. Нажмиддин Комиловни эслаб.

Hassos shoir Erkin Vohidov ushbu maqolasida Alixonto‘ra Sog‘uniy suhbatida A.Navoiyning bir baytini tahlil qilib, May nima? Jom nima? Yor nima? Vahdat nima? ekanligi haqida gapirib, ushbu istilohlarni uzoq tahlil qilganligini ham minnatdorlik bilan tilga oladi. Navoiyning buyukligiga, Sog‘uniyning ulug‘ olim ekanligiga tan beradi. O‘sha suhbat davomida olim tasavvuf so‘zini ishlatib; “Tasavvufni bilmagan kishi, unga teran kirmagan kishi Navoiyni bila olmaydi”, degan ekan. Shundan so‘ng muallif mazkur so‘zning ma’nosini uzoq yillar o‘tgandan keyin “Yoshlik” jurnalida Najmiddin Komilovning “Timsollar timsoli” nomli teran mazmunli maqolasi nashr etilgach, uni o‘qib yanada teranroq anglab yetganligini samimiyat bilan e’tirof etadi.

Erkin Vohidov N.Komilovning jasoratli olim ekanligini ta’kidlab, muallifning o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib tasavvuf haqida maqolalar yozib, jiddiy izlanishlar olib borgani, natijada ikki jildidan iborat “Tasavvuf” asarini yaratgani ma’naviy-tafakkur olamida muhim voqea bo‘lganligi qayd etadi. Hazrat Navoiy asarlari sharhiga kirishib, mumtoz adabiyotimizning ajib bir sehrli olamiga jiddiy safar uyushtirgan yetuk adabiyotshunoslardan biri ekanligini alohida e’tirof etadi. “Najmiddin Komilovning mumtoz she’riyatning irfoniy ma’nolari haqidagi ilk maqolalarini o‘qiganimizda biz uchun yangi bir olam ochilgandek bo‘lgan edi”, – deb olimning salohiyatiga yuksak ta’rif beradi.

Najmiddin Komilovni Toshkent ilmiy, adabiy muhitidagi har bir ijodkor va olim chin dildan hurmat qilar, u kishining ilmiy-ma’naviy salohiyatiga, fazilatiga tan berar edi.”⁷⁵ Muallifning qayd qilishicha, ustoz alloma Ozod Sharafiddinov xasta bo‘lib, to‘shakka yotib qolgan vaqtlarida bir kitobi nashri munosabati bilan olimning xonadoniga juda ko‘plab taniqli adib va adabiyotshunoslar tashrif buyurishadi. Bir payt Najmiddin Komilov kirib kelganida, xonadon sohibi Ozod Sharafiddinov qalbi, vujudida u insonga nisbatan chuqur hurmat va munosib kutib olish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. Munaqqid Najmiddin Komilovning qo‘llarini ko‘zlariga tutib; “Tasavvuf” kitobini yozgan qo‘llaringizni bir ko‘zlarimga suray” – deganlariga ko‘plar guvoh bo‘lishgan va bu ikki buyuk siymolarimizga hayratlari

⁷⁵ Воҳидов Э. Теран дарё сокин оқар. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.300.

oshgan ekan. Darhaqiqat, Najmiddin Komilov ulug' olim bo'lish bilan birga g'oyat kamtarin inson bo'lganligini Ozod Sharafiddinov e'tirofidan so'ng u kishiga: "Sizdan o'rganamiz, ustoz" – deya o'ta kamsuqumlik bilan javob qaytarganlarida ham ularning insoniy fazl va kamolotining yuksakligini tasavvur etamiz. "Zar qadrini zargar biladi" deganlaridek, Erkin Vohidov mazkur maqolasida tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning teran tadqiqotlarini tahlil qilishi barobarida, ularning Navoiy orzu qilgan komil inson sifatidagi ma'naviy-ruhiy olamini ham ochib berganligi tahsinga loyiqdir. Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Navoiy va boshqa ulug' siymolarimiz hayoti va ijodini chuqur va xolisona o'rganish va ularni munosib qadrlash imkoniyatini Mustaqilligimiz yaratib berdi. Yetuk olimlarimiz ham mumtoz merosimizdan xalqimizni ko'proq bahramand etishda faollik ko'rsatmoqdalar. Holbuki, mustabid tuzum davrida ijod ahliga bunday erkinlik berilmas edi. Erkin Vohidovlar orzu qilganidek, o'zbek tilimiz va adabiyotimizni xolis o'rganishga va faxrlanishga endi imkon tug'ildi.

So'z san'atkori ijodini uning publitsistikasi va adabiy-estetik qarashlaridan xoli o'rganish biryoqlamalik bo'lur edi. Erkin Vohidovning "Shoiru she'ru shuur", "Iztirob" to'plamlarining mazmun – mundarijasini davr va so'z san'ati, adabiy muhit va badiiy ijod muammolari hamda ulug' ustozlari va zamondosh adib va adabiyotshunoslar haqidagi maqolalari tashkil etadi. Navoiy va boshqa ulug' siymolarimiz hayoti va ijodini chuqur o'rganish va ularni munosib qadrlash imkoniyati Mustaqillikdan so'ng yaratildi. Erkin Vohidovning publitsistik asarlari uning ijodkor shaxs sifatidagi siymosini to'liqroq tasavvur etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga shoirning mumtoz she'r va dostonlari yaratilishi, badiiyatini va mohiyatini anglashimizda ham yordam beradi. Shoirning publitsistikasi kabi tarixiy siymolar haqidagi she'rlarida ham uning ijodkor shaxs sifatidagi o'y-qarashlari va insoniy kechinmalari ham aks etgan.

Ma'lumki, san'atkor shaxsi va ijodi ajralmas bir butunlikdan iborat yaratiqdir. Oldingi bobda ko'rib o'tganimizdek, afsuski, iste'dodli va haqgo'y ijodkorlarimizga nisbatan mafkuraviy tazyiq va cheklovlar 50-60 yillardan keyin, hatto Mustaqillik arafasida ham davom etgan. Masalan, Erkin Vohidovdek

xalqimizning mashhur shoirining 1989-yili yozilgan va ko‘plab milliy respublikalarda ro‘y bergan fojialarni haqqoniy aks ettiruvchi o‘tkir publitsistik ruh bilan yo‘g‘rilgan “Iztirob” nomli she’ri “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida nashr etilishi taqiqlandi. Yurtparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ushbu she’rda ifodalangan tarixiy haqiqatni va o‘sha davrdagi matbuotimizga hukmron mafkura qanchalik g‘ov bo‘lganini kengroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Erkin Vohidov har doim o‘zining ijtimoiy hamda badiiy-publitsistik maqolalarida xalqimiz va Ona Vatanimiz ravnaqi uchun o‘zining nihoyatda sermazmun, uzoqni o‘ylagan, kelajak avlod uchun ham asqotuvchi taraqqiyparvar g‘oyalar va fikr-qarashlari bilan yurt rivoji yo‘lida kurashganligiga guvoh bo‘lamiz.

2. Erkin Vohidovning “Shoir-u she’r-u shuur”, “Iztirob” to‘plamlarining mazmun – mundarijasini davr va so‘z san’ati, adabiy muhit va badiiy ijod muammolari hamda ulug‘ ustozlari va zamondosh adib va adabiyotshunoslar haqidagi maqolalari tashkil etadi.

3. Erkin Vohidov badiiy publitsistikasidagi ustivor yo‘nalishlardan biri bu – muallifning ustoz hamda zamondosh adib va adabiyotshunoslar ijodiga, shaxsiyatiga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘lganligini yuqoridagi maqolalari misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

4. Erkin Vohidov o‘zining “Ustoz siyratiga chizgilar” nomli badiiy publitsistik maqolasida Ozod Sharafiddinovning chin ma’nodagi olimligi, yuqori saviyadagi badiiy asarlarga, haqiqiy iste’dod egalariga tom ma’nodagi ustoz hamda otalarcha g‘amxo‘r inson bo‘lganligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

5. Erkin Vohidov xalqimizning buyuk shoiri, allomalari bisyor bo‘lgani bilan ularga munosib avlod bo‘la olmayotgan zamondoshlariga qarata Matmusa timsolida “oina tutib”, har bir o‘zbek xonadonida ajdodlar an’anasi davom yetmog‘i lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi.

6. Erkin Vohidovning badiiy publitsistikasida insonning ruhiy va ma'naviy qiyofasi, kamolotiga alohida e'tibor qaratilishi ustuvor yo'nalish ekanligini kuzatamiz. Erkin Vohidov ta'rifida badiiy ijodning asosiy vazifasi, eng avvalo, insonlar hayoti va ong-u tafakkurida ezgulik va birodarlik, tinchliksevarlik va adolatparvarlikni barqarorlashtirishi lozimligi bilan belgilanadi.

7. Erkin Vohidovning "Shoir-u she'r-u shuur", "Iztirob" to'plamlarining mazmun - mundarijasini belgilagan, davr va so'z san'ati, adabiy muhit va badiiy ijod muammolariga oid asarlari uning ijodkor shaxs sifatidagi siymosini to'liqroq tasavvur etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

8. Erkin Vohidovning ko'pgina maqola, she'r va suhbatlarida juda keskin aks ettirilgan yana bir muammo borki, bu hech bir vatandoshimizni befarq qoldirmasa kerak. Bu – mustaqil yurtimizdagi har bir fuqaroning mamlakatimiz kelajagi va xalqimiz hayoti uchun daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi. Loqaydlik esa jamiyatimiz hayoti va ravnaqi uchun eng xavfli illat ekanligiga alohida e'tibor qaratadi.

III BOB. SHOIR SHE'RIYATI VA PUBLITSISTIKASI YAXLITLIGI

3.1.§. She'riyat va publitsistika: tarixiylik va mushtaraklik

Erkin Vohidov she'riyatida ona yurtimiz tarixi va kelajagi, o'zbek tilimiz va milliy qadriyatlarimiz tasviri asosiy o'rin tutganidek, bu zalvorli mavzular shoirning publitsistikasida ham yetakchi motivlar sifatida talqin etiladi. Erkin Vohidovning tarixiy siymolarga bag'ishlangan she'rlari ham adabiyotimiz rivojida muhim o'rin egallabgina qolmasdan, ular jamlansa, salmoqli bir nazmiy majmua bo'la oladi. Jumladan, Beruniy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Mirzo G'olib, Nazrul Islom, Pushkin, Gorkiy, Hamza, Alixon to'ra Sog'unuy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov singari ulug' siymolarga bag'ishlab yozgan asarlari adabiyotimizda alohida sahifa bo'lishi bilan birga tariximizni ham mazmunan boyitib, ular haqidagi asl haqiqatni anglab olishda muhim manba bo'la oladi. Ularda ham muayyan darajada shoirning shaxsiy hayoti va ijodiga doir biografik unsurlar aks etganligi ham muhim qimmatga ega. Shoirning publitsistik asarlari kabi tarixiy siymolar haqidagi she'rlarida ham uning ijodkor shaxs sifatidagi o'y-qarashlari va insoniy kechinmalari ham aks etishi tabiiy. Ular ham shoirning shaxsiy hayoti va tuyg'ulari haqida tasavvurimiz yanada boyitib, bilim-tafakkurimizni kengaytiradi.

“Tarixing bitmakka xalqim mingta Firdavsiy kerak” deb oh chekkan Erkin Vohidov zamonasining ulkan bir san'atkori sifatida xalqimizning asrlar ichra pinhon tarixini, boshidan kechgan qonli va shonli o'tmishini badiiy aks ettira oldi. Har bir xalq va millat tarixida shunday buyuk shaxslar bo'ladiki, ular o'zining favqulodda yuksak salohiyati, yurtparvarligi, ona – vataniga fidoiyligi va ulkan xizmati bilan katta shuhrat qozohadi va xalqining faxriga aylana nadi. Erkin Vohidov tengsiz faxr va g'urur bilan aytganidek, Alisher Navoiy ana shunday ulug' siymolarimizdan biri edi. “Alisher Navoiyni anglash va his qilish o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini, qalbi ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etish demakdir.

Shunday ekan, Navoiyni, umuman, mumtoz adabiyotni bilish har bir o'zbek farzandi uchun ham qarz, ham farz"⁷⁶

Nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turkiy xalqlarning ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan eng buyugi, shaksiz, Alsher Navoiy edi. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, zamon va makon chegaralarini bilmasligi, millatimizning g'ururi, shoni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori va mutafakkir ekanligidan cheksiz faxrlanamiz. Afsuski, o'tmishda, xususan, sobiq sho'ro davrining 20-30-yillarida Navoiy ijodiyoti xolisona ilmiy asosda o'rganilmasdan, ko'p hollarda buzib talqin qilindi va nohaq kamsitildi. Erkin Vohidov "Biz bugun Navoiyga tavba-tazarrular bilan borishimiz kerak" deganida, haq edi. Badiiy mahorat borasida, umuminsoniy gumanistik g'oyalar tarannumida, shoir ruhiy olamining miqyosida, she'riy so'zning mo'jizaviy ta'sir qudratida va yana ko'p xislat va fazilatlarda she'riyatimiz hali Navoiy sari yuksalishini orzu qilmog'imiz kerak. Navoiy shaxsi va ijodi xalqimiz uchun beqiyos ahamiyatli ekanligini chuqur ishonch va armon bilan ta'kidlagan shoir ko'plab maqola-suhbatlari, qator she'rlari orqali bu yombi haqiqatni xalqona so'z-iboralar bilan ko'nglimizga jo qilishi ham ibratomiz edi:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib, Demyan Bedniyni sevsa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salla bo'lgani shudir.
El komil bo'lmasa, yurt bo'lmas ulug',

⁷⁶ Воҳидов Э. Баҳрамандлик. Изтироб. –Т, 1992. – Б. 159.

Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.
Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lug‘,
O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,
Olamga: “Navoiy nasliman” degan
Ovozi baralla bo‘lgani shudir.⁷⁷

Darhaqiqat, Mustaqilligimizga qadar xalqimiz va adabiyotimiz g‘addor tuzumning hukmron siyosati tufayli ne mashaqqat va nohaqlikni boshidan kechirganligini biz yoshlar endilikda o‘qib, o‘rganmoqdamiz. Mustaqillik yillari xalqimiz Navoiyni anglash va qadrlash yo‘lida yangi bir bosqichga ko‘tarilganiga barchamiz guvohmiz. Ayniqsa, 1991-yili “Navoiy yili” deb e‘lon qilingani va ulug‘ shoir nomidagi Davlat mukofoti ta‘sis etilganligi ma‘rifatparvar xalqimizni cheksiz quvontirdi. Navoiyning nodir shaxsi va ijodining ulug‘vorligi endilikda olamshumul ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillar, ayniqsa, Mustaqilligimiz sharofati bilan Navoiy ijodi va uning ko‘plab nodir asarlari o‘zining haqiqiy ilmiy-adabiy bahosini olib, nafaqat yurtimiz va butun turkiy olamda, balki ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ham yanada yuksak qadrlanmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan turkiy davlatlar o‘rtasida Navoiy nomli xalqaro Davlat mukofoti ta‘sis etilishi ham yangi O‘zbekistonimiz va turkiy xalqlar ma‘naviy hayotidagi katta bir voqea sifatida e‘tirof etildi.

Erkin Vohidovning buyuk shoir va mutafakkir Navoiyga bag‘ishlangan she‘rlari, maqolalari, balki, XX asr o‘zbek adabiyoti navoiyshunosligida ham eng yorqin va mazmundor sahifani tashkil etadi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. “Barcha san‘atlar kabi she‘riyat ham o‘ziga xoslikni yoqtiradi. Ovoz ham, soz ham, so‘z ham, buyuk Navoiy tili bilan aytganda, tarhi toza va ulusqa beandoza” bo‘lsa e‘tibor topadi...” Ushbu e‘tirofda ham Erkin Vohidov uchun Navoiy ijodiy tamoyillari muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilganligi ko‘rinib turadi.⁷⁸

Darhaqiqat, Vatanimiz oxirgi o‘ttiz yilda qanchadan qancha yutuqlarga erishdi, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar o‘z samarasini bermoqda.

⁷⁷ Еркин Воҳидов. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992 й. – Б. 159.

⁷⁸ [Xurshid Davron. Ustoz ibрати & «Shahardagi olma daraxti» \(1979\) | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](#)

Sportchilarimiz, bilimli yoshlarimiz jahon miqyosida vatanimiz bayrog‘ini yuksaklarga olib chiqishmoqda. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, ma’naviyat tushunchasi insonlar orasida mavqeyi jihatidan birmuncha orqada qolayotganligi sir emas. Bozor munosabatlari jamiyatida odamlar tirikchilik tashvishlari bilan tarbiyalangan avlod ongida Vatan tushunchasi ham nomukammal tushunchaga aylanayotganligi ham barchamizni tashvishlantirishi lozim. Bu so‘zlarning isboti sifatida adibning “Ko‘nglimda bir hadik bor: Amerika va Ovruponing bozor sharoitida yashayotgan ko‘plab davlatlarida bo‘lib, shu narsaga iqror bo‘ldimki, bozor qonuniyatlari hokim bo‘lgan yurtda adabiyot va san’atning qadri bir qadar past bo‘ladi. Tirikchilik ketidan quvib ketib, ma’naviyatdan uzilib qolmasak edi. Bu marakkab muammo. Goho vatan nomukammal bo‘lib qolmasaydi, degan tashvishli hayollar orom bermaydi.”⁷⁹

Erkin Vohidovning bir qator mashhur she‘rlari va maqolalarida ana shunday dolzarb muammolar haqida jiddiy mushohada yuritiladi. Jumladan, umri poyonida yaratgan “So‘z latofati” kitobining beqiyos ilmiy-ma’rifiy, badiiy-estetik va tarixiy bir ahamiyati yana shundaki, unda Koshg‘ariy, Zamaxshariy, Navoiy va Mirzo G‘olib singari buyuk ajdodlarimiz va davrimizning mashhur adib-u ulamolari haqida ham g‘oyat ta’sirchan va qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga ushbu asarda o‘zbek tilimizning naqadar serqirra va serjilo ekanligi keng namoyish etiladi. Masalan, bundan ikki yuz yillar avval taqdir taqozosi bilan Hindistonda yashab ijod qilgan hamyurtimiz Mirzo Asadulloxon G‘olib teran ma’noli she‘rlarida o‘z ajdodlarini eslab: “Men asli samarqandlikman, naslim Oybeklar zotidan”, - deya g‘urur bilan yozganligi har bir vatandoshimizning qalbini iftixor hislari bilan munavvar qiladi:

Desam, G‘olib, yerim – pok xoki Turon,
Asil zotim bilan bag‘rim farahmand.
O‘zim turkzoda-yu naslim-da turkzod,
Buyuklar qavmi birla asli payvand.

⁷⁹ Э.Вохидов. Эрк саодати. Асарлар. 6-жилд . – Тошкент: Шарқ, 2018 й. – Б. 19.

Urug‘ bo‘lmish menga Oybeklar aslan,
Kamolan oyga nisbat, balki o‘nchand.
Otam kasbin desam dehqonchilikdir,
Bobom bo‘lmish zamindori Samarqand.

Shu tariqa Erkin Vohidov bugungi kitobxonlarning aksariyati uchun notanish bo‘lgan buyuk ajdodlarimizdan birining nasl-u nasabi va yorqin iste’dodi hamda murakkab qismatini she’riy misralarda ta’sirchan yoritadi.

Zero, hazrat Navoiyning: “Ko‘ngil holati so‘z degach bilgurur” va Boburning “So‘zimni o‘qub, bilgaysen o‘zimni” – degan ko‘ngil haqiqati Erkin Vohidov ijodida va uning poetik tafakkuri va she’riy satrlaridagi so‘z va iboralarida ham yorqin nomoyon bo‘lishi uning shaxsi bilan she’riyati yaxlitligidan yorqin dalolat berib turadi. Bunday yaxlitlik ijod olamida tabiiy bir hol bo‘lib sanaladi.

Erkin Vohidovning so‘nggi yillar o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi “Kelajakka maktub”, “Pushkin dahosi”, “Maksim Gorkiy bilan suhbat”, “Oleg Koshevoy” singari yorqin shaxslarga bag‘ishlab yaratgan she’rlari tarixiylik va badiiylik mutanosibligiga yorqin misol bo‘la oladi. Masalan, turli davrlarda u yoki bu darajada o‘rganilgan va bir necha marta o‘rganilishi taqiqlab qo‘yilgan buyuk shoir va hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur va uning qanchalar yuksak ma’rifatparvar shoh bo‘lganligi xususida bitilgan she’ri ulug‘ tarixiy siymolarga bag‘ishlangan asarlar ichida alohida o‘rin egallagandir. She’rda nafaqat Bobur va o‘g‘li Humoyunning shaxsiy hayoti haqida, balki o‘sha temuriylar davridagi tarixiy o‘tmishimizdagi g‘oyat ibratli voqealar badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, Boburning tinchliksevar, adolatparvar shoh va fidoyi bir ota sifatidagi favqulodda kuchli shaxs va kelajakni oldindan ko‘ra oluvchi podsholardan biri ekanligi chuqur yoritilgan. She’rda Bobur bilan Rossiyaning o‘sha davrdagi beshafqatligi bilan dovuq qozongan va jahl ustida hatto o‘z o‘g‘lini ham o‘ldirgan hukmdori Ivan Grozniyning qiyosiy portretlari mohirona va falsafiy yo‘nalishda tasvirlanadi:

Ivan Vasilevich – dahshatli podshoh
G‘azabi junbushga kelganda nogoh.

Temir aso bilan urib o‘g‘lini,
Farzand qoni bilan bo‘yab qo‘lini.
O‘zi dahshat ichra lol qotdi bir dam...

Bobur Mirzo esa o‘g‘lining sog‘ayishi uchun o‘z jonini sadqa qilib, dunyoda ko‘rilmagan fidoyilik namunasini qoldirgan ota, sulton va shoir edi.

Hayotga qaytdi-yu o‘g‘lon salomat,
Otani xastalik to‘shakka eltdi.
Shukrkim, baytlarda nomi qolajak,
Alamkim, zobit der uni kelajak.
Xat yozar bo‘ldi shoh Bobur bu gal,
Maktub bitar bo‘ldi o‘ris podshoga.
Tark etmoq muhaqqaq shohu gadoga
Faqat ezgu ishlar nasli odamni.
Unga tegib qoldi xatolik o‘tib
Olis kelajakka jo‘natilgan xat.⁸⁰

1533-yilda (shoh Ivan Grozniy taxtga o‘tirgan yili) Moskvaga knyaz Vasiliy Shuyskiy huzuriga Hindiston imperatori Boburdan elchi kelgan. Temuriylar saltanatining ulkan merosxo‘ri va davomchisi bo‘lgan, “Bori elga yaxshilik qilish”ni hayotiy dasturiga aylantirgan Bobur o‘zining ushbu tarixiy maktubida ulug‘ Moskva knyaziga do‘stlik aloqalari o‘rnatishni taklif qilgan. Bilim doirasi keng va buyuk shoh, benazir shoir va mutafakkir bo‘lgan Bobur dunyo mamlakatlari haqida, shu jumladan, davlat sifatida endi shakllanib kelayotgan Rossiya haqida ham yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan.

Afsuski, Moskvadan qaytarilgan javob Boburning ezgu niyatlariga muvofiq bo‘lmadi. Xatda Bobur tomonidan Hindiston va Afg‘onistonda katta davlat barpo etilgani haqida Moskvaga hech qanday xabar-ma’lumot kelmagan, demakki, Ivan Grozniydek ulug‘ knyaz Hindistondek katta mamlakat saltanat va Boburning

⁸⁰ Воҳидов Э. Келажакка мактуб. – Тошкент: Ёш гвардия 1983. – Б. 20.

shohmi yoki biror hukmdorning xizmatkori ekanini bilmaydi, deb yozilgan edi. Bu anglashilmovchilik natijasida Boburning ulug‘ bir orzusi amalga oshmasdan qolgan va Hindiston, ya’ni katta bir davlat bilan rus davlati o‘rtasida aloqa o‘rnatilmay qolgan. Ammo Boburning maktubi, Erkin Vohidov ta’riflaganidek, kelajakka yo‘llangan tarixiy yorliq-bitik sifatida xalqimiz va millatimizning tinchliksevarlik va ma’rifatparvarlik fazilatlaridan guvohlik berib turadi. Lekin bu tarixiy haqiqat ham sovet davri mafkurasi tomonidan tilga ham olinmagan.

Ma’lumki, san’atkor shaxsi va ijodi ajralmas bir butunlikdan iborat yaratiqdir. Oldingi bobda ko‘rib o‘tganimizdek, afsuski, iste’dodli va haqgo‘y ijodkorlarimizga nisbatan mafkuraviy tazyiq va cheklovlar 50-60-yillardan keyin, hatto Mustaqillik arafasida ham davom etgan. Masalan, Erkin Vohidovdek xalqimizning mashhur shoirining 1989-yili yozilgan va ko‘plab Respublikalarda ro‘y bergan fojealarni haqqoniy aks ettiruvchi o‘tkir publitsistik ruh bilan yo‘g‘rilgan “Iztirob” nomli she’ri “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida nashr etilishi ta’qiqlandi. Yurtparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ushbu she’rda ifodalangan tarixiy haqiqatni va o‘sha davrdagi matbuotimizga hukmron mafkura qanchalik g‘ov bo‘lganini kengroq tasavvur qilishimiz uchun mazkur she’rni to‘liq keltiramiz:

Betavfiq rahbarni so‘kkanim uchun
Uch yil yotar bo‘lsam yotganim bo‘lsin.
Uning yo‘q obro‘sin to‘kkanim uchun
To‘lov bersam borim sotganim bo‘lsin.
Xalqimga qadringni bil desam agar,
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,
Bu qutqu atalsa davlatga zarar,
Qancha azob bo‘lsa tortganim bo‘lsin.
Amaldor der esa: “Tuzim- men o‘zim,
Farmon-farmonimdir, so‘z mening so‘zim”
Men bundayin tuzimdan o‘girib yuzim,
Tamom jinoyatga botganim bo‘lsin!

Tiflisda xalq uzra tank yuborgan zot
Sha'nin qilar bo'lsa qonun ehtiyot,
O'sha zot kommunist bo'lsa, men, hayhot
Firqa daftarimni otganim bo'lsin!⁸¹

Ushbu she'rning qaysi satrida shoir badiiy to'qimadan foydalangan yoki qaysi misrasida mubolag'a, bo'rttirish san'ati qo'llangan deb savol berib ko'raylik o'z-o'zimizga. Aksincha, she'r boshdan-oyoq real voqelikka asoslanib yozilgan hamda xalqimiz hayoti va tarixidagi fojeali voqealarni bo'yab-bejamasdan haqqoniy aks ettirganligi uchun ham bu she'r hukmron sovet mafkurasiga ma'qul kelmagan aniq.

Mustaqilligimizdan oldin buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanchalar ta'qiqlar bo'lmadi? Yoki Navro'z singari milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz unutilishga mahkum qilinganligini bugungi yoshlarimiz bilishmasa ham kerak. Erkin Vohidov singari yurtparvar, jasoratli shoir va yozuvchilarimiz mustabid tuzumning ta'qiq hamda tazyiqlariga qaramasdan, xalqimizning buyuk tarixiy o'tmishini imkon qadar haqqoniy tasvirlashga erishganligi bugungi ijodkor yoshlarimiz uchun ham ibratlidir. Erksizligimiz shu darajada ediki, O'zbekistonday ona yurtimizda O'zbek tilimiz Davlat tili darajasida huquq va imkoniyatga ega emas edi.

Adabiy asar ijodkor shaxsi va talantining badiiy-intellektual mahsuli, ong-tafakkuri va ijodiy mushohadasi natijasi bo'lib tug'ilishi hayotiy va ilmiy haqiqatdir. Buyuk adiblar kabi Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarning yetuk asarlarining ijodiy tarixi ham ushbu obyektiv qonuniyatning badiiy ifodasi o'laroq, jiddiy e'tiborga va tahlilga munosib ijod sanaladi. Shu munosabat bilan nafaqat Erkin Vohidovlar hayoti va ijodi uchun, balki adabiyotimiz va tariximiz uchun ham muhim bo'lgan bir haqiqatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Taassuf bilan aytish lozimki, XX asrda yashab ijod etgan barcha adiblarning butun ijodi va asarlarini

⁸¹ [“Demang, shoir tinib ketdi”. O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov she'rlaridan namunalar — Uzbekistan News | DARYO.UZ](#)

yoppasiga “Oktyabr samarasi”,⁸² deb talqin etish, barcha asarlarini Oktyabr inqilobiga bog‘lab qo‘yish ham tarixiy haqiqatga, ilmiy va hayotiy mantiqqa mutlaqo muvofiq kelmas edi. Xususan, Erkin Vohidov ijodi va adabiy-publitsistik asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijodiy tarixi va hayotiy ildiz-manbalarini davr va adabiy jarayon kontekstida Istiqlol mafkurasi va tanqid-adabiyotshunoslikning yetakchi tamoyillari va badiiylikning yuksak mezonlari asosida o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molik dolzarb muammolardan sanaladi.

Shoir shaxsi va ijodini o‘rganishda biografik metod ham muhim o‘rin tutadi. Adabiy asar-ijodkor shaxsi va talantining badiiy-intellektual mahsuli, ong-tafakkuri, ijodiy mushohadasi natijasi bo‘lib maydonga kelishi hayotiy va ilmiy haqiqatdir. “Shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidadir. Binobarin, shoir ruhi va uning asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak”.⁸³ Bu muhim nazariy fikrni atoqli adib Asqad Muxtorning⁸⁴ umri oxirida yozgan “Tundaliklar”idagi teran kuzatishlari bilan to‘ldirish mumkin. Chunonchi, u adib shaxsi va ijodi ajralmas bir butun ma’naviy-ruhiy olam ekanligini shunday ta’kidlaydi:” Tanqidchi va adabiyotshunoslar asosan asar haqida gapiradilar. Vaholanki, asar yozuvchidan unib chiqadi; farzandiday unda tug‘iladi, ulg‘ayadi, kamol topadi; u farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar – yozuvchi taqdiri; kerak bo‘lganda, yozuvchi qurbon bo‘lishga ham tayyor...”⁸⁵ Bu jihatdan Erkin Vohidovning Zulfiya ijodi va shaxsining yaxlitligi haqidagi fikrlari adabiyotshunosligimizdagi haqiqat nuqtalaridan sanaladi:” “Zulfiyani shoir qilgan, – deydi Erkin Vohidov, – o‘z dardli qismati va dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Uning mehr va sog‘inch bilan to‘lgan satrlari judolik dardida o‘rtangan necha ming yuraklarga malham bo‘lganini, necha ming ko‘ngil daftariga ko‘chirilganini xayol qilmoq kerak”⁸⁶. Bu so‘zlarda yorqin iste’dod, ulkan insoniy qalb va dard, ijodiy jasorat va

⁸² Каримов Н. Ўзбек совет адабиёти. –Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. –Б. 51.

⁸³ Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1976. – Б. 73.

⁸⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/asqad-muxtor-tundaliklar-ikkinchi-daftar.html>

⁸⁵ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/shuhrat-rizayev-asqad-muxtor.html>

⁸⁶ [Moziyga qaytib: Erkin Vohidov Zulfiyaning hayot qo‘shig‘i haqida yozgan edi... \(uza.uz\)](#)

yuksak poetik mahorat mujassami bo'lgan Zulfiya she'riyati va shaxsining yaxlit, ajib bir olam ekanligi haqqoniy "kashf" qilingan. Ijodkor shaxsiga xos xislatlarni o'rganish ijod namunalarini anglash va tahlil etishning samarali bir yo'li ekanligi ham ayon.

Adabiyotshunoslikda badiiy ijod namunalarini o'rganish va izohlashda biografik unsurlardan foydalanish borasida qator ishlar qilingan va muayyan tajriba to'plangan. Navoiy va Bobur kabi buyuk daholarimiz hayoti va ijodini o'rganishda ham ilmiy, tarixiy-qiyosiy metodlar bilan birga, ham biografik metod unsurlari va usul-shakllaridan keng foydalanilgan. Ya'ni Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlar yoxud "Lison ut -tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlarini yaratish jarayoni va sabab-omillarini yoritishda ulug' shoirimizning o'z izoh-e'tiroflari muhim, ishonchli ilmiy-tarixiy manbalar sanaladi.⁸⁷ Bunday xulosani "Boburnoma" va undagi biografik xarakter va mazmundagi ko'plab she'rlar tarixiga nisbatan ham aytish xato bo'lmaydi. Erkin Vohidov fikr-talqinlari ham tahlilning yetuk namunalari sanaladi.

Istiqlolga erishganimizdan so'nggina mash'um siyosat zo'ravonligidan va soxta hukmron sotsialistik mafkuraning zug'umlaridan qutuldik. Mustaqillikning ilk kunlaridan ma'naviyat va adabiyot sohasida katta o'zgarish, yangilanish bo'lmoqda. Boy madaniy merosimizga, adabiyot tarixiga munosabat keskin o'zgardi. Shayxzoda, Mirtemir, S.Ahmad, Shuhrat, Shukrullo, Mirzakalon Ismoiliiy va Turob To'la kabi adiblarimizning partiya va mafkuraviy siyosati oqibatida nohaq jabr ko'rganliklari ma'lum bo'ldi. Totalitar tuzum davrida, xususan, 1925-1932 va 1946-1948-yillardagi partiyaning adabiyot va san'at sohasidagi siyosiy-mafkuraviy qarorlarining mudhish oqibatlari oshkor bo'ldi. Bu mash'um qarorlarning adabiyotimiz va san'atimizning qadimiy va tarixiy ildizlariga bolta urganligini bir-ikki fakt misolida tasavvur etish mumkin. Chunonchi, "Alpomish"day xalq og'zaki ijodining ko'rkam namunasi, "Farhod va Shirin"dek qahramonlik dostonlari, Oybekning "Navoiy" romani, Shayxzodaning "Jaloliddin"

⁸⁷ Йўлдош Қ., Хусанбоева Қ., Йўлдошева М. Кийик сўқмоғидаги йўловчи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 192.

dramasi va xalqimizning sevimli asariga aylangan “Tohir va Zuhra” filmlari kabi shoh asarlarimiz o‘tmishni ideallashtirgan asarlar deb, butunlay qoralandi va sahnalardan olib tashlandi. Eng dahshatlisi, ushbu asarlarning mualliflari – Shayxzoda, kinorejissyor Nabi G‘aniyev kabi ulug‘ ijodkorlarimiz uzoq muddatga qamalib, surgun qilindi. Mustabid sovet tuzumining navbatdagi bu qatag‘onidan keyin ko‘p yillar davomida shoir va yozuvchilarimiz tarixiy o‘tmishimiz haqida asar yozishga yuragi betlamay qoldi. Biz kabi yoshlar XX asr adabiyoti tarixi, adabiy-estetik tafakkur tadriji muammolarini o‘rganishda o‘tmishdagi ana shu murakkabliklarga to‘g‘ri yondoshib, ularga xolisona baho berishimiz lozim bo‘ladi. Bu jihatdan Erkin Vohidovning publitsistik hamda adabiy-tanqidiy asarlari adabiyot tarixini o‘rganishda va badiiy-estetik tafakkur rivojida muhim o‘rin tutishini alohida e‘tirof etish zarur. Chunki Erkin Vohidov kabi yirik shoirlar ijodi va publitsistik adabiy-tanqidiy asarlari o‘zining haqqoniyligi va ilmiy ahamiyati bilan, hech shubhasiz, adabiy tanqid hamda badiiy ijod va ma’naviyat rivojining ham muhim omili sanaladi.

Boshqa ko‘plab adiblarning asarlari va publitsistik maqolalari bilan Erkin Vohidovning publitsistik asarlari taqqoslansa, Erkin Vohidov asarlarida ilmiy yondashuv va tahlil-xulosalar ustuvorligi bilan ajralib turishini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, “So‘z latofati”, “Iztirob” asarlari yoxud “Tarix. Tashrif. Taqdir” kabi maqolalarida Erkin Vohidov nafaqat bir adib sifatida, balki mavzu-muammolarni mutaxassis olimlar darajasida chuqur o‘rganganligi, fakt va voqealarni yoritishda ham ilmiy-mantiqiy tafakkur-mushohada va xulosalarida izchillik ustuvor fazilat ekanligiga amin bo‘lamiz.

Masalan, bugungi yoshlarimiz bilimi va ma’naviyati haqida jiddiy bir tashvish bilan mulohaza yuritganligini buyuk Navoiy g‘oyalari bilan hamohangligi va Qodiriy, Qahhorlar va Ozod Sharafiddinovlarning fikrlari bilan mushatarakligi ham e‘tiborga loyiq. Zero, ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy kelajak avlodning har jihatdan barkamol bo‘lishini orzu qilib, o‘z qahramoni Farhodning o‘n yoshda egallagan ilmu fazlini shunday ta’riflaganidan ham ibrat olishimiz kerak:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,

Bilib kasbini tahqiq etmagan ilm.

Yoxud Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida bosh qahramonlari tavsifida ham adibning yuksak g‘oyaviy-badiiy orzu-niyati mujassam edi: “O‘n to‘rt yoshli Ra‘no diniy kitoblar, Navoiyning barcha asarlari, “Devoni Fuzuliy”, “Layli va Majnun” va o‘zbek katta shoirlarining asarlari; forsiydan Hofiz Sheroziy va Bedil; husnixat, insho va boshqalar, qofiya (arab nahv va sarfi) Sa‘diyning “Guliston”idan, shoirlarning asarlaridan alohida majmua tuzib, manzumalar to‘qishi” aytilgan. (396-b) Qodiriyning badiiy-estetik tafakkuri hamda gumanistik dunyoqarashi samarasi bo‘lgan bu ezgu maqsad va g‘oyalar o‘z davrida ham, bugun ham ustuvor ahamiyatga ega. Bunga Erkin Vohidovning quyidagi teran fikrlari ham bir dalil: “Yoshlarimizning bilimlari juda bir tomonlama. Uzoqqa bormay, dunyoviy fanlarning otasi falsafani olaylik. Falsafa deganda, faqat marksizm-leninizmni tushunamiz, chunki faqat shuni o‘rgatishadi. Tarix ilmimiz ham ana shunday ayanchli ahvolda. “Qur‘on”, ”Tavrot”, “Injil”ni bilamizmi? Ularni hatto mana men degan olimlarimiz ham ochib qarashmagan. Har qanday dahriy ham ota-bobolarimizning dunyoqarashi, falsafasi, orzu-armonlari o‘z ifodasini topgan bu qadimiy kitoblarni chuqur o‘rganmog‘i kerak”⁸⁸. Ushbu qiyos orqali ham Erkin Vohidovning yoshlar kelajagiga ham davr-zamon talablari va ilmiy asosda yondashganligi, Qodiriy, Qahhorlar va ulug‘ jadidlar kabi hamisha millatimiz kelajagi yo‘lida qayg‘urgani va yuksak maslak-e‘tiqodida sobit turganligiga amin bo‘lamiz.

Adabiyot va san‘at taraqqiyoti hamisha tarixiy sharoit va jamiyatdagi muhitga chambarchas bog‘liqdir. Ana shu tarixiy haqiqatdan kelib chiqib, sobiq sho‘ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, bir qator savollar tug‘iladi. Chunki Qodiriy va Cho‘lpon, Oybek va A.Qahhor, H.Olimjon va Mirtemirlar avlodi mafkuraviy tazyiqlar ostida ijod qilishga majbur bo‘lishgan. Erkin Vohidov G‘afur G‘ulom haqidagi maqolalari va nurli xotiralarida shu davr bilan bog‘liq o‘kinch-armonini ham bildiradi: “G‘afur G‘ulom shunchalik katta iste‘dod egasi

⁸⁸ [Erkin Vohidov: “Insonni pul, mol-dunyo emas, noto‘g‘ri tarbiya, haqsizlik buzadi” \(1989\) \(ziyouz.com\)](http://ziyouz.com)

ediki, ko‘nglidagi gaplarning hammasini qog‘ozga tushirmay ketgan shoirlardan”⁸⁹.

Chunki G‘afur G‘ulom mansub bo‘lgan to‘ng‘ich avlod namoyandalari mustabid tuzumda hukmron mafkuraviy siyosat avj olgan bo‘g‘iq muhitda ijod qilishga mahkum edilar. Afsuski, ulardan ancha yillardan so‘ng adabiyot maydoniga yorug‘ orzu-umidlar bilan kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Tog‘ay Murod va Muhammad Yusufklar avlodi ham mafkura tazyiqlaridan emin-erkin bo‘lmaganliklarini unutmaslik lozim.

Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning Cho‘lpon ijodini o‘rganish borasidagi fikrlari juda asosli: “Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho‘lpon ijodidagi hukmron mafkura g‘oyalariga yon berilgan o‘rinlarni ko‘rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil’aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho‘lponga emas, balki Oybek, G.Gulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o‘rinli-o‘rinsiz ta’na-dashnomlarga ro‘para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli”⁹⁰.

Darhaqiqat, 50-60-yillar adabiyot maydoniga yangi ovozi, yorqin iste’dodi bilan kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov va ularga izdosh adiblar ijodini o‘rganishda ham ana shunday obyektiv-subyektiv shart-sharoitlarni e’tibordan soqit qilmaslik zarur.

Erkin Vohidov ijodi ham o‘z davr-muhitining ijtimoiy-siyosiy muammolari ta’siridan, xususan, hukmron mafkura iskanjasidagi tanqidchilikning talablari va xurujlaridan butunlay xolis bo‘lishi mumkin emas edi. Zero, Abdulla Oripov yoxud Erkin Vohidov ham hayot haqiqatiga qanchalik sodiq bo‘lmasin, makkor tuzum va mafkura ularni ham chekinishga majbur qilgani achchiq haqiqat. Bu davr muhiti haqida fikr yuritganda, og‘riqli savollar tug‘iladi: Qodiriy va Cho‘lponlar ham Oktyabr inqilobi va Leninni ulug‘lab, maqtov so‘zlar aytgani uchun ularni

⁸⁹ Воҳидов Э. Шоиру шеър шуур. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 68.

⁹⁰ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004. – Б. 64.

madhiyabozlikda ayblash to‘g‘ri bo‘ladimi? Yoki Abdulla Oripov partiyani “Najot qal’asi”⁹¹ deb ulug‘lagani, she’rlaridan Cho‘lponni nomini o‘chirishga majbur bo‘lgani makkor tuzum siyosati bilan izohlanishini tushuna olamizmi? Yoki yaqinda namoyish etilgan “Abdulla Oripov” filmida ko‘rsatilganidek, partiya darg‘alari qadimiy Navro‘z nomini o‘zgartirib, o‘chirishni talab qilganlarida ularga yon bosishga majbur bo‘lganligini bugungi yoshlar bilarmikin?

Xuddi shundayin, Erkin Vohidov ham Lenin, kommunist va komsomollarni asosiy qahramon qilib, ularni ulug‘lagan asarlar yozgani uchun shoirni mafkuraning qurboni yo dastyori bo‘lgan deb ayblash adolatdan bo‘lmasa kerak.

Bu fikrlar qanchalik haqqoniy ekanligini va 30-yillardagi qatag‘on dahshatlarini aniqroq tasavvur etishimiz uchun quyidagi mash‘um faktlarni bir esga olishning o‘zi yetarli bo‘ladi. Mustaqillikdan so‘ng shu vaqtgacha maxfiy saqlanib kelingan temir sandiqlar ochilib, xalqimiz va ziyolilarimiz boshiga tushgan fojealar endi oshkor qilinmoqda. Chunonchi, 1937-yil, 8-yanvarda yosh fan doktori Sattor Jabbor, 24-aprel kuni Fitrat hibsga olingan. 1937-yil 22-sentabr kuni Fitratning xotini Hikmatoy Fitratovani ham hibsga olishadi. Holbuki, ular 1936-yil 29-sentabrda rasman ajrashgan bo‘lgan. 1937-yil 3-iyulda G‘ozi Olim Yunusov, 1937-yil 17-iyul kuni Cho‘lpon qamoqqa olinadi. Oradan 2 oy o‘tib, 1937-yil 22-sentabrda uning ayoli Katya (Yekaterina Ivanovna Tokareva) ham hibsga olinadi. Qodiriy 1937-yil 31-dekabrda uyidan qamoqqa olingan. Otajon Hoshim, Usmon Nosir kabi ko‘plab ziyolilar orqama-ketin antisovet g‘oyalarini targ‘ib etgan va revolyutsiyaga qarshi bo‘lgan degan siyosiy ayb va tuhmatlar bilan qamalgan. Chet elda o‘qib kelgan iqtidorli yosh yigit va qizlar ham deyarli barchasi “ayg‘oqchi, razvedkachi, agent va josus” kabi turli tuhmat-ayblovlar bilan hibsga olingani ham endilikda butun fojealari bilan ayon bo‘lmoqda. Bu borada Mustaqilligimizdan keyin tashkil etilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining professori Baxtiyor Hasanov, dotsent Bahrom Irzayev singari yetuk olimlarning izlanish va tadqiqotlari g‘oyat samarali bo‘layotgani va ular tariximiz

⁹¹ Абдулла Орипов. Нажот қалъаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1980. – Б. 280.

va adabiyotimizning qora sahifalarini haqiqat nurlari bilan yoritayotganligini xalqimiz minnatdorlik bilan e'tirof etmoqda. Erkin Vohidov kabi haqgo'y shoirlarimizning asarlari ham bu xayrli ishlarda munosib o'rin tutishi, shubhasizdir.

XX asr adabiyotini Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek va Abdulla Qahhor kabi mumtoz adiblarsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, zamonaviy adabiyotimizni, ma'naviyatimiz va buyuk istiqbolimizni ham Erkin Vohidov kabi ulkan ijodkorlarsiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Zero, uning mumtoz asarlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Adabiy muhit, adabiy ta'sir adabiyot va san'at rivojining muhim bir omili va bu jarayon, eng avvalo, ijodiy xarakterda bo'lishi bilan ajralib turadi. Ijodda an'anaviylik, vorisiylik va novatorlikning asosiy mohiyati ham shunda. Istiqoldan so'ng 2012-yili yaratilgan "O'zbek adabiy tanqid tarixi" darsligida adabiyotimiz rivojiga katta to'siq bo'lgan sinfiylik va partiyaviylik deb atalmish mafkuraviy kishanlar badiiy ijod va san'atning ham boshiga tushgan balo bo'lgani ham to'g'ri ko'rsatib o'tilgan.⁹²

Erkin Vohidovning badiiy publitsistikasida so'z qadri, badiiy ijod jarayoni hamda ijodkor laboratoriyasiga e'tibor nechog'lik aks etgan bo'lsa, shu bilan birga ko'plab maqola va xotiralarida ijod manbai xalq hayoti va unga hamdardlik tuyg'usi ham yoritilgan. Bu hayotiy haqiqat chinakam shoirlar uchun hamisha ijodning muqaddas bir mezon va qonuniyati bo'lgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Fikrimizning isboti uchun buyuk Navoiyning xalqqa bo'lgan cheksiz sadoqat va fidoyiligini ifodalovchi quyidagi mashhur satrlarini keltiramiz:

Menga qilsa yuz jafo, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Ya'ni haqiqiy shoir-yozuvchilar o'zlariga nisbatan bo'lgan nohaqlik-adolatsizliklarga chidaydilar, ammo xalqiga nisbatan qilingan nohaqlik va adolatsizlikdan yuz karra ruhiy azob tortadi va iztirob chekadilar. Erkin

⁹² Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент: Фан, 2012.

Vohidov, buyuk ustoz Navoiy orzu qilganiday, xalqparvar, vijdon va imoni butun fidoiy ijodkorlarimizdan biri sifatida faoliyat ko'rsatganligi bilan ham mashhurdir.

“Qulluq qil, demasman,
Yurt tuprog'in o'p,
Unga qullar emas,
Fidolar kerak,
Uning senu mendek shoirlari ko'p,
Buyuk elga endi daholar kerak...”⁹³

Bir umr o'zining yuksak e'tiqodida sobit turgan shoirning Mustaqillik arafasida bitgan “Vatan istagi” she'rida ham yana xalqimizning asriy orzu-a'molarini va ona yurtimizning istiqbolini o'zining bedor qalbidagi jo'shqin his-tuyg'ulari bilan hamohang tarzda yorqin aks ettiradiki, natijada shoir kashf etgan haqiqatlar xalqning orzu-armonlarga to'la ko'nglidagi ezgu haqiqat-so'zlariday chuqur hayotiylik kasb etadi:

“Bu vatanda bir Vatan
Qurmoqni istaydir ko'ngil,
O'zni ozod qush kabi
Ko'rmoqni istaydir ko'ngil...
Qutlug' istiqlol kunida
Ey Vatan, bag'ringda shod,
Erkin o'g'loning bo'lib
Yurmoqni istaydir ko'ngil”⁹⁴.

Bu misralar bitilgan vaqt O'zbekiston mustamlaka davlat edi. Muallif o'z Vatanini, xalqini hur va ozod ko'rishni istadi. Shoir qo'rqmadi, dilidagi so'zlarni tiliga dadil chiqardi. Ko'ngil daryosidan oqayotgan suvni loyqalatishni, uni yolg'onlar bilan bulg'atishni istamadi. Bir so'z bilan aytganda, ko'ngliga qarshi borishni istamadi. Erkin Vohidovning so'nggi yillar ijodiy izlanishlari shoir she'riyatining mavzu yo'nalishlari kengayib, uslubiy jihatdan takomillashib borganligini ko'rsatadi. Bu jihatlar, o'z navbatida, muallif ijodining mavzu va

⁹³ <https://daryo.uz/2016/05/31/demang-shoir-tinib-ketdi-ozbekiston-qahramoni-erkin-vohidov-she'rlaridan-namunalar>

⁹⁴ <https://kun.uz/11552950?q=%2Fuz%2F11552950>

janriy mundarijasi ham tobora kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Shoir qarashlariga ko‘ra ijodkorlar har doim o‘z iste’dodi va ijodiy kredosini, maqsadini, ezigulik, insoniy ehtiyojlar hamda oliyjanoblikka safarbar etmoqlari lozim.

Zotan, ulug‘ shoirlar ijodini mukammal bilgan navoiyshunoslarga xuddi shunday teran tahlil bera olishlari mumkin. Lekin Erkin Vohidov navoiyshunos mutaxassis olim bo‘lmasada, ushbu fikr va mulohazalari orqali Navoiy dahosiga nechog‘lik yaqin ekanligini anglash mushkul emas. Erkin Vohidovning Navoiy va Bobur kabi ulug‘larimizning g‘azallari sharhiga bag‘ishlangan adabiy-tanqidiy maqolalari jamlansa, nafaqat adabiyotshunoslarga, balki o‘quvchi-talabalar, o‘qituvchilarga ham o‘ziga xos mahorat hamda tahlil saboqlari bo‘la oladi.

Erkin Vohidov asarlarida ijod jarayoni, ijodkor mehnati va ilhomi kabi muammolarga ham keng o‘rin berilgan. Chunonchi, Abdulla Qahhor va Erkin Vohidovning ibratimiz e’tirofi badiiy ijod jarayonining takrorlanmas sehirli onlari ijodkorning qalbi, ong-shuurida yuz beradigan va o‘y-fikrlarini junbushga keltiradigan murakkab pinhoni tuyg‘u-kechinma va holatlarni tasavvur qilishimizda tiniq bir ko‘zgu bo‘la oladi. Adiblar ta’kidlashicha, ijodning boshi – ijodkorning muvozanatdan chiqishi, konkret asar esa shuning ifodasidir.

“Ilhom kelsa, obrazlar yetilsa, ijodkor uchun ish vaqti, ish soati yo‘q. Asar ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi. Ko‘p adiblar xarakterlar yetilgandan keyin yozishga kirishganidan guvohlik berishadi.”⁹⁵

San’at asarining yaratilishidagi bunday chuqur va samarali psixologik jarayon mashhur shoirimiz Erkin Vohidov tomonidan ham o‘ziga xos teranlik bilan qayd etilgan: “Shoir ilhom daqiqalaridagina haqiqiy shoir bo‘ladi. Ilhom tuyg‘ularining shoir qalbidan toshishi, shoir xayolida tug‘ilgan badiiy niyatning yetilishi va vujudni larzaga solishidir.”⁹⁶ Ijod jarayonidagi sirli va o‘ta hayajonli murakkab ruhiy holatlarni ifodalovchi bu nozik fikr va mushohadalarni alloma G‘afur G‘ulomning ijod lahzalarini yorituvchi teran bir kuzatishi bilan yanada

⁹⁵ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 6-т. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – Б. 474-475.

⁹⁶ Вохидов Э. Ёлқинлар. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 192.

chuqurlashtiradi. Gʻafur Gʻulom shohsatrlarini, jumladan, “Zoʻr karvon yoʻlida yetim boʻtadek, Intizor koʻzlarda xalqa-xalqa yosh...” kabi rumiyona va bedilona misralarni bitayotganda “oʻzini tamom unutib, butun tafakkuri, qalbi va vujudi simobdek eriganday holatga tushganligini xayolan tasavvur qilish mumkin. Chinakam ijodning yulduz onlari sanalmish bunday baxtli lahza va holatlar jahon adabiyotining koʻplab buyuk siymolari, jumladan, Qodiriy, Qahhor yoxud Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi mashhur adiblar hayotida ham koʻp martalab yuz berganligiga adiblarning yaqinlari ham guvoh boʻlganliklari tadqiqotchilar tomonidan muayyan darajada oʻrganilgan. Masalan, badiiy ijod jarayonining bunday takrorlanmas nurli bu holatini Erkin Vohidovlarga ham ardoqli ustoz boʻlgan atoqli adibimiz Abdulla Qahhor shunday tavsiflagan edi: “His, ichki dard kishining qalbini toshirib yuboradi. Oʻzining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini boʻshatish kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qoʻl qalamga boradi. Kishining koʻziga hech narsa koʻrinmaydi. Yozish uchun hech narsa xalal bermaydi. Fikr toʻkila boradi. Yozib ulgurib boʻlmaydi. Kishidagi mana shunday holatni, odatda, ilhom deyishadi.”⁹⁷

Bu soʻzlarda yozuvchi ijodiy laboratoriyasining eng hayajonli va masʼuliyatli bir bosqichi – “yulduz onlari” aks etayotganini unutmagan holda, asosiy diqqat – eʼtiborimizni “Fikr toʻkila boradi. Yozib ulgurib boʻlmaydi”, degan jumalarga qarataylik. Modomiki, yozuvchi ilhom va qalbi toʻla his-hayajon bilan yozar ekan, ayrim fikr va jumlar gʻaliz boʻlishi, tasvirda baʼzan ortiqcha soʻz-takrorlar boʻlishi tabiiy. Bunday holat koʻplab yirik yozuvchilarning ijod jarayoni uchun xarakterlidir. Eng talantli adib, ilhom va ehtiros bilan yozilgan asar tilini ham qayta-qayta koʻzdan kechirishi, sayqal berishi zaruriy shart ekanligi oʻz-oʻzidan ayon boʻladi. Ulugʻ ustozlar kabi qalamni va ijodni muqaddas bilgan va oʻzi ham ulugʻ ustoz boʻlib tanilgan Erkin Vohidovning birgina “Kamtarlik” sheʼrining bir necha variantlari va ular ustida shoirning zargarona mehnati va mohirona sayqal berishi bu haqiqatning yorqin dalili va mumtoz bir namunasi boʻla oladi. Badiiy adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi va uning mashaqqati,

⁹⁷Қосимов У., Синдоров Л., Низомова М. Адабиётимиз саҳифалари. – Тошкент: Молия-иктисод, 2017. – Б. 61.

farahbaxsh onlari ham yozuvchi mehnatining mana shu bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi. Buyuk adiblarning mushtarak fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin. Ya'ni chinakam san'at asari – u lirik asarmi yoki prozaikmi, barchasi ijodkorning ilhom onlarida yuzaga keladi. Asar qahramonlarining yorqin bo'lib chiqishi ham san'atkorning sehrli ilhomi bilan yaratiladi va bunday obraz va xarakterlar jonli va to'laqonli hamda ishonarli bo'lib chiqadi.

Hassos tanqidchi va tarjimon I.G'afurov ta'kidlaganidek, "Erkin Vohidov o'zini she'rga bag'ishlagan va hech qachon she'riyatga xiyonat qilgan emas. U totalitar muhitning zamonasozligiga qat'iyat bilan qarshi tura oldi. U qalbining amri bilan ijod qildi,"⁹⁸

Shoir ijodida, xususan, betakror hajviy she'riyatida yorqin namoyon bo'lgan va millionlab muxlislarning olqish-e'tiboriga sazovor bo'lgan xalqchil, tagdor hajv va o'ziga xos yumoristik tasvir katta o'ringa ega ekanligi ko'plab taniqli adib va munaqqidlar tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilgan. Masalan, shoir shaxsi va ijodini yaqindan bilgan yetuk hajvchi shoir Anvar Obidjon bu haqda shunday muhim fikrlarni aytgan: "Adabiyot olamida hajviy roman yoki qissada yangicha qiyofa yaratgan ijodkorlar – behisob, ammo she'riyatda bunday hollar sanoqli. Erkin Vohidov qalamiga mansub hajviy she'rlar o'ta tortuvchanligi bilan ajralib turadi. Shoirning ijodi bilan kengroq tanish bo'lgan kishi buning siri nimada ekanligini payqab olishi qiyin emas. Ko'p munaqqidlar Erkin Vohidov benazir so'z zargari ekanligini qayta-qayta e'tirof etishgan. Hajviy asarlarida ham shu fusunkorlikka duch kelamiz, rohatlanib o'qiymiz, yodda tez saqlab qolamiz. Said Ahmad domla bilan bir suhbatimizda u kishi: "Erkin Vohidov juda ulkan hajvchi, lekin uning hajvlari el orasida juda mashhur bo'lib turgan jiddiy she'rlarining soyasida qolib ketayabti,"- degan edi."⁹⁹ Erkin Vohidovning xalq hayoti, ruhiyati va azaliy urf-odati tasviriga bag'ishlangan "Oltin devor" komediyasining yaratilishi ham tasodifiy bo'lmasdan, balki uning noyob iste'dodi va chuqur hajviy tafakkuri bilan bog'liqdir.

⁹⁸ Иброҳим Ғафуров. Мангу латофат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 83.

⁹⁹ То қуёш сочгайки нур. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – Б. 21.

Haqiqatan ham, Erkin Vohidov o‘z ustozlarining badiiy ijod borasidagi “oltinga teng” maslahatlarini qayd qilish asnosida, bugungi ayrim shoshqaloq iqtidor egalariga ham og‘ir-vazminlik bilan ijod qilish lozimligini ta’kidlaydi.

Shoir she’riyatidagi poetik tasvir vositalari, xususan, she’riy nutq qurilishidagi so‘z tanlash va ularning badiiy matnda mohirona ishlatilishi nafaqat adabiyotshunoslarni, balki keng kitobxonlar ommasini ham bahs-munozaraga chorlaydi. Shoirning so‘nggi asari bo‘lgan “So‘z latofati” buyuk Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridan ta’sirlanib va ilhomlanib yozilganligi ham barhayot ijodiy an’analarining yangicha bir namunasidir.

Hozirgi davrda ta’lim oluvchilarning rus yo ingliz tillarini o‘rganishiga meyordan ortiqcha talab qo‘yilayotgandek, nazarimizda. Natijada ularning ruscha-inglizcha fikrlashi ularni ona tilimizdan va o‘zbekona qadriyatlarimizdan uzoqlatishi mumkinligini jiddiy o‘ylamayapmiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning muhim – “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi hamda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilinishi mamlakatimizda davlat tilining to‘laqonli joriy etilishini ta’minlashga qaratilgan yana bir jiddiy qadamdir. Xulosa shuki, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlı bo‘lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda biz “Yangi O‘zbekistonni” yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”.¹⁰⁰ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Avvalo, xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda

¹⁰⁰ Ш.Мирзиёевнинг 2020-йил 21-октабрдаги байрам табригидан

tutilgan”¹⁰¹. O‘zligimizni anglashda, milliy g‘oya va tafakkurimiz yuksalishida mumtoz adabiyotimizning ming yillik tarixiy tajribasi va badiiyatining yuksak cho‘qqisi (B.Qosimov) bo‘lgan Navoiy ijodi va estetik ta’limotining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Yozuvchining vazifasi – yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo‘lish bilan birga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo‘riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo‘lish. Bu – munaqqid faoliyatining muhim asosi edi deyish mumkin. Erkin Vohidov ta’kidlaganidek, bugungi tanqidchilikda badiiy asarni so‘zma-so‘z, jumlama-jumla tahlil qilish, shoir yoki yozuvchining zargarlik xislatini o‘rganish va nazorat qilish yetshmayapti. Adabiy jarayon hamda komediyanavislikdagi bu muammo adabiyotning badiiy-estetik saviyasini ham pasaytirishi to‘g‘ri ko‘rsatilyapti.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovning “Shoiru she’ru shuur” deb nomlangan asari yuqorida zikr etilayotgan masalalar nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor. “Adabiyotga qadam qo‘ygan har bir insonda ichki zavq, hayajon kuchli bo‘ladi va o‘z yozganlari ko‘ziga chiroyli va bebaho ko‘rinadi. Tajribali shoirlar odatda qog‘ozga yangi tushgan she’rni darhol elga taqdim etmay, javonda saqlaydi. Havaskor shoir esa tezroq o‘z ijod namunasini xaloyiqqa ko‘rsatgisi keladi. Bu holatni hammamiz boshdan o‘tkazganmiz va uni ayb sanash kerak emas. Lekin uzoq vaqt, ba’zan umr bo‘yi shu holatda qolish, o‘ziga mahliyo bo‘lib, boshqa shoirlarni o‘qimaslik, o‘z ijodini ravshan aql bilan tahlil qilmaslik, satrlar ustida uyqusiz kechalarni o‘tkazib o‘z qobiliyatini mehnat bilan kamolga yetkazmaslik aybgina emas, ulkan gunohdir”¹⁰², deb yozadi Erkin Vohidov.

Darhaqiqat, o‘ziga xos, betakror adabiy-estetik tamoyillariga, badiiy ijod olamiga ega bo‘lgan adib beqiyos obrazlar hamda adabiy-nazariy qarashlari bilan alohida e’tiborga sazovor. Aksariyat vaziyatlarda bunday noyob iqtidor egalari o‘tmishdan turib bizni, bugungi kunimizni, kelajak istiqbolimizni

¹⁰¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги нутқи. Халқ сўзи. – Тошкент: 2017 йил 4 август.

¹⁰² Вохидов Э. Шоир у ше’ру шуур. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018 йил – Б. 198-199.

kuzatayotgandek, nazarimizda. Har bir tarixiy davrda nodir iste'dod sohiblarining birdek bisyor bo'lishi juda oz uchraydigan jarayon sanaladi. Shu bois badiiy ijod borasida haqiqiy iste'dod egalari kamyob bo'ladi. Chunonchi, "Men shu kunlarda kamroq yozyapman. Shunday bir davrlar bo'ladiki, unda yurak kosasiga tomchilar yig'iladi. Kishi istasa-istamasa hayotda yurib fikr yig'adi, tuyg'u yig'adi... va shoir qayoqqa borardi?! Bu tuyg'ular bir kunmas - bir kun qog'ozga to'kiladi."¹⁰³ Aristotel "Poetika"sida va undan keyingi davrlardan beri she'riyat, adabiyot iste'dodli yoki majnunsifat kimsalarning qismatidir, degan qadim-qadim zamonlardan qolgan bir haqiqat ham borki, Erkin Vohidovning badiiy ijoddagi iste'dod, uning tug'ma bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlari o'sha qadimgi va o'lmas haqiqatlarga mushtarak va mutanosib ekanligiga guvoh bo'lamiz. Adib e'tirof etganidek: "Barcha iste'dodlar kabi shoirlik iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikdan o'zini namoyon etadi. Erkin Vohidovning badiiy ijod jarayoniga, ijodkorga, o'z izlanishlariga bo'lgan talablari ana shu ijtimoiy zaruratdan, ruhiy-ma'naviy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Tug'ma iste'dod egasi bo'lmagan, she'riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo'yi havaskor bo'lib qoladilar".¹⁰⁴

Bunday "ijodkorlar" Abdulla Qahhor iborasi bilan aytganda, umr bo'yi tutab ijod qiladilar, alanga olmaydilar. Badiiy ijod va adabiyot olami nihoyatda go'zal, jozibali va betimsol dargohlardan sanaladi. Mazkur muhtasham maskanga shunchaki havaskorligi bois kelganlarning ketishlari dargumondir. Ushbu mo'tabar dargohdan havaskorlarni hech kimning haydab chiqishga haqqi yo'q, deb o'ylaymiz. Bunday adolatsiz imtiyoz hech bir adabiyotshunos yoki kitobxonga berilmagan bo'lsa kerak. Lekin har bir iste'dodli ijodkorning asarlarini tarixiy davr hamda zamonlar o'tishi ularning qanchalik badiiy jihatdan abadiyatga dahldorligini ko'rsatib beradi. Yillar o'tsa-da, ijod maydoniga adashib kelib qolganlar, butun ijodi davomida "havaskor" bo'lib qolaverganligiga adabiy jarayonlarni kuzatganimizda guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunki iste'dodsiz ijodkorlar har

¹⁰³ Воҳидов Э. Шоиру шеър ушуур. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018 йил – Б. 241.

¹⁰⁴ Воҳидов Э. "Санъат ва тафаккур" мақоласи. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 121

qanday millat adabiyotida ham taqliddan nariga o'ta olmaganligini, haqiqiy iqtidorlardan "bir necha chaqirim yiroq"larda bo'lganliklarini ta'kidlash lozim. Zero, bundayin "havaskor" ijodkorlar olamida haqiqiy iqtidor egalarining erkin ijod qilishlari har doim ham oson kechmaganligini adabiyotimiz tarixidan juda ko'plab misollar bilan tasdiq qilishimiz mumkin.

Darhaqiqat, haqiqiy, tug'ma iste'dod egasini tarbiya qilish ijod olamiga ham nihoyatda muhim. "Ijodkor nafas oladigan havo – adabiy muhitdir. Bu havo toza, musaffo bo'lmog'i kerak". (E.Vohidov). To'g'ri aytilganidek, iste'dodning o'sib-unishi uchun musaffo havo, quyoshday mehribon ustozlarning ko'ngil harorati va oq yo'l tilagi kerak bo'ladi.

Shoir zoti borki, avvalo, o'zini, ko'nglidagini yozadi. Ijod ahli o'zi ishongan his-tuyg'ularni yozsa, boshqalar ham ishonadi. Har qanday badiiy asar zamirida, garchand ijodkorning yozganlari ijtimoiylashgandek taassurot qoldirsa ham, uning ortida odam, ulkan bir qalb egasi – muallif turgan bo'ladi. Bu haqda shoirning e'tirofi shunday: "She'riyatning buyuk qudrati uning ishontirish kuchidadir. Biz har bir she'r ortida uning egasini ko'ramiz, uning ma'naviy olamini tasavvur etamiz, o'sha she'r ortida turgan odam o'zining samimiyati bilan, halolligi bilan bizni o'z tuyg'ularining chinligiga ishontirmog'i kerak. She'r hamisha shoirning qismatidir. Agar shoir o'ziga, o'zining qismatiga yarashadigan gapni aytmasa, odamlar unga ishonmaydilar" ("She'riyat izlanishda yashaydi" maqolasidan).

Darhaqiqat, shoirning so'ziga ishonishdan ta'sirlanish paydo bo'ladi. Badiiy adabiyotning obrazlilik mohiyati shu tarzda namoyon bo'ladi. Aslida, his-tuyg'ularni, anglangan haqiqatlarni turli bo'yoqdor so'zlar, har xil badiiy san'atlar vositasida ifoda qilish – badiiy adabiyotning tabiati. Shoirlar birovlarini rom etadigan, o'zida "sehrli haqiqat"ni mujassam qilgan "yolg'on"ni yozadilar. Shu o'rinda Erkin Vohidov maqolasidan olingan va ushbu muammoga doir g'oyat ibratli bir rivoyatga murojaat qilish fikrimizni oydinlashtirishga yordam beradi.

"Rivoyat qiladilarki, Nushirvoni odil shoirlarni huzuriga chaqirib aytibdi: "Bu ne betavfiqlikki, siz shoirlar mendek odil shoh davrida yolg'on she'rlar yozasizlar? Hech zamonda oshiqning ohu fig'oni sahroga o't qo'yadimi? Qiz

bolaning kiprigi o‘q bo‘lib oshiq yigitning ko‘kragiga sanchilarmish. Bu gapga kim ishonadi? Xullas, shu bugundan boshlab kim yolg‘on she‘r yozsa boshi dorda, mulki talonda”.

Shu farmondan keyin uzoq vaqt hech kim she‘r yozmay qo‘ydi. Nihoyat, bir shoir shunday she‘r yozadi:

Tong otsa yulduzlar so‘nar osmonda,
Xo‘rozlar qichqirar Mozandoronda.
Xalafda kechqurun quyosh botadi,
Kechasi odamlar uxlab yotadi.

Nushirvoni odil hech bir yolg‘oni yo‘q, boshdan-oxirigacha haqiqat bo‘lgan ushbu she‘rni o‘qib yelkasini qisdi, boshini qashladi va yana farmon berdi: “Shoirlar o‘sha o‘zining yolg‘onini yozaversin”. Shundan: “Shoir so‘zi yolg‘ondur”, degan gap qolgan, shundan Fuzuliy: “Aldanmaki, shoir so‘zi albatta yolg‘ondur”, deya lutf qilgan”¹⁰⁵. Bu bejiz emas. She‘riyatning ana shu “yolg‘onida” juda chuqur haqiqat, sehrli haqiqat bor, buyuk ishontirish kuchi bor. Aql bovar qilmas bir qonuniyatga ko‘ra kishilar jo‘n aytilgan rost so‘zga emas, o‘sha “yolg‘on”ga ko‘proq ishonadi. Nega endi men she‘riyatning zukko bilgichlari o‘ltirgan bu yig‘inda adabiyotnig ibtidoiy qonuni, alifbosi bo‘lgan bu gapni, hayotiy haqiqat bilan badiiy haqiqat munosabatini aytib turibman? Negaki, ming afsus, biz ko‘p hollarda, hatto to‘qson foiz she‘rlarimizda shu qonunga amal qilmaymiz, “Xalafda kechqurun quyosh botadi” deb yozamiz” (“Yulduzlar qovushsa” maqolasidan).

Shu munosabat bilan yana hazrat Navoiyning hayotiy va ijodiy saboqlariga murojaat qilish zarurati tug‘iladi. Navoiy ijodida badiiy haqiqat, an‘ana va novatorlik, mumtoz adabiyot janrlari kabi ko‘plab muhim muammolar keng yoritilgan va ular bugun ham o‘zining ilmiy-estetik ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunonchi, quyidagi ikki satrda ham adabiyotning o‘ziga xos, muhim spetsifik xususiyati, ya‘ni badiiy haqiqat va uning beqiyos o‘rni, kitobxonga emotsional ta’sir kuchi chuqur ifoda etilgan:

¹⁰⁵ [Erkin Vohidov. Hayot, adabiyot va til haqida | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](http://erkin.vohidov.uz)

“So‘z ichraki yolg‘on yerur nopisand,
Chu nazm yetdilar, qildi dono pisand”¹⁰⁶

Ibratli bir holat: Erkin Vohidov ham o‘zining ulug‘ shoir ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridan birida ushbu satrlar orqali mumtoz she‘riyatning spetsifik xususiyati o‘ziga xos tarzda ifodalanganini alohida ta’kidlagani bejiz emas. Zotan, bunday teran talqin ham Navoiyning boy adabiy-estetik tafakkurining muhim bir qirrasini sifatida alohida e’tiborga molikdir.

Erkin Vohidovning chinakam she‘riyat va uni yaratish mashaqqatlari haqidagi ana shunday teran fikr-qarashlari uning qator she‘rlari bilan birga publitsistik maqolalarida ham yetakchi o‘rin tutadi. Biroq she‘riyatning “oltin” qonuniyatini bilmaydiganlar, badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni anglamaydiganlar, gap-so‘zlarning qoliplangan vertikal shaklini she‘r sanab yurganlar ham ko‘p. Ular she‘ridagi birorta satrga teginib bo‘lmaydi. Chunki har bir satrda haqiqat bayon qilingan. Deylik: “Kechasi odamlar uxlab yotadi”, degandek. Bu gapning nimasi xato? Ayni chog‘da yana bir savol qiynaydi: Buning nimasi she‘r? Bu to‘g‘ri konstruksiyali darak gap har qanday intonatsiya bilan aytilsa ham, she‘rga do‘nmaydi. Chunki bunday satrlarda badiiy adabiyotning eng asosiy xususiyatlaridan biri – obrazlilik yo‘q. Ya’ni original ifodalangan shoirning o‘zi, meni, ruhi ko‘rinmaydi. Biri-birini takrorlayotgan shoirlar, biri birining ohangida she‘r aytayotgan havaskorlar o‘zlariga: “Mening yozganlarimni bir asrdan so‘ng kimdir o‘qiydimi”, degan savolni berib, javob topishlari quyoshning botishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yozishdan ko‘ra muhimroqdir.

Shoirlik qismatiga bardosh berish, uning shon-shuhratiga munosib yashash, eng muhimi, shoir o‘z millatining vijdoni, yuzi, so‘zi va ko‘zi ekanini har doim esida tutishi, albatta, osonmas. Shoir – iste’dod egasi, shoir – so‘z va tafakkur odami, shoir – iztirobli, dardmand inson, shoir – el-yurt quvonchiga sherik odam... Tabiiyki, shoir zotining tabiati, ta’rif va tavsifi xususida bunday fikr-mulohazalarni davom ettiraverish mumkin. Ammo she‘r uchun mukammal ta’rif topib bo‘lmaganidek, shoirlik qismatini ham to‘la-to‘kis ravishda, muxtasar so‘z bilan

¹⁰⁶ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B 104.

anglatish qiyin. Buni faqatgina she'riy kayfiyat iztiroblarini boshidan kechirgan, "so'z durlarini terish" bilan mashg'ul bo'lgan odamgina anglaydi. Ko'nglini qog'ozda aks ettirish uchun munosib so'z izlagan, so'zlarni tush ko'rgan kishigina his etadi. Qaysidir ma'noda:

"Sen, ey sen, she'riyat, bo'lding
Ki qaydin oshino menga,
Keturdin ham safo menga,
Yeturdin ham jafo menga",

deya qalbining holatini, dildagi safoy-u jafolarni she'riyatga murojaatan bayon etayotgan Erkin Vohidovlarday insonlar anglata olar, ehtimol. Darhaqiqat, she'rni anglash, so'zni his etish, so'zga xiyonat qilmaslik, "yolg'onni yozgan holda rost so'zlash" san'atiga sadoqat ijod ahli uchun bag'oyat muhim va xos fazilatlardir. She'riyat dargohiga kirib kelayotganlar uchun ham shu mezonlar g'oyat katta ahamiyatga ega. Bevosita hayotiy va ijodiy tajribalar jarayonida ba'zan ijodkorning voqelikka pishiq-puxta estetik nuqtayi nazari shakllanadi.

Aslida, she'rshunoslar "shoirona qalb" tuyg'usi bilan she'rni chuqur anglashi, o'quvchida she'riy didni shakllantirishi lozim. Bu xususda Erkin Vohidov shunday yozadi: "She'rni anglamakning o'zi ham iste'dod. Biz bu iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlik deymiz. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo'shilganda u didga aylanadi. Didni esa yoshlikdan tarbiyalamoq, bilim va tuyg'ular boyligi bilan kamolatga yetkazmoq kerak" ("She'riyat izlanishda yashaydi" maqolasidan). Odatda, bunday estetik tarbiya uchun adabiyot muallimlari mas'ul bo'ladilar. Adabiy jarayonga baho berguvchi munaqqid va adabiyotshunoslar ham kitobxon didini shakllantirishga xizmat qilishni muhim deb bilishadi. Ammo hozirgi kunda har ikki jihat ham oqsamoqda. Maktablardagi adabiyot darslari ham, aksariyat munaqqidlar faoliyati, qolaversa, kitobxonlarning did-saviyasi ham ko'ngildagidek emas. Bu jihatdan Erkin Vohidovning tanqid va adabiyotshunoslikdagi "o'rtamiyonachilik" saviyasi haqidagi kuzatishlari va tanqidiy mulohazalari ham barchamizni befarq qoldirmasligi lozim deb o'ylaymiz.

Gohida ayrim adabiyotchi-tadqiqotchilar kunning biror dolzarb mavzui tilga tushsa, darhol allaqanday “xom-ashyo”ni tayyor qoliplarga pala-partish joylab, maqola yasab tashlaydi. Anjumanga tezis jo‘natadi yoki ma’ruza o‘qish uchun minbarga minadi. Buning birovga nafi bor-yo‘qligi ba‘zan o‘ylab ham ko‘rilmaydi. Muhimi – go‘yo qatordan, ro‘yxatlardan qolmaslik. Maqolaning saviyasi, o‘sha fikr yuritilayotgan ijodkor dunyosi, ruhiyati, o‘rtaga qo‘yilib, yechilishi lozim bo‘lgan muammo – muhim emas. Darhaqiqat, shu yo‘sinda majruh-nogiron asarlar yig‘ilib qoladi. Holbuki, adabiy-tanqidiy maqola ham voqea bo‘lishi mumkin, ham ilhom bilan yozilishi kerak. Binobarin, adabiy-ilmiy maqolaning ham mazmuniga yarasha ichki strukturasi, kompozitsion qurilishi, ritmi, pafosi, ohangi bo‘ladi. Adabiy-tanqidiy maqola ham yashashga, umrboqiy bo‘lishga haqli. Biroq o‘sha maqolada jasoratli odil fikr bo‘lmasa, allaqanday manmanlik – xudbinlik ortidan yozilsa – bu yomon. Shu ma’noda E.Vohidov bizni ogoh etadi: “Yozuvchiga uning iste’dod darajasiga, asariga qarab emas, balki egallab turgan mansabiga qarab baho berilishi, hamma bilib, ko‘rib turgan barcha jihatlardan ojiz asarlarning maqtalib, ko‘klarga ko‘tarilishi adabiy tanqid deb atalgan muqaddas sohaning obro‘yini tushiradi” (“Adolat tuyg‘usi” maqolasidan). Ota-ona o‘z farzandining tabiatini, bir qarashdayoq uning yuzidan shod-xurramligi yoki xafaligini boshqalarga nisbatan a’lo darajada bilganidek, chin ma’nodagi iste’dodli san’atkor-ijodkor har doim o‘z qadr-qiymatini ham, saviyasini ham, asarlarining umrini ham yaxshi anglaydi. Bu hamma zamonlardan o‘tib kelayotgan haqiqat. Qolaversa, “Tanqidchi dushman orttiraman, deb qo‘rqsa yoki undagi adolat tuyg‘usidan shafqat tuyg‘usi ustun kelsa, adabiy muhitda hech qachon adolat bo‘lmaydi” (E.Vohidov). Adabiy jarayon uchun ham, yosh iste’dodlarda badiiy ijodga nisbatan oqilona talabchanlik hissini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etuvchi bu fikrlar nechog‘lik haqqoniy va zarurligini bir muqoyasa misolida yaqqol ko‘rish mumkin. XX asr tanqid-adabiyotshunosligi rivojida beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinovning “Tanqidchilik kasbi to‘g‘risida” nomli maqolasi nafaqat adabiyotshunos va munaqqidlar uchun, balki barcha ijod ahli uchun ham o‘ziga xos bir dasturilamal bo‘ladigan darajada ahamiyatli ekanligi isbot talab

qilmaydigan bir haqiqatdir. “Talant – xalq mulki” asaridagi “Tanqidchilik kasbi haqida” maqolasidagi quyidagi fikrlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi: “Tanqid sohasiga qadam qo‘ygan odam birinchi qadamidanoq shuni bilsinki, u o‘zini umrbod mashaqqatli, tinimsiz, orom bilmaydigan mehnatga mahkum etadi. Tanqidchi uchun zarur bo‘lgan yana bir sifat borki, uni men halollik deb atar edim. Tanqidni obro‘sizlantiradigan, uni yozuvchi oldida ham, kitobxon oldida ham beburd qiladigan ta‘magirlikdan ortiq narsa yo‘q “Bu so‘zlarda katta hayotiy tajriba va ko‘p yillik ijodiy izlanishlar natijasida tug‘ilgan va Ozod Sharafiddinov butun umri davomida izchil amal qilgan muqaddas bir e‘tiqod ifodalangan. Bizningcha, endi ularni Ozod Sharafiddinovdek buyuk allomaning barcha ijod ahliga qoldirgan yezgu bir vasiyati deb ham qadrlash lozim bo‘ladi.

Ijodkor ruhiy olamini badiiy asar yozgan kishigina yaxshi biladi. Ijodkorning adabiyot, she‘riyat borasida aytgan tanqidiy fikr-mulohzalari o‘sha ijodiy jarayonni, ruhiy bir muvozanatsizlikni boshidan kechirgan kishining e‘tiroflari bo‘ladi. Chunki “Shoir qayer to‘g‘risida, nima to‘g‘risida yozmasin, u avvalo o‘zi to‘g‘risida, o‘z xalqi va yurti to‘g‘risida yozadi”. Dalil sifatida Erkin Vohidovning Mustaqilligimizning ilk kunlari yozilgan va birinchi marta yurtimizga kelgan bir guruh vatandoshlarimizga o‘qib bergan “Vatan umidi” she‘riga razm solaylik:

Chekitabdur Boburu Furqat Vatan hajrida afg‘onlar,
Men ersam, vah, ne g‘urbatkim, Vatanda bevatan bo‘ldim.
Shukurkim, keldi Istiqlol, Umidim rost qil, Ollohim.
Ki, shoyad beqafas bulbul Kabi sohib chaman bo‘ldim.
Ishonchim bor, Vatan, bir kun Kellar chin nurli davroning,
Degayman shunda chin Erkin, Chin inson qaytadan bo‘ldim.¹⁰⁷

Erkin Vohidovga xos teranlik va haqgo‘ylik bilan yo‘g‘rilgan va yuksak poetik mahorat va xalqona so‘z san‘atkorligi mahsuli bo‘lgan bu she‘rni istiqloq davri o‘zbek she‘riyatining eng go‘zal namunalaridan biri sifatida ko‘plab shoir va qalamkashlarga ijodiy bir ibrat sifatida ko‘rsatishga munosib deb o‘ylaymiz.

¹⁰⁷ Вохидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 130.

Ushbu she'r misralari zahirida aks etgan hayotiy va tarixiy haqiqatni kengroq tushunishimiz uchun bevosita shoirning publitsistik maqolalari va nutq-suhbatlaridagi armon va iztirob tuyg'ularini ifodalagan fikrlarini yodga olaylik.

Gohida bunday qarashlar adabiyot nazariyasi darsliklarida qayd qilingan qoidalarga muvofiq kelmasligi ham mumkin. Chunki ijod nihoyatda individual jarayon. Bu jarayon har kimda turlicha kechishi mumkin. Ijod jarayoni uchun aksioma yo'q. Ijod jarayonining yagona qoidasi – bu yozish. Boshqasi – xayol. Boshqasi – ortiqcha gap. Shoir yoki yozuvchining oq qog'oz bilan uchrashuvi – agar chin ma'nodagi go'zal va umrboqiy asarlar tug'ilsa – haqiqatan ham ulkan bayram. Aks holda, umrning isrofidan boshqa narsa emas. Bu haqiqatni anglash, tan olish va boshqalarga bu tajribaning saboqlaridan so'ylash ham ijodkor zimmasidagi yuk.

Erkin Vohidovning hayotiy va ijodiy tajribalari tufayli tug'ilgan nazariy qarashlarida bir olam hikmat mujassam. Shoir o'zining "Aruz haqida" degan maqolasida: "G'azal – murakkab va ancha qiyin janr. G'azalnavisdan oz so'zda ko'p ma'no berish, fikr durdonalarini badiiy tashbeh sadaflari ichida taqdim etishni talab etuvchi janr... Aruz adabiyotning, umuman, san'atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi", degan e'tiborli mulohazalarni yozadi.

"Sarbast – o'lchov qirg'og'iga sig'magan toshqin tuyg'ularning vaznidir", "Maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir". Umuman olganda, Erkin Vohidov anglagan va anglatgan bunday haqiqatlar, adabiy-nazariy qarashlar o'z qadr-qiymatiga ega. Ulardan bahramandlik ma'naviy yuksalish, adabiyot va san'atni, she'riy his-tuyg'ular va nazm tabiatini anglash uchun juda zarurdir. Bunga hech qanday shubha yo'q.

Ammo Erkin Vohidov barmoq vaznining xushbichim beshigida ulg'aydi. XX asrning 30–50-yillarida tug'ilgan shoirlar uchun bu beshikni Cho'lpon bilan Fitrat o'zbek xalq she'riyatining uskunalaridan foydalangan holda yasashgan edi. Erkin Vohidov shu beshikni tark etib, tetapoya qila boshlagan kundan to shu vaqtgacha

unga pardozi berib, uning ustbozu tagbozlaridan tortib, qubbalarigacha tinimsiz sayqal berib keladi. Uning barmoq vaznida yozgan she'rlarini boshqa biror, hatto zargar shoirning ham "barmoq"lari bilan almashtirish mumkin emas. Uning barmog'i ayrim shoirlarning barmog'idek uzun bo'lmasa-da, bu barmoqlar shu shoirlarning she'rlarida mujassamlangan fikr dunyosini kitobxon oldida jonlantirib, uning ham qalbini boyitadi.

Erkin Vohidovning so'nggi yillarda yozgan she'rlari nafaqat qisqaligi, ayni paytda falsafiy fikrlarga boyligi, kitobxonni hayot, umr, abadiyot haqida o'ylashga chorlashi bilan e'tiborga molik. Shunday muxtasar she'rlardan biri tabiatning oddiy hodisasi – soya haqida. Nur va soyaning o'zaro munosabati – adabiyot va she'riyatning mangu mavzularidan sanaladi. Bu mavzuda biror yangi g'oya-fikr aytish va ziyrak kitobxonni hayratga solish amri mahol. Ammo Erkin Vohidovning mahorati shundaki, u azaldan ma'lum, eski mavzu va an'anviy obrazlarga ham yangi adabiy hayot va hayotiy mazmun bag'ishlay oladi. Shoir satrlariga razm salsak, bunga amin bo'lamiz:

Quyoshli kun soyang qolmas izingdan,
Bulut chiqsa g'oyib bo'lar ko'zingdan.
Oftobing tik kelsa, poyingda yotar,
Kunbotarda uzun bo'lar o'zingdan.

Soya haqidagi bunday go'zal ruboiy ulug' shoirlarning, jumladan, "ruboiyot qiroli" bo'lgan Umar Hayyomning ham ruboiylari qatorida tura oladi deyilsa, xato bo'lmas kerak. Erkin Vohidov bu she'rning har bir satridagi so'zni zargarona mahorat bilan qo'llaganki, ularning birortasini qisqartirib yoki o'rnini almashtirib bo'lmaydi. "Oftobing tik kelsa, poyingda yotar..." Qanday ma'nodor tashbeh va poetik go'zal obraz! Shu bilan birga dahshatli hayotiy bir haqiqat! Aslida bu she'rda tasvirlangan oftob ham, soya ham sizniki; sizning oftobingiz va sizning soyangiz. Ammo Sizning Oftobingiz boshingizda tik turganida, Sizning Soyangiz poyingizda bir burdadek bo'lib, ezilib, mazluma bo'lib yotadi. Ammo kunbotarda uzun bo'lar o'zingdan. Bu – she'rni yakunlovchi, inson hayoti tarixiga so'nggi, fojiali ma'no berilgani va nuqta qo'yilganini tasdiqlovchi hukm. Kunbotar – kun

tugab, tun pardasi tushayotgan vaqt; inson umrining so‘nggi lahzasi. Shu so‘nggi lahza kelganda soya, insonning soyasi bo‘y cho‘zib, undan bir necha marta uzun bo‘lib ketadi. Erkin Vohidov shu tarzda soyani tabiatning oddiy hodisasidan inson umrining turli fasllarini anglatuvchi, pirovardida undan-da “uzunlashib”, uni so‘nggi manzilga kuzatuvchi noxush bir hodisaning timsoli darajasiga ko‘taradi. Soya shoirning hayot va umr, odam va abadiyot haqidagi falsafiy o‘ylarining tugallangan poetik mazmunini ifoda etuvchi shaklga kirishiga yordam beruvchi hayotiy detal – badiiy vositaga aylanadi. Oddiy so‘z va tushunchani yorqin obraz darajasiga, sermazmun, umumlashma timsol darajasiga ko‘tarish uchun shoir yillar davomida so‘z ustida ishlashi, “Bedor tunlar” she’rida yozganidek, “Mijja qoqmay, she’r qoralab, oqqa ko‘chirishi” va “Bu kech ham uxlamay, barini butun, Bir satr ham qoldirmay o‘chirishi”, umr bo‘yi tinmay izlanishi, hayot rohat-farog‘atlaridan voz kechishi lozim.

Shoirlik qismatiga bardosh berish, uning shon-shuhratiga munosib yashash, eng muhimi, shoir o‘z millatining vijdoni, yuzi, so‘zi va ko‘zi ekanini har doim esida tutishi, albatta, osonmas. Shoir – iste’dod egasi, shoir – so‘z va tafakkur odami, shoir – iztirobli, dardmand inson, shoir – el-yurt quvonchiga sherik odam. Erkin Vohidov iste’dodining muhim bir qirrasini uning xalqona hajvga, o‘zbekona hazil-mutoyibaga o‘ta moyilligi va iqtidoridir. Hazil-mutoyiba, hajv uning butun mushohada-tafakkuriga – fe’l-sajiyasi, tabiatiga chuqur singib ketgan.

Shoir voqelikda ro‘y bergan, zaharli tig‘i o‘zining ham qalbini jarohatlagan voqea-hodisalarga o‘zbeklarga xos milliy hajv, o‘zbek qiziqchiligi zabt etgan tafakkur yuksakligidan turib nigoz tashlaydi. U “Donishqishloq latifalari”da xalq tarixining achinarli, hatto fojiali davrlarini va shu davrda ro‘y bergan dahshatli voqea-hodisalarni hajviyona tasvirlar yordamida, ta’sirchan kulgi va kinoyalar yordamida tasvirlash mumkinligini o‘ziga xos mahorat bilan ko‘rsatadi. Natijada Matmusa va uning eshagi hatto Apuleyning “Oltin eshagi”ni ham aro yo‘lda qoldiradi. Fojiali davr, fojiali voqea-hodisalar haqida kulgili yozish, hajviy tasvir vositalarini san’atkorona qo‘llab yozish Erkin Vohidovning o‘ziga xos poetik “kashfiyot”lari sifatida adabiyotimizda munosib o‘rin egalladi. San’atkorning

bunday xalqchil poetik tasvirlari va ularning kitobxonlarga chuqur ta'siri haqida o'zining hajviyoti bilan tanilgan nuktadon xalq shoiri Anvar Obidjon shunday yozadi:

Nihoyat, shoir aytganidek, "Ortda qoldi dard-sitam, Ketdi vahming, bitdi zahming, Topdi darmon o'zbekim". Faqat Mustaqilligimiz tufayligina barcha jabru sitamlarga va adolatsizliklarga chek qo'yilganligini va har birimizning taqdirimizda bu tarixiy haqiqatning buyuk ahamiyatini aslo unutmasligimiz kerak. Shu munosabat bilan E.Vohidov maqolalarida keng o'rin tutgan bir qator jiddiy muammolar Mustaqillik sharofati bilangina oqilona hal etilganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Shoirning "O'zbekchilik" va "Bizning odatlar" kabi maqola va suhbatlarida xalqimizning ba'zi yaxshi va ijobiy taomillari quvvatlanib, ularning muhim tarbiyaviy ahamiyati to'g'ri yoritiladi. Aksincha, eskirgan urf-odatlar va ba'zi nomaqbul diniy aqida va qarashlar esa tanqid qilinib, ular jamiyatimiz rivoji va kishilar ongu-tafakkuriga ham salbiy ta'sir etishi mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Chunonchi, dabdabali to'y-hashamlar, kelin-kuyovlarga haddan ziyod sarpo-liboslar, ayniqsa, qimmatbaho mebellar va ortiqcha jihozlar olish kabi molparastlik odatlari avj olganligini kuyunchaklik bilan kitobxonlar hukmiga havola etadi. Eng achinarlisi, bunday odatlar illatga aylanib, o'rtacha yashayotgan oilalarni qiyin ahvolga solib qo'yayotganligini ham hayotiy misollar bilan ifodalaydi. Muhimi shundaki, bunday tanqidiy munosabat shoirning bir qator she'rlarida ham o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Chunonchi, Erkin Vohidovning "Nega yaponlar yuz yil yashaydi" kabi she'rlari ham bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Garcha bizdan yuz bor farovon,
Garcha bizdan yuz karra to'qdir.
To'y harjida yuzta boy yapon,
Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir...

To'ylarda bo'lganidek, aza-motam marosimlarida ham ma'nisiz ortiqcha odat, jumladan, necha haftalab-oylab bel bog'lab turishlar, noo'rin xayri-xudoyi, ma'raka va rasm-rusumlar ham yoshlar ong-tafakkuriga o'rnashib qolmoqda. Mana

shunday eskirgan aqidaga aylangan urf-odatlar hamon davom etib kelmoqdaki, Erkin Vohidov shularga ham oqilona, ya'ni islomiy ma'rifat bilan yondoshish zarurligi haqida barchamizni o'ylashga chorlaydi.

“O'tgan asrning 30 – 50-yillarida avj olgan, yuz minglab kishilarni qon qaqshatgan qatag'on davri manzaralarini eslash, ularni hajviy bo'yoqlar bilan kulgili qilib tasvirlash esa, aslida, shu davr jabrdiydalari xotirasiga nisbatan juda hurmatsizlik va rahmsizlikday bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin Erkin Vohidov “Istibdod” she'rida shu qaltis va g'amgin mavzuga ham xalqona bir hajviy yo'sinda yondoshadi va insonlarning og'ir qismatini yengil hazil-mutoyiba shaklida ifodalaydi. Ammo shu xalqona so'z-iboralar orqali sovet davlati qatag'on siyosatining naqadar bema'niligini, har qanday ma'no va mantiqqa zid va beshafqat bo'lganligini mahorat bilan ochib tashlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada tagma'nodor bu she'rdan taralayotgan istehzoli kulguning zamirida jabrdiydalarning alamli ko'z yoshlari ham silqib turgandek bo'ladi. She'r sovet davridagi eng yovuz dahshatli organ – NKVD xodimining monologi tarzida yozilgan:

Egil, o'zni pana qil,
Borligingni bildirma.
Yo'talganga o'n besh yil,
Aksirganga yigirma.
Kar bo'l, ko'r bo'l, tishla til,
Boshga balo keltirma.
Gapirganga o'n besh yil,
Eshitganga yigirma.
Qalamingni dushman bil,
Qog'oz uzra jildirma.
Roman yozsang – o'n besh yil,
Doston yozsang – yigirma...¹⁰⁸

¹⁰⁸ [erkin_vohidov_konferensiyasi_materiallari_20.06.22_2_compressed.pdf \(tsuull.uz\)](#)

Xalqimizning yaqin o'tmishidan bexabar hozirgi yosh avlod vakillari hajvning zaharli qahqahasi yangrab turgan bu she'ni o'qib, o'zini kulgidan to'xtata olmasligi mumkin. Ammo shu kulgi to'foni haqiqatning metin qoyalariga urilgach, uning ko'zlaridan shoda-shoda yoshlar to'kila boshlasa ajab emas. Negaki bu kulgi shunchaki yengil hazilnamo beozor kulgi emas, balki mashhur satirik adiblar Gogol va Abdulla Qahhorlar iborasi bilan aytganda, bu zaharxanda, ya'ni kuldirib yig'latadigan ("smex skvoz slyoz") achchiq, alamli kulgidir. Chunki bugun bizlarga yengil hazilday tuyulgan bu kulgili satrlar orqali xalqimiz, ayniqsa, ziyolilarimiz boshidan kechgan fojiali kunlarning xotiraga aylangan sadolari eshitiladi. Bejiz emaski, har bir so'z ma'nosini qalbi orqali chuqur his etib yozgan Erkin Vohidov bunday "kulgili hajviy she'rlarni yig'lab yozganman" deya iztirob bilan eslaydi. Shoirning iste'dodi ham – hayot voqea-hodisalarini o'ziga xos nigoh bilan ko'ra olishida va qalban his qilingan tuyg'u va fikrlarni go'zal ifoda orqali boshqalarga ham yuqtira olishida yaqqol namoyon bo'ladi.

3.2.8. Erkin Vohidov so'z olami: ijod saboqlari

"Adabiy ijod hamisha so'z olamiga sayohatdir", –deya ta'riflaydi Erkin Vohidov. Buyuk mutafakkirlar ta'kidlaganidek, adabiyotning asosiy quroli tildir. Badiiy adabiyot "so'z san'ati" deb ta'riflanishida ham katta asos va mantiq bor. Shu bois ham barcha ulug' adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so'z-iboraga alohida e'tibor berishadi. Bu qutlug' adabiy-estetik an'analar Erkin Vohidov kabi zabardast adiblarimiz tomonidan ijodiy davom ettirilayotganligi ham milliy tilimiz va badiiy so'z san'ati rivojining muhim omili ekanligidan dalolat beradi. Ustoz shoirimiz aytganidek, ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i kerak. Darhaqiqat, bir millatni yo'qotish uchun uning tili va tarixiy xotirasidan judo qilish kifoya ekan. Adabiyot, xususan, she'riyatda til va tarixiy xotira mujassam bo'ladi.

Bizga ma'lumki, adabiy tilning tom ma'nodagi ijodkori xalq hisoblanadi. Har bir xalq o'z tilini to'laqonli adabiy til shaklida rivojlantirishga tabiiy, hayotiy ehtiyoj sezadi. Chunki muayyan adabiy til – o'sha xalqning o'zligini namoyon etishi bilan birga, ayni vaqtda, uning madaniyati va adabiyotining rivojida ham eng muhim, qudratli vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Har bir xalqning vatanparvar farzandlari o'z ona tillari ravnaqi uchun kurashgan davrlarda ona tillarining afzalliklarini birinchi o'ringa qo'yib targ'ib qilganliklari g'oyat ibratli bir an'anaga aylangani shubhasizdir. Shu o'rinda buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoq joizdir: "Forsiy tilni afzal ko'radigan va o'sha tilda ijod qilishni osonroq deb o'ylaydigan turk yigitlari haqiqatni bilmaydilar. Haqiqat shundaki, turkiy til ularning ona tillari bo'lgani uchun bu tilda ijod qilish ularga osonroqdir, chunki bu tilni ular bolalikdan yaxshi biladilar, uning hamma boyliklari, hamma imkoniyatlari ular uchun ochiqdir".¹⁰⁹ Ming afsuski, Navoiy zamonida har bir ilimli insonga ma'lum-mashhur rivoyatlar, payg'ambarlar qissalari, tasavvuf aqidalarini mash'um sovet siyosati tufayli o'rgana olmaganmiz va Navoiy tilini lug'atga qarab tushunsak-da, mazmun-mohiyatini, nozik san'atini anglashga qiynalamiz.

Benazir shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'zbek tilimizning sofliги va rivoji uchun izchil kurashi va chuqur hayotiy haqiqat bilan yo'g'rilgan fikrlari milliy tillar rivoji uchun qayg'urish ehtiyoji va zarurati ortib borayotgan bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli adabiyotshunos va uslubshunos olimlarimiz ta'kidlaganidek, shoirning so'z tanlash va qo'llash san'ati o'ziga xos bir ijodiy mahorat maktabi bo'la oladi.

Buyuk shoir ijodiy merosi milliy yuksalish bosqichiga qadam qo'ygan yangi O'zbekistonimizning porloq kelajagi yo'lida va xalqimiz ma'nayatini yuksaltirish, yosh avlodni vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etib boraveradi. Mana shunday yuksak fazilatlar Navoiy ijodining umumbashariy mazmun-mohiyatini yanada chuqurlashtiradi; ayni paytda, bu ulug' asarlar keyingi avlod namoyandalari

¹⁰⁹ Навоий Алишер. Асарлар. 15 томлик, 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 117-118.

o‘rtasida adabiy vorislik va bezavol an’anaviylikni yuzaga keltirib, badiiy ijod taraqqiyotining qudratli bir omili – hayotbaxsh tamoyili bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jihatdan Erkin Vohidov ijodi har tomonlama o‘rganishga va ibrat olishga munosibdir.

Boshqa adib va olimlar orasida Erkin Vohidov Navoiy ijodiga, buyuk siymosiga ko‘p bora murojaat qilgan va ul zotning ijodkor shaxsi va burchi, badiiy til va so‘z san’ati sohasidagi teran qarashlari va adabiy saboqlaridan ishonchli va mo‘tabar manba sifatida ijodkorona foydalangan, ulardan ma’naviy-ruhiy madad olgan. Shoirning sovet davrida yozgan “O‘zbekim” qasidasidagi

Mir Alisher na’rasiga aks-sado berdi jahon,
She’riyat mulkida bo‘ldi shohu sulton o‘zbekim¹¹⁰

degan satrlarini endilikda har bir o‘zbek kitobxoni cheksiz iftixor bilan ayta olish baxtiga musharraf bo‘ldi. Navoiyning ulkan iste’dodi va beqiyos haqgo‘yligining yorqin ifodasi bo‘lgan, teran mazmunga ega asarlari millatparvar jadid adabiyotiga, ayniqsa, Erkin Vohidov kabi keyingi davr adiblari ijodi va ijtimoiy-ma’naviy, adabiy-estetik pozitsiyasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgani “aksioma” – haqiqatdir. Jahon adabiyoti tarixidan ayonki, ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraning ma’nosiga, badiiy-estetik salmog‘iga jiddiy e’tibor va mas’uliyat bilan yondashganlar. Bu borada ham Navoiy poetik mahorati va so‘zga ulkan mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi jihatdan eng yuksak namuna ekanligi isbot talab qilmaydigan ijodiy va tarixiy haqiqatdir. Asrlar davomida rivojlanib davom etib kelgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Erkin Vohidov ham o‘zining badiiy publitsistikasida ko‘proq so‘z qudrati, so‘zning badiiy ijod jarayonidagi beqiyos ahamiyati, mumtoz va zamonaviy adabiyot an’analari, adabiy jarayon va badiiy til mahorati kabi muammolari haqidagi fikr-mulohazalarini ta’sirchan shakl va uslubda ifodalagan. Shu bilan birga, muallifning publitsistik ijodida so‘z san’ati, til va uslub individualligi singari

¹¹⁰ Воҳидов Э. Муҳаббат. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 334.

qator dolzarb va jiddiy mavzulardagi teran mazmunli va salmoqdor maqolalariga ham guvoh bo‘lamiz.

Muallif badiiy ijodning qaysi muammolari haqida fikr yuritmasin, albatta, ular ko‘p marta sinalib, tahlil qilinib, asoslangan hamda ilmiy va mantiqiy tomondan dalillangan mulohazalar ekanligiga amin bo‘lamiz. Jumladan, adibning ta’kidlashicha, “Navoiyning so‘z boyligi beqiyos. Sababi hazrat o‘zlari “fors alfozin kishi mendin ko‘prak bilmaydur” deya e’tirof etganidek, fors tilini qanchalar mukammal bilsa, arab tilini ham shu qadar barkamol egallagan va muhimi, o‘z ijodida ularni to‘la istifoda eta olgan. Turkiy tilning esa butun nazokatini, cheksiz so‘z boyligini “Muhokamat ul-lug‘atayn”dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar.”¹¹¹

Darhaqiqat, Alisher Navoiy “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” degan yuksak aqidalariga hayotda ham, ijodda ham hamisha qat’iy amal qilgan. Afsuski, bizning ayni davrimizda ko‘plab yoshlarimiz orasida o‘zbek tilini mensimasdan, oddiy o‘zbekcha so‘zlar o‘rniga ham ruscha yoki boshqa tildan kirib kelgan so‘zlarni noo‘rin ishlatish odat tusiga kirib bormoqda.¹¹² O‘zlari ham ma’nosini yaxshi tushunmaydigan bu ajnabiy so‘z-iboralar ona tilimizga bepisandlik bo‘lib qolmasdan, balki o‘sha kimsalarning ma’naviy qashshoqligini ham ko‘rsatadi. Ajnabiy tillardagi so‘zlarni o‘zbekchaga o‘rinsiz qorishtirib ishlatish tilimizning sofligini, ma’no imkoniyatlari kengligini cheklab qo‘yishi ham ehtimoldan xoli emas. Bunday kulgili va achinarli hollarga e’tiborsizlik qilish millatimizga va ma’naviyatimizga befarqlik bo‘lish bilan birga, ona tilimiz sofliги va ravnaqi yo‘lida qayg‘urmayotganimizni ham anglatadi. Shu munosabat bilan Erkin Vohidovning o‘zbek tilimizda ravon so‘zlay olgan va boz ustiga ko‘plab yoshlarga o‘zbek tilini katta qunt va mehr bilan o‘rgatayotgan xorijlik Ilza xonimga bag‘ishlab yozgan she’ri ko‘p jihatdan ibrat va hayotiy saboq bo‘la oladi:

“Ona yurtim!.. Ona tilim!

Mehring bu qadar

Aziz ekan dilu jonimga.

¹¹¹ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 14-15.

¹¹² Сўзлашув нутқидан.

Termulgancha lolu musahhar
So‘z aytaman Ilza xonimga.
Keling, sizni ona yurt uchun
Fidolar bir tinglab quvonsin.
Bu quvonchdan lekin bir umr
Judolar ham tinglasin, yonsin.
O‘z elati mehridan dilin
Yot tutganlar sizni eshitsin.
O‘z yurtida o‘z ona tilin
Unutganlar sizni eshitsin.”¹¹³

Ushbu she’rda Erkin Vohidovning ona tilimizning sobiq sovet tuzumi davrida qanchalar qadrsizlanib, chetga surib qo‘yilgani haqidagi iztirobli o‘ylari hamda olis Amerikadagi olima Ilza xonimning O‘zbekistonimizga va o‘zbek tilimizga bu qadar chuqur mehri va e’tiboridan behad quvonchi va minnatdorligi chuqur aks etib turibdi. Lekin biz bu o‘rinda mazkur mashhur she’rning 1992-yildagi “Yaxshidir achchiq haqiqat” nomli ixcham bayozda va shu yili nashr qilingan “Iztirob” nomli salmoqli to‘plamda bosilib chiqqan ikki variantidagi farq va noo‘rin qisqartirish bo‘yicha qisqa bir izoh va kitobxonlar nomidan bir e’tiroz bildirishni ham lozim topamiz. Taajjublanarli holati shundaki, 96 betlik mo‘jaz risoladay kitobchada to‘liq keltirilgan, mazmunan va shaklan tugal va poetik jihatdan mukammal bo‘lgan ushbu she’r 340 betlik qalin to‘plamda o‘zboshimchalik yoki texnik e’tiborsizlik oqibatidami pati yulingan tovuqdek, deyarli yarmi qisqartib berilgani aqlga to‘g‘ri kelarmikan? Jumladan, she’r davomidagi

“...Umri o‘tib O‘zbekistonda
Assalomni bilmaganlar ham...”

kabi satrlar ifodalagan ma’no va maqsadsiz she’rning chuqur hayotiy mazmunini to‘liq tasavvur etib bo‘ladimi? Ayniqsa, she’rning quyidagi poetik xotimasi orqali

¹¹³ Воҳидов Э. Илза хоним. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 325.

aks ettirilgan shoir va lirik qahramonning yuksak millatparvarlik va vatanparvarlik tuygʻulari kitobxon tafakkurini qanchalar boyitishi mumkin edi:

“–Ey siz, dono ustoz olimam –
Olis yurtda munis yoʻldoshim,
Sizga egay podsholarning ham
Huzurida egmagan boshim.”¹¹⁴

Istiqlol yillarida oʻzbek adabiy tilimizning rivojlanishi va barqarorligini taʼminlashda Prezidentning 2019-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni tarixiy voqea boʻldi, deya olamiz. Ayniqsa, bu yillarda milliy oʻzbek matbuoti, va televideniya tili beqiyos huquq va imkoniyatlarga ega boʻldi. Jumladan, Mustaqillik sharofati bilan taʼsis etilgan oʻnlab yangi roʻznoma va jurnallar oʻzining rang-barang mazmuni bilan xalqimizning maʼnaviy-estetik olamini boyitish barobarida tilimizning benihoya soʻzga boyligi va serjiloligi, eng murakkab, eng nozik fikr-tuygʻularni ham ifodalash imkoniyati keng ekanligini koʻrsatib bermoqda.

Tabiiyki, biror milliy til va uning ravnaqi yoʻlida gʻamxoʻrlik qilish – bu bir guruh mutaxassislar yoki ijodkorlargagina tegishli ilmiy yoki amaliy tadbir emas. Jahon madaniyati tarixidan maʼlumki, ulugʻ adib va mutafakkirlar hamisha oʻz milliy tilining ravnaqi va istiqboli uchun kurashib kelganlar. Xususan, Erkin Vohidov oʻzbek tilining xalqchilligi va milliyligini asrash hamda uni ardoqlash yoʻlida beqiyos faollik koʻrsatgan fidoiy ijodkorlardan sanaladi. Adibning bir qator yetuk sheʼr va dostonlari, oʻnlab maqolalari ana shu ezgu maqsad bilan yoʻgʻrilganligi fikrimiz isboti boʻla oladi.

“Badiiy soʻz ustalari oʻz asarlarida tasvirlagan obraz va manzaralar insoniy kechinmalar mazmunini tushunishga, ijodkor tuygʻularini oʻquvchilar oʻz koʻnglida his qilishga imkon beradi. Ayni damda, har bir sanʼatkor yaratgan asarlar orqali uni tanish, koʻngil olamiga kirib, shoir oʻy-xayollari mazmun-mohiyatini

¹¹⁴ Вохидов Э. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ нашриёти, 1992. – Б. 47-48.

tushunib borishga erishiladi.”¹¹⁵ Jumladan, Erkin Vohidovning “So‘z – zabarjad, so‘z – gavhar, oltin” sarlavhali maqolasida so‘zning ta’sir kuchi, uning badiiy ijoddagi fasohat va balog‘ati nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi xususida qimmatli fikr – qarashlarini bayon etadi. Ijodkor o‘z asariga tanlagan so‘ziga ko‘ngil rishtasini bog‘laydi. Shoirning qalbidan to‘kilgan tuyg‘ulari so‘zga va so‘z orqali she’r muxlislarining ko‘ngliga joylanadi. Xuddi shu ma’no va maqsaddagi ruhiy aloqa va lisoniy muloqotlar ijodkorni so‘zga, so‘zni kitobxonga, kitobxonni esa shoirning badiiy tafakkur olamiga bog‘laydi.

Insonning insondan, so‘zning so‘zdan farqi bo‘lganidek, faylasuf so‘zi ong va tafakkurga yo‘naltirilsa, shoir so‘zi inson qalbi va hissiyotiga ta’sir etadi. Oddiy hayotiy falsafadan farqli ravishda she’riy asarlarning o‘ziga xos fasohati va mantiqiy yechimi mavjud. Shunga mos tarzda she’riyat olamiga qadam qo‘ygan har bir yosh ijodkor o‘zining badiiy tafakkur olami yo‘nalishini belgilab olishi lozim. Badiiy asarning qiymati va jozibasi, adibning individual uslubi, ya’ni uning maqsad va g‘oyasini keng kitobxon qalbi va shuuriga yetkazib beradigan jozibador tili bilan belgilanadi. Shu bois badiiy asar tili va uslubi muhim muammolardan biri bo‘lib sanaladi.

Ayniqsa, badiiy asarda tilning beqiyos ahamiyati va asar tilining mukammal va sermazmun bo‘lishi to‘g‘risida Alisher Navoiylardan boshlab qator yirik so‘z ustalari ham qimmatli fikrlarini bildirib o‘tishgan. Erkin Vohidov e’tirof etganidek, Navoiy an‘analarini davom ettirgan Oybek 30-yillardayoq, badiiy asar, jumladan, she’riyat tili masalasiga oid maxsus maqola yozadi. Bu maqolada u ko‘plab shoir va yozuvchilarni til – badiiy asarning uzviy to‘qimasi, uni yuzaga keltiruvchi bosh hujayralar majmuasi ekanligini tushunib yetmaslikda ayblaydi, qalamkash do‘stlarini “so‘z tanlashda jiddiy o‘ylashga”, “har bir so‘zni chertib” ishlatishga chaqiradi.¹¹⁶

Darhaqiqat, “Tirik jonlarning unib-o‘sishti uchun toza havoning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, adabiyotimizning ravnaqi uchun chinakam badiiy tilning

¹¹⁵ Хужамбердиева Ш. Таълим боскичларида Эркин Воҳидов ижоди ва ҳаётини ўргатиш усуллари. Педагогика фан. б. фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Наманган, 2019. – Б. 20.

¹¹⁶ Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил. Асарлар. Ўн томлик. IX том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 238-244.

zarurati ham shunchalik zo‘r”.¹¹⁷ Chunki badiiy adabiyot so‘zning beqiyos imkoniyatlari va tovlanishlari orqali insonning barcha xususiyatlarini san’atning rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa singari boshqa turlari tasvirlaganidek, ham obrazli, ham jonli tarzda ravshan aks ettiradi. Yozuvchi uchun so‘z ham qurol, ham bo‘yoq, ham soz, ham tovush, ham mo‘yqalam vazifasini bajaradi, ya’ni so‘z mohir adiblar qo‘lida obrazli fikrlash, go‘zal poetik manzaralar chizish uchun ajib vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki til shunday bir ko‘zguki, unda badiiy adabiyotning barcha fazilat va nuqsonlari aks etadi. Darhaqiqat, mukammal mazmun yaratish maqsadida asar tilidagi har bir jumla, har bir so‘z va hatto tovushlargacha ham jiddiy e’tibor berish – badiiy ijodning “oltin qonun”laridandir.

Adiblar o‘z asarlarida ma’lum bir davr va ijtimoiy muhitni va xilma-xil insoniy xarakterlarni o‘ziga xos til va uslubiy vositalar bilan milliy ruhda tasvirlash jarayonida adabiy tilimizga juda ko‘p yangi so‘z va iboralarni olib kirish va boyitish barobarida uning ifoda imkoniyatlari va ta’sir kuchini ham oshiradilar. Bu jihatdan, Erkin Vohidov o‘z asarlarida ma’no ifodasiga muvofiq so‘z-iboralarni g‘oyat mas’uliyat va shoirona did-saviyasi bilan tanlashi ibratli. Ba’zan esa, o‘zi ham o‘zbek tilimizning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda, yangi so‘z va iboralar ham yarata oladiki, bu ham shoirning yuksak badiiy til mahorati va so‘z san’ati-ijodkori ekanligidan guvohlik beradi. Masalan, birgina “Kelajakka maktub” nomli mo‘jaz to‘plamidagi she’rlarda qo‘llangan “shafaqgun”, “haqpesha”, “betinch yurak”, ”nomuborak”, “sodda umid”, “oftobdil, oftobjamol” kabi o‘nlab yangi so‘z-iboralar bunga dalil bo‘la oladi.

So‘z san’atkorining ijodiy mushohadakorligi, o‘ziga xos fikrlash tarzi va taxayyuli, his-tuyg‘ulari uning nimalarni yozganidagina emas, qanday uslub bilan ifodalashida ham aks etadi. Odatda, yirik badiiy asarlarda ko‘plab har xil insoniy xarakterlar tasvirlanadi, turli voqealar ko‘z oldimizda gavdalan tiriladi. Bularning hammasini ichdan birlashtirib, yaxlit bir asar qilib turgan narsa yagona g‘oya, syujet, kompozitsiya, konflikt va hokazolargina emas. Ular adibning ichki dunyosida – ijodiy tafakkuri va jonli mushohadalari orqali bir-biriga payvand

¹¹⁷ Кодиров П. Бадий тил муаммолари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 140.

bo'lib, yaxlitlanadi. Shu sababli kitobxonlar yangi asarlarni qo'lga olganlarida undan faqat hayotiy lavhalar tasvirlarinigina emas, balki muallif uslubining o'ziga xosligini ham anglashga harakat qiladilar. Badiiy adabiyotda realizm hamma vaqt ijodiy metod birligiga putur yetkazmagan holda shaxsiy uslublarning ham individual-o'ziga xos va xilma-xil bo'lishiga imkon beradi.

Ilmiy-adabiy manbalar va tadqiqotlarda shoir va yozuvchilarning uslubi haqida bir qator ta'rif-tavsiflar berilgan. Buyuk allomalardan biri Abdurauf Fitrat ham ijodkor uslubining shakllanishi va uning badiiy ijodda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab, jumladan, shunday fikr yuritadi: "Shoir-yozuvchi san'atkorlikda ko'tarila borgan sari o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydi. Shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tugal, komil bo'lgach, o'ziga yarasha bir uslub ham borliqqa chiqqan bo'ladi"¹¹⁸. Bu ta'rifda ijodkor uslubining asosiy shart va omillari ham ta'kidlangan.

Yoxud yirik adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ham yozuvchi uslubining o'ziga xosligi va u keng qamrovli bir tushuncha ekanligini quyidagicha talqin etadi: "Novatorlik, original uslub uzoq izlanishlar, davomli mehnat samarasi o'laroq vujudga keladi. Yozuvchinig hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo'sinidagi, qo'ying-chi, hatto biografiyasidagi va shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko'zga yaroq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik prinsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi."¹¹⁹

Badiiy til va uslub ijodkor ruhi, iste'dodi va o'ziga xosligini ifodalovchi bir ko'zgu ekan, uni o'sha ijodkorning dunyoqarashi, adabiy-estetik ideali va badiiy mahorati masalalari bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, asar tili ustida ishlash jarayonida san'atkor betakror iste'dodi, mahorat va tajribasi, uslubidagi o'ziga xosliklar ham ko'zga yaqqol tashlanib

¹¹⁸ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Нашрга тайёрловчи Болтабоев Ҳ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – В. 26.

¹¹⁹ Шарафиддинов О. Истеъдод жиловлари. – Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Шарқ, 1979. – Б. 232-233.

turadi. Tilni xalq yaratadi, ammo unga ishlov berib, badiiylashtiruvchilar soʻz sanʼatkorlaridir. Yozuvchining til boyligi va iqtidorini uning kitobiy nutq bilan jonli nutq unsurlarini qanchalik yaxshi uygʻunlashtira olishi belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan Erkin Vohidov kabi adiblarimiz asarlariga yondashsak, ularning hammasi ham jonli xalq tilini adabiy tilga sanʼatkorona payvand qilib ishlatganlarini koʻramiz.

Masalan, xalq tili va jonli soʻzlashuv nutqida soʻz takrori koʻp uchraydi. Takror – badiiy nutqqa xos intonatsion-sintaktik ifoda usullaridan biri: ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha soʻz yoki soʻz birikmalarini, baʼzan esa maʼlum satrini takrorlash orqali fikr yoki his-tuygʻuni ifodalash va uning taʼsir kuchini oshirishga imkon beradigan stilistik figuradir. Erkin Vohidov sheʼrlarida va “Inson” kabi mashhur qasidalarida qoʻllagan badiiy takrorlar tasvirlanayotgan vaziyat-holatga, obyektga nisbatan oʻz subyektiv munosabatini ifodalash, uni baholash, ayni voqea-hodisaning muhim tomoni, u yoki bu belgi-xususiyatlarini chuqurroq aks ettirishga va oʻquvchi diqqatini tortishga ham xizmat qiladi. Chunonchi, “Seningdurman, seningdurman” va “Inson oʻzing...” kabi soʻz takrorlari muhim gʻoyaviy-badiiy va uslubiy vazifani bajarib, asarning hayotiyligi va jozibadorligini, qahramon oʻy-kechinmalarining haqqoniy va taʼsirchanligini kuchaytiradi. Takrorlarning bunday rang-barangligi va turli maqsad – yoʻnalishlarda berilishi adibning mohir soʻz ustasi ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Erkin Vohidov sheʼriyatidagi bunday takror turlarining badiiy-estetik vazifasi hali oʻrganilgani yoʻq. Ayrim soʻzlar, tovushlargina emas, hatto fikr takrori ham xarakterlarning ichki dunyosini ochadi, shu tariqa shoir mahorati tasviriy usul va vositalarni olib kirgani, uning poetik koʻlamini kengaytirganligida namoyon boʻladi.

Zamonaviy oʻzbek lirikasida Erkin Vohidov tom maʼnoda Navoiy boshlagan va keyingi davr shoirlari davom ettirgan adabiy-lisoniy anʼanalarni sharaf bilan davom ettirgan noyob ijodkorlardan biri sanaladi. Jumladan, muallif “Soʻz latofati” asarida ijodiy faoliyati davomida toʻplagan kuzatishlari hamda badiiy-estetik fikr-qarashlarini bayon etadi. Taniqli adib Pirimqul Qodirov “Xalq tili va realistik

proza” va “Til va el” kitoblaridagi kabi Erkin Vohidov ham “So‘z latofati” asarida jonli til, so‘zlashuv jarayonidagi, ayni damda iste’molda bo‘lgan so‘zlar xususida keng fikr yuritishgan. Jumladan, ko‘proq zo‘rlab singdirilgan akademik nazariy qoidalariga qarshi o‘laroq, o‘zlarining tahliliy qarashlarini bayon etishgani ham muhimdir. Erkin Vohidov tilshunosligimizni jonli til jarayoni bilan chambarchas bog‘lab tahlil qilishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Muallifning so‘z haqidagi aksariyat maqolalarida tilshunoslikdagi nazariy qoidalar bilan jonli tilimiz o‘rtasida anchagina tafovut borligini va bu muammo ustida birgalikda o‘ylab ko‘rish zarurligini ham ko‘rsatib beradi.

Shu o‘rinda milliy uyg‘onishning asl doyasi – o‘zbek tili atrofida kechgan siyosiy-mafkuraviy jarayonlar Istiqlolning ta’mal toshi bo‘lganligini bir zumga bo‘lsa-da, xayolimizda jonlantirsak. Ona tili haqida so‘z borganda, xayolimizga, eng avvalo, Navoiyning besh asr ilgari butun ijodi va tengsiz iste’dodi bilan tilimiz ravnaqi yo‘lida ko‘rsatgan ulkan jasorati va chinakam millatparvarlik va xalqchillikning yuksak namunasi bo‘lib maydonga kelgan durdona asarlari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Qodiriy va Qahhorlarning tilimiz haqidagi jonkuyarliklari, Mirtemir hamda Abdulla Oripovning 60-yillar boshida yozgan “Ona tilimga” va Erkin Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi” kabi da’vatkor she’rlari keladi. Unda:

-Notiq dedi: “Taqrir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda.
Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chikdi qayerdan!
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.
Kim darg‘azab, Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

“Va’zingni qo’y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi”.
Barcha dedi barobar: “Ona tilim o‘lmaydi”|.

Mazkur she’rlar g‘oyaviy-badiiy mazmuni jihatidan shoirning maqolalariga hamohang; ularda ma’naviy-axloqiy hamda ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirishda Erkin Vohidov ijodi va tafakkuriga xos falsafiylik, xalqchil yumoristik ifoda, ruhiy kechinmalarning nozik talqinlari shoirona uslubda idrok etilganligini yaqqol kuzatish mumkin.

Bunday she’r va maqolalar ming-minglab muxlislar qalbida ona-tiliga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otganiga sira ham shubha qilmaymiz. Yillar o‘tib shoir tilimiz xususida bejiz bezovta bo‘lmaganini hayotning o‘zi tasdiqladi.

O‘sha yildagi “Yoshlik” jurnalining 33-sonida berilgan atoqli adib Chingiz Aytmatovning suhbatı tarjimasiga “Yo hayot, yo mamot” deb sarlavha qo‘yilgan. Erkin Vohidov bosh muharrirlik qilgan jurnalda boshlangan bu hayotiy musohabada millat ma’naviyati, milliylik mavzusida bahs yuritilib, yozuvchi o‘sha davrdagi amalparast insonlarning mahmadonaligi sabab milliy til kamsitilayotganini o‘rinli tanqid qiladi. Ch.Aytmatov va Erkin Vohidovlar ta’kidlaganidek, “Toki til mavjud ekan – xalqning umri boqiydir. Har bir til muayyan xalq uchun aziz hisoblanadi. Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini – tilini hadya etgan xalq oldida qarzdamiz: tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchini ado etgan bo‘lamiz”.¹²⁰

Mustabid tuzum davrida milliy til muammosini bu tarzda jiddiy muhokama qilish uchun Chingiz Aytmatov, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov bo‘lish kerak edi. KPSS siyosatiga mos tushmaydigan har qanday fikrni ta’qib qilgan sovet senzurasining Chingiz Aytmatov yozganlarini qaychilashga qo‘li kaltalik qilgan. Turkiy xalqlarning bir iftixori bo‘lgan adib SSSR xalq deputatlarining birinchi s‘ezdida ham xuddi shu ohangda so‘zlaydi. Adib-arbob ittifoqdosh respublikalarda milliy tilga davlat tili maqomini berish masalasida kechayotgan qizg‘in jarayonni

¹²⁰ Чингиз Айтматов “Ёшлик” журналининг 1986-йил 10-сонida

qo‘llab-quvvatlaydi va qat’iy qilib, mahalliy xalqlarning tillari davlat tili bo‘lishi kerak, – deydi. “Ona tilini sevmagan odamda o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminga, ajdodlarimiz ming yillar davomida yaratgan buyuk madaniy merosga, ota-onaga, urf-odatlarimizga muhabbat bo‘larmikan?” – degan so‘zlari hayotiy haqiqat edi.

Bu maktub birgina muallifning emas, minglab, millionlab odamlarning dardu armoni va ezgu orzusi ham edi. “Ko‘nglimda o‘z ona tilimizga kuyunchaklikdan boshqa hech qanday niyat yo‘q. Faqat aytmoqchimanki, shu yozuvlar o‘zbek tilida ham yozilsa hamma birday o‘qiydi, aniqrog‘i, mohiyatiga, mazmuniga hamma tushunadi.”

Yozuvchi Murod Muhammad Do‘st ham “Literaturnaya gazeta”ning 1989-yilgi 6-sonida chop etilgan “Yorliq” talablar” (“Soiskateli” indulgensiya”) maqolasida ham o‘zbek tilimizning himoyaga muhtoj bo‘lib qolgani haqida so‘z yuritadi. Millat kelajagi bilan bog‘liq o‘ta jiddiy mummoning sobiq Ittifoq miqyosida muhokamaga qo‘yilishi fidoyi ziyolilarga dalda bo‘lgandi.

Erkin Vohidovning tilimiz tarixi, ildiz-manbalari haqidagi mulohazalari ham birlamchi manba – Navoiy asarlari misolida dalillanishi ham havas qilishga munosib talqinlardir. “Navoiy asarlari lug‘atiga qarasangiz, rang so‘zining beshta ma’nosini topasiz. Mabodo Sharq qo‘lyozmalari xazinasiga kirsangiz, “Qaznul lug‘ot”, “Muntahabul lug‘ot”, “Chorbardiy, “Abushqa” singari lug‘atlarni varaqlasangiz, *rang* so‘zining o‘ttiz bir ma’nosini topasiz. Faqat soddalik qilib, bu kitoblarni kutubxonalarimizdan izlab ovora bo‘lmang. Ularning hech biri O‘zbekistonda nashr qilingan emas. Til boyligimizga, nafis adabiyotimizga eski bepisandlik davom etsa, hech qachon nashr etilmas. Har bir savodli inson yaxshi tushunadiki, lug‘at ko‘rmay tariximizni, ko‘p asrlik adabiyotimizni o‘rganib ham, o‘rgatib ham bo‘lmaydi. Navoiy so‘zlari lug‘ati bor-ku, dersiz. Avvalo, mumtoz adabiyotimiz yolg‘iz Navoiydangina iborat emas. Tilning butun boyligini birgina shoir qamrab olishi imkonsiz.”¹²¹

Muallifning birgina rang so‘zining ma’nolari bo‘yicha bildirgan adabiy-estetik qarashlarida hozirgi jamiyatimizdagi adabiy merosga munosabat,

¹²¹ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 107-108.

lugʻatshunoslikning jiddiy muammosi haqidagi fikrlarni ham anglab olamiz. Lekin ming afsuski, muallif qayd etgan nodir lugʻatlar bizning vatanimizdagi kutubxonalarda mavjud emasligi, umuman bizda ularning nashr etilmaganligini ham achinish bilan eslatib oʻtadi.

Muallif ushbu fikrlarini davom ettirib, yana shuni taʼkidlaydi: “Biz qalamga olgan lugʻatlar asosan fors tilida bitilgan. Aytishingiz mumkin, ularni eroniyalar nashr etsin, tojiklar nashr etsin. Bizga nima zarurati bor? Bu iddaoga javob shuki, men aytilgan lugʻatlardan duch kelganini olib, duch kelgan sahifani ochib qaradim va bir talay turkiy oʻzbek soʻzlarni koʻrdim. Hukmdor maʼnosidagi *qoon*, *darvoza* maʼnosidagi *qopu*, *qozon* maʼnosidagi *qozgʻon*, bugungi tilimizda mavjud boʻlgan *qon*, *qosh*, *qatiq*, *qoshuq*, *qilich*, *qonun*, *qaqnus*, *quloch*, *qaymoq*, *qaychi* soʻzlarini topdim. Menga yangilik boʻlgani – *qonun* bilan *qaqnus* aslida yunoncha ekan.”¹²²

Erkin Vohidovning rang koʻrinishlari haqidagi qarashlarini oʻqib chiqib, hayot ranglardan iborat ekanda, degan fikrga ham kelishimiz mumkin. Aslini olganda esa, shoir va yozuvchilar, tasvirchi va rassomlar, toʻquvchi va kashtadoʻzlar borki, tabiatning toʻrt fasli mavjud ekan, ranglar yanada jilolanib, takomillashishda davom etaveradi. Erkin Vohidov ranglar koʻrinishini qayd etib qolmay, balki ularning qayerda va qachon qoʻllanganini anglashga undaydi. Fuzuliy, Navoiy va Bobur mirzolar ijodida rang tovlanishlarining qaysilari koʻp uchrashini ham taʼkidlab oʻtadi.

Muallif oʻz qarashlarida, oʻzbek tilining rivoji ahamiyatsiz hisoblangan, tariximizning boyligi hamda ulugʻligi toʻgʻrisida gap ochish millatchilik sanalgan davrlar allaqachon oʻtib ketganligini, qadriyatlarimizni tiklash davlatimiz siyosati darajasiga koʻtarilganligini katta qoniqish bilan taʼkidlaydi. Lekin oʻrnimizdan qoʻzgʻalishimiz qiyin kechayotganligini, qaramlikdan qutulsak ham, uzoq yillar davomida jon-jonimizga singib ketgan hadiksirashdan qutula olmayotganligimizni qisqa satrlarda koʻrsatib oʻtadi.

Dil soʻzi qatagʻon erksiz tuzumni

Biz koʻrdik, koʻrmasin hech kim, hech zamon.

¹²² Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 118.

Ko‘p qattiq tishlagan ekanmiz mumni,
Og‘iz ocholmasdan yuribmiz hamon.¹²³

Darhaqiqat, shoir ta’kidlaganidek, tilshunosligimizda hadiksirash alomatlari hamon davom etmoqda. Holbuki, tilimizning qadimiy va boy resurslaridan foydalanganimizda jamiyatimizning barcha sohalarida o‘zbekcha so‘zlar ko‘proq va ustunroq bo‘lar edi. Agarda tilshunoslarimiz hadiksiramaganlarida, ayni mustaqillikka erishgan yillarimizda juda ko‘plab atamalarimiz asl o‘zbekcha nomlar bilan almashtirilgan bo‘lar edi. Asl o‘zbekcha *yuzboshi*, *mingboshi*, *ayniqsa qo‘rboshi* unvonlarini tilga oladigan bo‘lsak, o‘tmishimizni qoralash urf bo‘lgan zamonlarda ular shu qadar loyga, balchiqqa belanganki, eshitgan odam bugun ham hadiksirab, seskanib ketishi mumkin.

Kezi kelganda shuni aytib o‘tish lozimki, talaffuzimizda *qo‘rboshi* emas, *qurboshi* desak to‘g‘ri bo‘lar edi. Sababi *qur* – to‘plash, yig‘ish ma’nolarini bildiruvchi *qurmoq* so‘zining o‘zagi sanaladi. Yigitlar davra qursa, bir qur yigit deymiz. Bir qur ichiga jamlangan yigitlar qurdosh yigitlar hisoblanadi. Yoshi bir xil tengdosh bo‘lganlari esa, tengqurlar deb chaqiriladi.

Erkin Vohidov o‘zining publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalarida qayd etishicha, olimlarimiz zimmasida mumtoz adabiyotimizning mukammal so‘zligini tuzib chiqishdek ulkan burch turibdi. O‘zbek tilining o‘z grammatikasi – sarfu nahvi yo‘q. Kimga tobe bo‘lsak, uning til qoidalarini olganmiz. Hozirgi rus tilining so‘z yasash, gap qurish, imlo talablarini shundoqqina qabul qilganmiz. Tilshunoslik atamalarimiz bari ruschadan tarjima qilingan. O‘z ona tilimizga mos grammatika yaratish ham olimlarimiz bo‘ynidagi qarz. Ham bugungi avlod, ham kelajak nasllar oldida o‘tash zarur bo‘lgan, kechiktirib bo‘lmas qarz bu. Haqiqatan ham, bugungi kun adabiy tilimizdagi nazariy qoidalarining ko‘pchiligi jonli so‘zlashuv tiliga ko‘pincha mos tushmasligi rus tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilgan nazariy qoidalarining salbiy ta’siri, deyishimiz mumkin. Bu fikrga qo‘shimcha sifatida yana bir holatga e’tibor berishimiz lozim ko‘rinadi. Ilm-fan rivojiga davlat miqyosida e’tibor va g‘amxo‘rlik kuchaytirilgan bir paytda O‘zbek

¹²³ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 109.

tili muammolariga bag'ishlangan qator dissertatsiya-tadqiqotlarda ruscha-internatsional so'z-iboralar ko'p o'rin egallamoqda. Aksincha, bunday tadqiqotlarda o'zbek tilimiz boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengroq ko'rsatish asosiy maqsadlardan biri bo'lmog'i lozim emasmikin?

Erkin Vohidov ta'kidlashicha, "Zarif inson So'z qadriga yetadi. So'zning mag'zini chaqib, tub ildizini qidiradi. Insonni ulug'laydigan, uni qaro yerdan osmoni falakka ko'taruvchi fazilat bahramandlikdir. O'z ona tilini bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan, o'z ona tilining boyu kambag'alligi, mayin va dag'alligidan qat'i nazar. O'z tiling o'z vatanningdek aziz, o'z onangdek tabarruk"¹²⁴. Darhaqiqat, inson inson bo'lib yaralibdiki, u har doim o'z tili va o'z so'zi bilan qadr topgan. So'zining qudrati hamda jozibasi bilan jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qaysi tarixiy davrga e'tibor bermaylik, har bir jamiyat va tuzumda millatning millatligini, davlatning o'ziga xos mentalitetini birinchi navbatda uning tili belgilab bergan. Tilning sofliги uchun, uning yo'qolib ketmasligi uchun o'sha millatning jonkuyar farzandlari har doim so'z bilan yoki kuchli siyosat bilan kurashib kelishmoqda. Jumladan, keyingi davrlarda ham tilimiz qadr-qimmatı, uning takomillashuvi yo'lida tinimsiz jonbozlik qilgan ko'plab ma'rifatimiz darg'alarimiz nomlarini faxr bilan tilga olishimiz mumkin.

Albatta, ulug' mutafakkirlarimiz merosini kamsitmagan holda, ular qatoriga xalqimiz tili va adabiyoti ravnaqi yo'lida jonbozlik qilib kelgan Erkin Vohidovni ham kiritsak adolatdan bo'ladi. Aslida, Erkin Vohidovni yarim asr davomida butun iste'dodi va ijodini xalqimizga xizmat qilishga, adabiyotimiz va tilimiz taraqqiyoti va jozibadorligi uchun kurashga bag'ishlagan haqiqiy o'zbek millatining Qahramonlaridan biri sifatida tan olishimiz va e'zozashimiz lozim.

Erkin Vohidovning publitsistik va adabiy-tanqidiy merosini o'rganish – ulkan ijodkor siymosi va uning badiiy-estetik olamini to'la tasavvur etishga yordam berib qolmay, balki XX asr o'zbek adabiyoti, tanqidchilik va adabiy-estetik tafakkur tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo'li va omillarini ham kengroq

¹²⁴ Вохидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014 – Б. 6.

o‘rganishga imkon beradi. Ustozning publitsistik maqola va suhbatlari chinakam vatanparvarlik va millatparvarlikning yorqin namunalari bo‘lishi bilan yosh adiblarning burchlari va ijod qirralarini anglatib, ona tili va adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida ta’sirchan omil bo‘lib kelmoqda. Ular “yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati bo‘lgan inson qalbi va ruhiyatini chuqur yoritish, badiiy til va tasvir, janr xususiyatlari” kabi jahon adabiyotshunosligining asosiy adabiy-nazariy muammolarigacha qamrab olganligi bilan ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmay keladi.”¹²⁵

“O‘zbek tilim boshqalarga qandoq, bilmayman, lekin men uchun dunyoda eng boy, eng go‘zal, eng barkamol til. O‘zbekcha gapirib tilim chiqqan, qo‘limga qalam olib o‘zbekcha yozganman, qalbim sevinchlari va iztiroblarini o‘zbekchada qog‘ozga tushirganman. Unga mehrimni, minnatdorchiligimni izhor etib bir kitob yozsam, degan niyatim bor. Yozganlarim she’r bo‘lmasada she’rdek o‘qilsa deyman. Ona tilimning ko‘rki, barvasta qomati sahifalardan bo‘y ko‘rsatib tursa, deyman. Orzularim ko‘p. Qani edi parvozim orzularim qadar yuksak bo‘lsa...”¹²⁶ Erkin Vohidovning yuksak bu orzusi allaqachon ushalgan deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Shoirning o‘zbek tilimizga, bag‘rikeng xalqimiz va millatimizga bo‘lgan cheksiz mehri va minnatdorligi nafaqat umri so‘ngida yozgan “So‘z latofati” asarida, balki barcha she’r va dostonlarida, yurak tug‘yonlari va ezgu tilaklari bilan yo‘g‘rilgan purma’no suhbat va maqolalarida ham yuksak mahorat va san’atkorona ifodalanganiga millionlab yurtldoshlarimiz shohid.

“Chinakam badiiy asar shoirning yurak bilan yolg‘iz qolib suhbatlashishi. Hozir jo‘n nasihat zamoni emas. “Ey birodarlar, ko‘proq kitob o‘qinglar!” degandan ko‘ra o‘sha kitobni yozish kerak. “Teatrqa ko‘proq tushinglar, televizorni ham tez-tez ko‘rib turinglar” degandan ko‘ra, ularning ma’naviy saviyasini balandroq ko‘tarish lozim. Kerak bo‘lsa shoirning o‘ziga dars berib qo‘yadilar”, “Yuraklarni larzaga soladigan she’riy so‘zing bo‘lmasa to‘g‘richa

¹²⁵ Баҳодир Карим. Бир тақриз талқини. Адабиётимиз фаҳри. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 275.

¹²⁶ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил. – Б. 57.

gapingni to'g'richa ayt qo'y. Undan ham yaxshisi sukut, sukut qil"¹²⁷ deydi 1993-yil "Vatan" gazetasiga bergan maqolasida. Bundan ko'rinadiki, adibning ma'naviyat, she'riyat, bilim haqidagi qarashlari qanchalar dolzarb voqeylik ekanligi bugungi kunda jamiyatimizda insonlar hayotida bilimga bo'lgan dunyoqarash insonlarning bozor munosabatlari jamiyatida bir muncha pasayganligi, ma'naviyat esa telekanallarimizda berilayotgan ayrim o'rtamiyona saviyadagi seriallar va ko'rsatuvlar orqali namoyon bo'lmoqda, desak yanglishmaymiz.

Adib tomonidan 1993-yil 22-iyunda "Xalq so'zi" gazetasiga bergan javoblarida shunday deydi. "Ruhlar isyoni"da shunday satr bor: "Iste'dodning tabiati isyondir". Bu dunyoda shoir bor – isyon bor. Haqiqiy shoir ko'rgan kuniga qanoat qilib, bir joyda to'xtab qola olmaydi."¹²⁸ Shu o'rinda adibning mustabid sovetlar tuzumi sharoitida ham o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozonganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shoir o'z she'riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Buning yorqin misolini shoirning "O'zbekim" qasidasida ko'rishimiz mumkin, Bu qasida 1968-yilda chop etilgan bo'lib, muallif she'riyatining eng avj pallasini hisoblanadi. Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-u xonlar sha'niga, ular tomonidan amalga oshirilgan ezgu amallarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – o'zbekimga qasida bag'ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy publitsistik isyon, deya baholasak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki bunday ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho'ro mustamlakasi barcha millatlar "sovet xalqi" degan umumiy, sun'iy nom bilan atalardi. Insonlarning ma'lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atalib, bunday ijod namunasini yaratgan ijodkorlar ham siyosiy, ham ijtimoiy tazyiq ostiga olingan. Ayon bo'ladiki, Erkin Vohidov ijodi iste'dodining dastlabki isyoni ayni "O'zbekim" qasidasida ulkan bir portlash

¹²⁷ Воҳидов Э. Сайланма. Эрк саодати. 6-жилд: Мақолалар, суҳбатлар, хотиралар. Кенжабек М., Жўраев Н, Басҳарова Ф. – Тошкент: Шарқ, 2018. – В. 19.

¹²⁸ Воҳидов Э. Сайланма. Эрк саодати. 6-жилд: Мақолалар, суҳбатлар, хотиралар. – Тошкент: – Шарқ, 2018. В. – 17.

ko‘rinishida, so‘z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko‘rinadi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asar haqli ravishda darsliklarimizdan faxrli o‘rin olgan. Millatning sha‘ni-g‘ururi toptalgan, tarix darsliklarimizda xalqimizning shonli o‘tmishi qora bo‘yoqlar bilan bulg‘angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi “Assalom, ey ulug‘ og‘a” deb va partiyaga hamdu sanolar bilan boshlangan zamonlarda xalqimizni va tariximizni ulug‘lovchi “O‘zbekim” qasidasi g‘ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi”¹²⁹.

80-yillarga kelib Erkin Vohidov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar bo‘y ko‘rsatdi. “Ya‘ni, avval So‘z kelgan, Ollohning “bo‘l” degan nidosi kelgan va mayda zarrachalar olamidan yangi Olam yaralgan. Agar shu ilohiy So‘z kelmaganda olam kukunligicha qolgan bo‘lardi”¹³⁰ Adib ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bu asar ijodkorning so‘z bilan bog‘liq o‘y-hayollar, ilmiy-nazariy qarashlar, insoniy kechinmalar, qadriyat va urf-odatlar, milliy-madaniy, shuningdek, diniy qarashlarini ifoda eta olgan. Shuningdek, inson va insoniyat hayotida so‘zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi, millatlarni bir biriga bog‘lovchi va shu bog‘lash orqali butun insoniyat bir-biriga naqadar kuchli bog‘langanligini chuqur his etishga qaratilgan asosli qarashlari o‘z aksini topgan. Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodi butun xalqimiz tomonidan qanchalik qadrlanishi va e‘zozlanishi, asarlari xalqning barcha qatlamlari tomonidan sevib o‘qilishi isbot talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchamizga ayon. Shuni alohida aytib o‘tish joizki, adib iste’dodining qanchalik serqirra ekanligini u tomonidan yaratilgan she’riy hamda nasriy-publitsistik asarlarida ko‘tarilgan mavzular misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Jumladan; “So‘z latofati” kitobida “Ibtido”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes” kabi ilmiy-nazariy qarashlari jamlangan maqolalari adibning naqadar keng va teran falsafiy va ilmiy dunyoqarashga ega ekanligini ko‘rsatib turishi bilan ham

¹²⁹ <https://uz.wikipedia.org> Химик1991 очик энциклопедия

¹³⁰ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2014. –Б 5.

e'tiborga loyiq. Shoir o'zining nafaqat mumtoz badiiy asarlari bilan, balki publististik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabt etganligini alohida ta'kidlash lozim.

Jahon adabiyoti tarixida, xususan, Navoiy davri she'riyatida zullisonaynlik, ya'ni arabcha-forscha so'z-iboralarining qo'llanishi ham ijodiy bir an'ana sifatida keng tarqalgan. Arab-forscha so'z-iboralar xalqlarning tarixiy o'tmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyat idagi o'zaro yaqinlik va mushtaraklikni ham aks ettirib turadi. Bu esa tillarning bamisoli bir guldasta yanglig' o'zaro bir-birini boyita olishidan hamda adabiy asarlar mazmuni, ohangdorligini kuchaytirishidan ham yorqin dalolatdir. Bular dunyo xalqlari og'zaki va yozma ijodi namunalarining zavol bilmas umuminsoniy ma'naviy qadriyatlari va baynalmilal fazilatlari sifatida bugun ham muhim ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Misol tariqasida mashhur shoirlarimiz – ErkinVohidov va Abdulla Oripovning she'r va dostonlarida o'zbek tilimizning beqiyos lug'at boyliklari va rang-barang badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Ayni vaqtda, hassos shoirlarimizning ko'plab mumtoz she'rlarida fors-arabcha so'z-iboralar hamda qo'shimchalar mohirona qo'llanganligi ham ularning til mahoratidan dalolat beradi. Erkin Vohidov qator she'r-g'azallarida san'atkorona qo'llangan forsiy- arabiy so'z va qo'shimchalarning mazkur asarlar mazmunini va ohangdorligini kuchaytirishi bilan birga ularning ta'sirchanligini ham oshirganini ko'ramiz. "Vatan umidi" she'ridagi quyidagi baytlarga nazar tashlaylik:

“Dilim dog'liq, ko'zim bog'liq, tilim yo'q, **besuxan** bo'ldim,
Muazzam Sayxunu Jayxun labida tashnalab qoldim,
Kiyintirdim jahonni, jismi uryon **bekafan** bo'ldim...”¹³¹

Forsiy “**be**” qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlarning (**besuxan, bekafan, bevatan...**) yoki “**bandi kishan**”, “**sohibi chaman**” kabi izofali iboralarining

¹³¹ Воҳидов Э. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1992. – Б.95.

tanlab ishlatilganligi ham fikrimizning isbotidir. Bunday xarakterli soʻzlar A.Oripov sheʼrlari tilida ham koʻplab uchraydi.

“**Savob**” sheʼridan misol:

“Oʻzga erur **bidʼat** va **karam**,

Himmatu saxovat tiriklarga xos...”¹³²

kabi arabcha-forscha soʻzlarning maʼnodor, taʼsirchanligi yoxud falsafiy bir toʻrtliglidagi “**Bisyor** boʻlsa bol ham **beqadr**” satrida forscha soʻz va qoʻshimchani qanchalik oʻrinli qoʻllanganligiga eʼtibor qarataylik. Matndagi “**be**” qoʻshimchasi oʻrniga oʻzbek tilimizdagi “**siz**” qoʻshimchasi qoʻyib koʻrilsa, misralardagi ritm va ohang ham oʻzgarib, avvalgi tabiiylik va jarangdorlik yoʻqoladi, demakki, taʼsirchanlik ham susayadi. Shuningdek, **bisyor** soʻzini **koʻp**, **moʻl**, **serob** kabi maʼnodosh-sinonim soʻzlar bilan almashtirib koʻrilsa ham, mazkur sheʼriy satrlardagi poetik mukammallikka salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Ayniqsa, oʻzbek tilimiz rivoji va istiqboli borasida Erkin Vohidov faoliyati va uning “Soʻz latofati” kabi asarlari alohida eʼtiborga loyiq. 2014-yili kitobxonlarga taqdim etilgan va 2018-yili yanada toʻldirilib, boyitib, qayta nashr etilgan “Soʻz latofati” asari adabiy va maʼnaviy hayotimizda quvonchli bir voqea boʻldi. Kitob allaqachon xalqimizning maʼnaviy-ruhiy mulkiga aylanib, tafakkurini boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tomchida quyosh aks etgani kabi bu moʻjaz asarda ham oʻzbek tilimizning bemisl boyligi oʻziga xos muxtasar bir shakl va goʻzal yoʻsinda yorqin ifodalanganligini alohida taʼkidlash lozim. Bu jihatdan ushbu asar buyuk ustoz Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-ugʻatayn” asaridan ilhomlanib va taʼsirlanib yozilgandek taassurot qoldiradi.

Navoiyning tengsiz dahosi, bu olamdagi insonlarga oʻxshamaydigan va hech bir qolip-mezonlarga sigʻmaydigan darajada buyuk shaxs ekanligini chuqur anglay olgan va ul zotning yuksak sanʼatkorligidan cheksiz hayratlangan va asarlaridan ilhomlanib, ulugʻ mutafakkirimizning tilshunoslik va adabiyot shunoslik sohasidagi qutlugʻ anʼana va saboqlarini ham ixlos va eʼtiqod bilan

¹³² Вохидов Э. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – Б. 95.

ijodiy davom ettirgan hassos shoirlarimizdan biri ham, shubhasiz, Erkin Vohidov desak, haqiqatdan yiroqlashmagan bo‘lamiz. Shoirning umri poyonida yozilgan, ulkan hayotiy va ijodiy tajriba va salohiyatining g‘oyat salmoqli bir yakuni bo‘lib maydonga kelgan “So‘z latofati” asaridagi ko‘plab noyob so‘z-iboralar va she‘riy misralar tahlili orqali bu haqiqatga yana bir karra guvoh bo‘lamiz. Darhaqiqat, unutilgan so‘zlarimizni tiklash, borini saqlab va boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish faqat tilshunos mutaxassislarning emas, butun millatning ishi bo‘lishi lozimdir. Tilga mehr-e‘tibor ham xuddi ota-onaga, el-yurtga va vatanga bo‘lganidek, muqaddas burchimiz. Bolalikdan shuurimizga singib ketgan ba‘zi so‘zlarni eslaylik: dunyodagi qaysi tilda **quyosh** yo **samoning** o‘nlab nomlari bor? **Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko‘k...** Bunday misollar tilimizda yuzlab topiladi.

O‘zbek tilimizning boyligi uning qadimiy tarixiy va ma‘naviy ildiz-manbalariga bog‘liq. Ya‘ni tilimizda ma‘nodosh so‘zlarimizning ko‘pligiga asosiy sabab ham – o‘zbek tili uch daryodan suv ichganligida. Diniy, ilmiy, ijtimoiy, atamalar asosan arab tilidan; ko‘pgina ish qurollari: **jomadon, panjshaxa, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog‘oz** kabi hunarmandlikka oid so‘zlarimiz, shuningdek, yuksak she‘riy uslubga xos so‘z va izofali iboralar tilimizga fors tilidan kirib kelgan.

Yoxud tilimizda keng qo‘llanadigan ismlarimiz ham ma‘nodorligi bilan ajralib turadi. Qadim-qadim zamonlarda ajdodlarimiz quyoshga, oyga, yulduz va sayyoralarga topinganlar. Dasht-u sahrolar osha olis, mashaqqatli yo‘llarda kunduzi quyosh, kechasi oy va yulduzlar ularga mash‘ala, qiblanamoday qadrli bo‘lgan. Shu bois o‘g‘lonlarining ismini ko‘pincha yuksak orzular bilan Kuntug‘mish, Oybek deb nomlashgan va qizlarining ismlarini esa Oybachin, To‘lganoy, Yulduzxon, Zuhro, Surayyo, Mushtariy, Sitara deb ataganlar.

Kitobda necha yuzlab turkiy va arab-forsiy so‘zlarning tarixiy va etimologik tahlilidan tashqari xalq maqollari, matallari haqidagi san‘atkorona kuzatish va xulosalari ham Erkin Vohidovning o‘ziga xos falsafiy-donishmandligi bilan yo‘g‘rilganligi qiziqish va mehrimizni oshiradi. Ma‘lumki, maqol va

matallarda hikmat bo‘lib, u hikmatli so‘z deb ataladi va asrlar osha og‘izdan og‘izga ko‘chib o‘tadi. Misol uchun, xalq orasida keng qo‘llanib keladigan va hammamiz yod biladigan, ammo ma’nosining g‘alatiligi haqida o‘ylab ham ko‘rmagan **“Gap ko‘p, ko‘mir oz”** degan iborani shunday sharhlaydi: “men bunda chuqur ma’no, tagdor fikr ko‘rmadim. Suhbat cho‘zilsa, sandalning cho‘g‘i sovub qolgani uchun shunday deydilarmi? Bu gapda na badiiyat, na hikmat bor? Shunday teran mushohadalar natijasida shoir chuqur hayotiy va haqqoniy bir xulosaga keladi. Ya’ni “g‘alati mashhur” bu ibora aslida **“Gap ko‘p-ku, umr oz”** tarzida ixcham va keng ma’nodagi xalqona shaklda bo‘lgan. **-Ku** yuklamasining keyingi so‘zga ko‘shilib ketishidan **umr ko‘mirga** aylangan. Dono xalqimizga mansub bo‘lgan “asliyatni tiklasak, dunyoning dardini aytishga umr yetmaydi, degan falsafiy xulosa chiqadi”. Bunday teran fikrlar shoirning el-yurt orzu-umidi va g‘am-tashvishlari bilan birga hamnafas bo‘lib yashashi samarasi bo‘lib yuzaga keladi va bu fazilat uning jamiyatda bo‘ladigan jiddiy muammolarga, jumladan, tilimizning kelajagi va taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini ham kuchaytiradi.

Erkin Vohidovning tilimiz sofligi va ma’nodorligi uchun jonbozligi turli shaklda, jumladan, muharrirlik-noshirlik faoliyatida ham namoyon bo‘lardi. Bu jihatdan ustoz shoirimizning ayrim nashriyotdagi “mutaxassis”larning tilga e’tiborsizligi va chalasavodligini ko‘rsatuvchi bir xotirasi xarakterlidir. “Nashriyotda muharrir bo‘lib ishlardim. Bir she’riy bayozni bosmaxonaga topshirdik. Bir oy o‘tib terilgan nusxa – korrektura keldi. Ne ko‘z bilan ko‘raylikki, biror sahifa bexato yozilmagan. Harf teruvchi hamma she’rlarni o‘zi tushungancha “to‘g‘rilab” chiqqan. **Muzofot** mukofotga, **muxammas** musallasga, pesha **teshaga** aylangan. Hammasidan qizig‘i, bir g‘azalxon shoirimizning **Ne muattarlikki bor, ul mushki anbardin kelur** degan satrini “mushuk ombordan kelur”, deya o‘zicha tuzatibdi. O‘sha harf teruvchini suhbatga chaqirdik. Xatolarini ko‘rsatdik. U esa, uzr aytish o‘rniga biz bilan bahs qilishga tushdi. “Mushuk ombordan keladi-da, boshqa qayerdan keladi?” deb turib oldi. Biz so‘zlarning ma’nosini chaqib, qozoqning to‘qqiz pulidek qilib tushuntirganimizdan keyin ham xatosini bo‘yniga olmadi, o‘zimizni aybdor qildi. Odamzod

tushunadigan qilib yozinglar-da, – dedi u bizga va g‘olibona qadam tashlab chiqib ketdi. O‘shanda biz ijodkorlar, muharrirlar emas, oddiy harf teruvchi ustun chiqdi. Uning aytganlari o‘sha zamonning so‘zi, davlatning, hokim mafkuraning so‘zi edi. Yo‘qsil madaniyati deb atalgan dunyoqarashning ifodasi edi. Biz hammamiz nasl-nasabimizning ulamo, mudarris o‘tganini yashirib, qashshoq, batrak bo‘lgan kechmishimizni ulug‘lagandek, yozgan she‘rlarimizning oddiyligi, jo‘nligi bilan maqtanar edik. Shoir uchun eng buyuk maqto‘v – she‘rning soddaligi hisoblanardi. Yetmish yil hokimlik qilgan bu siyosat boshqa tillar kabi o‘zbek tilini ham abgor qildi”.¹³³ Mana mustamlaka davrida o‘zbek tilimiz va ma‘naviyatimizga hukmron mafkuraaning johillarcha munosabatining ayanchli oqibatlaridan bir namuna. Erkin Vohidov – haq. Tilimizning sofliigi, boyligi va ravnaqi yo‘lida barchamiz mas‘ul bo‘lishimiz lozim.

Ancha yillar avval Erkin Vohidov tilimiz rivoji uchun ham jiddiy bir muammoni o‘ziga xos bir ziyraklik va kuyunchaklik bilan shunday ta’kidlagan edi: “Chetdan kirgan so‘zlarni xalqimiz allaqachon o‘z tiliga moslab olgan. Biz doktor, mashina, stakan, ryumka deb yozsak va aytishga urinsak-da, xalq do‘xtir, moshina, istakon, rumka deb ishlatadi va anglab-anglamay xalqaro qoidalarga amal qiladi. Bil’aks, tilshunos olimlar sun’iy qoidalar bilan o‘z ona tilimiz qonuniyatiga ham, xalqaro qonuniyatga ham zid ish tutadilar”. Baynalmilal so‘zlarni mohirona tarjima qilish yoki o‘z ona tilimizga moslash va xalqqa qulay qilish bilan birga badiiy adabiyot, avvalo, she‘riyat uchun zarurligini ham alohida ta’kidlaydi. Dunyo kezgan shoirimiz xotiralar idan biri shu jihatdan diqqatga molik va undan ham ibrat olsak arziydi: “Amerikada bir yosh uyg‘ur yigitdan **“unolg‘i”** degan so‘zni eshitdim. **Mikrofon** ma’nosida. Juda chiroyli topilgan, til tabiatidan kelib chiqqan va tez o‘zlashib ketadigan so‘z ekan.”¹³⁴ Bunday xarakterli misollar ham tilimizni zamon bilan hamnafas, hamqadamligini kuchaytirib, uni boyitadi ham.

Ona tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori Navoiy an’analariga voris bo‘lgan mumtoz adiblarimizning ulkan xizmati yana shundaki, ular

¹³³ Shukur Qurbon. Erkin Vohidov saboqlari. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. – B. 136.

¹³⁴ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 216.

o‘zlarining yetuk badiiy asarlari bilan adabiyotimizni yangi bir pog‘onaga ko‘tarish barobarida milliy tilimizning boyishi va rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shdilar. Ularning adabiyotimiz xazina sidan o‘rin olgan mumtoz asarlari nafaqat hayotiy mazmuni va yorqin xarakterlari bilan, balki o‘zbek tilimiz nafosati va boyligini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan ham ajralib turadi.

So‘z san’ati barcha zamonlarda ham adabiyotning, demakki, tanqid-adabiyotshunoslikning ham mangu muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Ona tilimiz Davlat tili sifatida yashar ekan va uning ravnaqi yo‘lida barchamiz mas’ul ekanmiz, buyuk adiblarimiz ijodi va badiiy til saboqlari yanada chuqur ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan adabiyot va tanqidchiligimiz va ma’naviyatimiz uchun ham muhim bir holatga e’tibor qaratish lozim. Ba’zi taniqli tanqidchi va adabiyotshunoslarimizning maqolalari va hatto yirik hajmdagi tadqiqotlarida ham badiiy asar tili masalasiga deyarli e’tibor berilmasligini oqlab bo‘lmaydi. Aslida, bunday e’tiborsizlik-ruhiyatimiz va ma’naviy tafakkurimizdagi bir kemtiklik sanalishi kerak.

Ulug‘ adiblarning tilimiz jonkuyari sifatidagi serqirra faoliyati o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish va milliy tilimizning ravnaqi yo‘lida jonbozlik qilishi har bir ziyoli ijodkorning yuksak vatanparvarlik burchiga aylangan paytda ijodiy bir namuna bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, Erkin Vohidovning O‘zbek tili va adabiyotimiz boyligi va kelajagi haqidagi she’riy va publitsistik asarlari ko‘p jihatdan ibrat bo‘la oladi. Zamonaviy adabiyotimizni, ma’naviyatimiz va buyuk istiqbolimizni ham Erkin Vohidov kabi ulkan ijodkorlarsiz ko‘z oldimiza keltira olmaymiz. ”Goho yuksak tog‘lar ning bo‘yu-basti uzoqdan yaqqolroq ko‘rinadi deydilar. Lekin men u uzoq masofalarni kutib o‘tirmasdan, hozirning o‘zidayoq bir gapni ochiq-oydin aytib qo‘yay: Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh bo‘lganim bilan faxrlanaman.”¹³⁵ Adabiyoti mizning yana bir faxri bo‘lgan Abdulla Oripov tomonidan aytilgan va Erkin Vohidov ijodining mukammalligi va beqiyos

¹³⁵<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/abdulla-oripov-so-z-sehri-1992>

shuhratidan yorqin guvohlik beruvchi bunday yuksak e'tiroflarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'p asrlik tariximiz va xalqimizning boy ma'naviyati, rivojlanib borayotgan milliy tafakkurimiz ona tilimizning barqaror bo'lishi uchun asosiy zamindir. Erksevar va ma'rifatparvar xalqimiz qalbini oftob yanglig' munavvar etib turgan bu yuksak ishonch tilimiz, adabiyot va ma'naviyatimiz rivoji yo'lida tog'day tayanchdir. 2023-yil aprelda umumxalq Referendumida bir ovozdan qabul qilingan yangilangan Konstitutsimizda O'zbek tili Davlat tili ekanligi alohida modda bilan ta'kidlangani butun xalqimiz va millatimizning asriy orzusi va xohish-irodasining yaqqol ifodasidir. Donishmandlar aytganidek, tog' cho'qqilarining yuksakligi olisdan qaralganda, yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Bu tashbehni Bosh qomusimiz – Konstitutsiyamiz va Prezidentimizning “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 21-oktyabrdagi Farmoniga nisbatan ham qo'llash adolatdan bo'ladi. Bu tarixiy voqeaning ulkan ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati yillar o'tgan sari yanada yaqqolroq namoyon bo'lishi shubhasizdir.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. “So'z latofati” kitobining beqiyos ilmiy-ma'rifiy, badiiy-estetik va tarixiy bir ahamiyati yana shundaki, unda Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Navoiy va Mirzo G'olib singari buyuk ajdodlarimiz va davrimizning mashhur adib-u ulamolari haqida ham g'oyat ta'sirchan va qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga ushbu asarda o'zbek tilimizning naqadar serqirra va serjilo ekanligi keng namoyish etiladi.

2. Erkin Vohidov badiiy publitsistikasida ko'proq so'z qudrati, so'zning badiiy ijod jarayonidagi beqiyos ahamiyati, mumtoz va zamonaviy adabiyot an'analari, adabiy jarayon va badiiy til mahorati kabi muammolari haqidagi fikr-mulohazalarini ta'sirchan shakl va uslubda ifodalagan.

3. Erkin Vohidov asarlarida ijod jarayoni, ijodkor mehnati va ilhomi kabi muammolarga ham keng o'rin berilgan. Chunonchi, Abdulla Qahhor va

Erkin Vohidovning ibratomiz e'tirofi badiiy ijod jarayonining takrorlanmas sehrli onlari ijodkorning qalbi, ong-shuurida yuz beradigan va o'y-fikrlarini junbushga keltiradigan murakkab pinhoniylar tuyg'u-kechinma va holatlarni tasavvur qilishimizda tiniq bir ko'zgu bo'la oladi.

4. Erkin Vohidovning badiiy publitsistikasida so'z qadri, badiiy ijod jarayoni hamda ijodkor laboratoriyasiga e'tibor nechog'lik aks etgan bo'lsa, shu bilan birga ko'plab maqola va xotiralarida ijod manbai xalq hayoti va unga hamdardlik tuyg'usi ham yoritilgan.

XULOSA

1. Erkin Vohidov she'riyatida ona-yurtimiz tarixi va kelajagi, o'zbek tilimiz va milliy qadriyatlarimiz tasviri asosiy o'rin tutganidek, bu zalvorli mavzular shoirning publitsistikasida ham yetakchi motivlar sifatida talqin etiladi.

2. Erkin Vohidovning tarixiy siymolarga bag'ishlangan she'rlari va publitsistik maqolalari ham adabiyotimiz rivojida muhim o'rin egallabgina qolmasdan, davr va adabiy jarayonning yetakchi tendensiyalarini aks ettirishi bilan ham muayyan qimmatga ega.

3. Erkin Vohidovning buyuk shoir va mutafakkir Navoiyga bag'ishlangan she'rlari va maqolalari nafaqat shoir ijodida, balki XX asr o'zbek adabiyoti va navoiyshunosligida ham eng yorqin va mazmundor sahifani tashkil etadi.

4. Mumtoz adabiyot tadqiqotchi olimlari va adiblar ichida O'zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilishi jabhasida va Navoiyning tengsiz siymosi, beqiyos ijodi va yuksak san'atkorligi haqida Erkin Vohidov darajasida teranlik va nuqtadonlik bilan yozgan va targ'ib etgan ijodkor juda kam uchraydi.

5. "So'z latofati" kitobining beqiyos ilmiy-ma'rifiy, badiiy-estetik va tarixiy ahamiyati yana shundaki, unda Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Navoiy va Mirzo G'olib singari buyuk ajdodlarimiz haqida ham g'oyat ta'sirchan va qimmatli ma'lumotlar keltirilib, o'zbek tilimizning naqadar serqirra va serjilo ekanligi ham keng namoyish etiladi.

6. Erkin Vohidovning yurtparvarlik va millat parvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan "O'zbekim", "Iztirob", "Ona tilim o'lmaydi" kabi ko'plab she'rlari nohaq tanqidga uchragani haqgo'y ijodkorlarimizga nisbatan mafkuraviy tazyiq va cheklovlar 50-60-yillardan keyin, hatto Mustaqillik arafasida ham davom etganligini ko'rsatadi.

7. Erkin Vohidovning "Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik", "katta iste'dod egasi G'afur G'ulom ko'nglidagi gaplarning hammasini qog'ozga tushirmay ketgan shoirlardan", – degan o'kinch – armonli e'tiroflarida mustabid tuzumdagi murakkab va ziddiyatli davr va ijodiy erksizlik muhiti ham nazarda tutilgan.

8. Erkin Vohidov publitsistik asarlari boshqa ko‘plab adiblarning maqolalari bilan qiyoslansa, uning asarlarida fakt va voqealarni yoritishda ilmiy yondashuv va mantiqiy tafakkur-mushohada va talqinlarida izchillik, tahlil – umumlashmalar ustuvorligi bilan ajralib turishini ta’kidlash lozim.

9. Erkin Vohidov nafaqat o‘z iste’dodi, yorqin shaxsi va betakror she’riyati bilan, balki xalq hayoti, dard-tashvishi, orzularini keng yoritgan teran publitsistik asarlari bilan ham va badiiy ijod olamini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi va qudratli ta’sir ko‘rsatishiga dalildir.

10. Benazir shoirimizning o‘zbek tilimizning sofliги va rivoji uchun izchil kurashi va chuqur hayotiy haqiqat bilan yo‘g‘rilgan fikrlari milliy tillar rivoji uchun qayg‘urish ehtiyoji va zarurati ortib borayotgan bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb va muhim ahamiyatga egadir. Shoirning so‘z tanlash va qo‘llash san’ati, ilmiy-badiiy tahlil va yetuk tarjimalari o‘ziga xos bir ijodiy mahorat maktabi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san’at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltrishning mustahkam poydevori // Xalq so‘zi. – 2017. 4-avgust.
2. Mirziyoyev Sh. M. 2018-yil 7-avgustdagi «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma’ruzasi. <https://www.president.uz>
3. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2019-yil. 9-fevral.
4. Ислом Каримов. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш—энг олий саодатдир. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. –304 б

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar

5. Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент: Фан. 1979. – 490 б
6. Anvar O. Kulgu ochiq ko‘ngillik guvohnomasi. Erkin Vohidov. Tabassum. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘MK nashriyoti, 2013. – 214 b.
7. Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фолклор анъаналари. – Тошкент: Фан, 1990. – 124 б.
8. Адабиётимизнинг ярим асри. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Норматов У. – Тошкент: Ёш гвардия, 1967. – 244 б
9. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 234 б.
10. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 152 б.
11. Воҳидов Э. Устоз сийратига чизгилар. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 280 б.
12. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1993. – 192 б.

13. Воҳидов Э. Қарздорлик. – Тошкент: Шарқ юлдузи. – № 9. 1987. – 317 б.
14. Ёқубов О. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 247 б.
15. Ёқубов О. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 247 б.
16. Иззат С. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
17. Иноғомов Р. Шоирнинг қисмати. – Тошкент: Университет нашриёти, 1986. – 49 б.
18. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 368 b.
19. Yoʻldoshev Q. Soʻz yolqini. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 504 b.
20. Yoʻldoshev Q., Husanboyeva Q., Yoʻldosheva M. Kiyik soʻqmoqdagi yoʻlovchi. – Toshkent: Oʻzbekiston ME, 2014. – 392 b.
21. Каримов Н. Усмон Носир. – Тошкент: Шарқ НМК, 1993. – 314 б.
22. Karimov N. Istiqlol davri adabiyoti. – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – 364 б.
23. Каримов Б. Бир тақриз талқини. Адабиётимиз фахри. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 275 б.
24. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Yangi nashr, 2004. – 535 b
25. Мамажонов С. Ўзбек совет адабиёти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 191 б.
26. Мамажанов С. Теранлик: Адабий жараён ва адабий танқид. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 189 б.
27. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент: Шарқ, 1972.: – 216 б.
28. Норматов У. Ижод ва шижоат. Озод Шарафиддинов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шар., 2019. – 566 б.
29. Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил. Асарлар. X том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 344 б.

30. Орипов А. Ўзбекнинг ўз шоири. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2003. – 432 б.
31. Орипов А. Адабиёт ва замон. Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: 2006. – 215 б.
32. Paustovskiy G.K. Oltin gul. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997. – 214 б.
33. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
34. Раҳимжонов Н. Эркин Воҳидовнинг адабий-эстетик қарашларига доир. То қуёш сочгайки нур. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 541 б.
35. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 326 б.
36. Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 220 б.
37. Умуров Ҳ. Адабиётимиз автобиографияси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 264 б.
38. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 178 b.
39. To‘xliyev B. Adabiyot – xalq hayotining ko‘zgusi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 192 b.
40. То қуёш сочгайки нур. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2018. – 278 б.
41. Qurbonov Sh. Erkin Vohidov saboqlari. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. – 164 b.
42. Qosimov U., Sindorov L., Nizomova M. Adabiyotimiz sahifalari. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2017. – 163 b.
43. Қаҳҳор А. Шижоат ҳақида. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1963. – 211 б.
44. Қодирий А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 470 б.

45. Qosimov B. Uygʻongan millat maʼrifati. – Toshkent: Sharq, 2011. – 318 b.
46. Qosimov U. Adabiyotga eʼtiqod. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2018. – 167 b
47. Qosimov U., Joʻrayev M. Ijodni anglash yoʻlida. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2015. – 124 b.
48. Қўчқорова М. “Бадий сўз ва рухият манзаралари”, Тошкент: Мухаррир нашриёти – 2011. – 232 б.
49. Шукуров Н. Бу олам сахнида. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 231 б.
50. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.
51. Шарафиддинов О. Биринчи мўжиза. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 248 б.
52. Шарафиддинов О. “Халқ устозим, мен эса толиб”. – Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Шарқ юлдузи, 1989. – 327 б.
53. Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari. Биринчи мўжиза. – Тошкент: Шарқ, 1979. – 271 б.
54. Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Махмудов. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи. 1984. – 220 б.
55. Чўлпон. Адабиёт надир. Садои Туркистон газетасининг 1914-йил 4-июндаги сони.
56. Ғафуров И. Инсонийлик рисоласи. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2007. – 324 б.
57. Ғафуров И. Мангу латофат. – Тошкент: Sharq, 2008. – 462 б.

6. Xorijiy nashrlar

58. Анализ литературного произведения/ АН СССР. Ин-т. рус. Литературы. – Л., 1976. – 284 с
59. Вели Саваш. Эркин Воҳидов шеърляти тили ва услуби. – Т., 2018. – 126 б.

60. В творческой лаборатории Чехова. – М.: Наука, 1974. – 368 с.
61. Замысел, труд, воплощение. – М. Изд-во Мос. Университета, 1977. – 240 с
62. Мирзаев М. Сюжетно-композиционные особенности узбекских поэм 70-80-х годов. Дисс...канд.фил.наук. – Тошкент:, 1989;
63. Н.Павлов История Туркестана. Типография при канцелярии Туркестанского Генерал-Губернатора. – М. 1910. – 235 с.
64. О писательском труде. (сборник). – М: Советский писатель. 1956. – 224 с
65. Окладский О. Рождение книги. – М: Худ.литература, 1973. – 302 с.;
66. Пономарев Я.А. Психология творчества. – М. 1976. – 184 с
67. Русские писатели о литературном труде. В 4-х т-х. 2-3-тт. – М., 1957-1958
68. Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. –М: Худ.литература, 1970.– 276 с.
69. Советские писатели. Автобиографии. В 5 т-х. 3-5-тт. – М: Худ. Литература, 1973-1988. – 245 с
70. Толстой Л.Н. О литературе. – М: Худ.литература, 1955. – 764 с.
71. Храпченко М.Б. Лев Толстой как художник. – М: 1971. – 281 с.
72. Цейтлин А.Г. Труд писателя. – М: 1969. – 542 с.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar

73. N.Komilov. Tasavvuf va kalom ilmi . – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 441 b.

IV. Badiiy adabiyotlar

- 74.Абдуллаев О. Шеърятнинг тиниқ осмони. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 145 б.
75. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 317 б.
76. Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ НМК, 2000. – 259 б.
77. Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 343 б.

78. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 243 б.
79. Воҳидов Э. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Нур, 1992. – 96 б.
80. Воҳидов Э. Муҳаббатнома. Садоқатнома. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 525 б.
81. Воҳидов Э. Юлдузли онлар шукуҳи. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 210 б.
82. Воҳидов Э. Озодликнинг илк шаббодалари. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 386 б.
83. Воҳидов Э. Эрк саодати. Асарлар. 6 жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 317 б.
84. Воҳидов Э. Теран дарё сокин оқар. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 300 б.
85. Воҳидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 271 б.
86. Орипов А. Нажот қаласи. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 280 б.
87. Орипов А. Ҳикмат садолари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 154 б.
88. Орипов А. Муножот. – Тошкент: Ғ.Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. – 194 б.
89. Oripov A. Soʻz sehri. – Toshkent: Sharq, 1992. – 245 b.
90. Mingnarov T. Tanlangan asarlar 3-jild.–Toshkent: Sharq NMK, 2019.– 536 б.
91. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 571 б.
92. Gʻulom Gʻ. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 352 b.
93. Ҳамид Олимжон. Асарлар. 3-т. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1960. – 318 б.

94. Хусанхўжаев С. Сайланма. Уч жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент: 1982. – 335 б.

V. Lugʻatlar

95. Хотамов Н., Б.Саримсоқов. Адабиётхунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1983. – 363 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

96. Dadaboyev M. Erkin Vohidov hajviyoti. Fil.f.dok. (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2019. – 132 b.

97. Togʻayev O. Oʻzbek badiiy publitsistikasi. – Toshkent: Fan, 1973.

98. Qurbonova S. Yozuvchi publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari (Oʻ.Hoshimov, X.Doʻstmuhammad badiiy publitsistikasi misolida). Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010

99. Xolmatova N. “Erkin Aʼzamning badiiy-estetik qarashlari” filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Fargʻona, 2021. – 144 b.

100. Хидирова М. Тоғай Мурод асарлари поэтикаси ва ижод жараёнининг ўрганилиши. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори. (PhD) диссертацияси. – Жиззах, 2022. – 128 б

101. Хужамбердиева Ш. Таълим босқичларида Эркин Воҳидов ижоди ва ҳаётини ўргатиш усуллари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. (PhD) диссертацияси. – Наманган, 2019. – 132 б.

102. Hafizova M. “Ijodkor badiiy tafakkurining shakllanishida adabiy muhit, anʼana va tarjimaning oʻrni” (Э.Vohidov ijodi misolida) filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Toshkent – 2024. – 135 b.

VI. Ilmiy toʻplam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

103. Boltaboyev H. Turkiy tazkiralarda Navoiy siymosi. // Jahon adabiyoti, – №2, – 2013. – 193 b.

104. Бадий ижод ҳақида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – 268 б.

105. Vohidov Э. Qalbimiz hududlarini omon saqlaylik // Yoshlik, 2011-yil, 5-son.

106. Воҳидов Э. Донишқишлоқ латифалари & Донишқишлоқ хангомалари. Эркин Воҳидов билан 1988-йилги суҳбат.
107. Воҳидов Э. “Эрк” рўзномаси. Апрель. 1989 й.
108. Воҳидов Э. “Санъат ва тафаккур” мақоласи, 1978-йил
109. Ёқубов О. Шоир ҳақида сўз // Sharq yulduzi. 12-son, 1992. – 192 б.
110. Jumayev N. Davlat tili nufuzi va mavqei // Til va adabiyot ta’limi, – №1. –2020. – 198 б.
111. Jabborov N. Milliy ruhning betakror ifodasi // “Erkin Vohidov ijodining ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi Res.ilmiy anjumani mater. – Toshkent: 2017. – 425 б.
112. Каримов Н. Эркин Воҳидов гулшани. Эркин Воҳидов ижодининг туркий халқлар маданиятида тутган ўрни (Халқаро илмий-амалий конференция материаллари). – Тошкент: ЎЗМУ, 2022 – 472 б.
113. Назаров Б. Адабиётимизнинг ярим асри. // Тўплам. – Тошкент, 1967. – 243 б.
114. Ochilov Э. Maxtumquli ijodida Navoiy an’analari. // Ilmiy konferensiya.– Toshkent, 2014. – 168 б.
115. Fayzulloh V. Azaliy hikmatni izlab / Sharq yulduzi, 2016, 2-son. –168 б.
116. Назаров Б. Адабиётимизнинг ярим асри. // Тўплам. – Тошкент, 1967. – 243 б.
117. Ochilov Э. Maxtumquli ijodida Navoiy an’analari. // Ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2014. – 168 б.
118. Salohiy D. Navoiy she’riyati talqinlari. // Ilm-naz.konf. – Тошкент, 2014.
119. Shayxzoda M. Asrlar osha/Jahon adabiyoti, – №2. 2012. –172 б.
120. Qayumov A. O‘zbek xamsashunosligi. // Ilm-naz. konf.mat. – Toshkent, 2014. – 247 б.
121. Қодиров П. Бадиий тил муаммолари, Мақолалар тўплами. – Тошкент, 1977. – 340 б.

122. Куронов Д. Шеърда мантиқ керакми? // Шарқ юлдузи, 2016. – №2-сон.

VII. Internet saytlari

123. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulhamid-cholpon-adabiyot-nadir.html>
124. <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-yoshlar-bilan-suhbat-1955/>
125. https://uza.uz/uz/posts/erkin-vohidov-izhodiga-bagishlangan-festival-adabiyotning-fayzli-bayramiga-aylandi_601472
126. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/anvar-obidjon-porpiroq-chehra.html>
127. <https://uza.uz/uz/posts/nazhmiddin-komilovni-eslab>.
128. <https://uz.wikipedia.org> / Ximik1991 ochiq ensiklopediya
129. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/saydi-umirov-oltin-zanglamas-2007>
130. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/shuhrat-sirojiddinov-alisher-navoiy.html>

